

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
IJTIMOIY-IQTISODIY FAKULTETI

TARIX YO'NALISHI

KARIMOV ISLOMJON ILHOMJANOVICH

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**MUHAMMAD SHAYBONIYXON VA UNING O'ZBEK DAVLATCHILIGI
TARIXIDA TUTGAN O'RNI**

Ilmiy rahbar: t.f.n., dotsent A.Isoqboyev

Namangan -2018

M U N D A R I J A

KIRISH.....		3
I BOB. XV ASR OXIRI – XVI ASR BOSHLARIDA DASHTI QIPCHOQ VA MOVAROUNNAHRDAGI SIYOSIY AHVOL.....		
1.1. Abulxayrxon – Dashti Qipchoqda O'zbeklar davlati asoschisi..... 1.2. Temuriylar davlatining inqirozi va Muhammad Shayboniyxon tarix sahnasida..... 1.3. Muhammad Shayboniyxonning harbiy yurishlari, hayoti va fojeali halokati..... 		
II BOB. MUHAMMAD SHAYBONIYXON DAVRIDA MOVAROUNNAHR VA XUROSONDAGI IJTIMOIY-IQTISODIY VA MADANIY HAYOT.....		
2.1. Muhammad Shayboniyxon davrida Movarounnahr va Xurosondagi ijtimoiy-iqtisodiy hayot..... 2.2. Madaniy hayot va Shayboniyxonning adabiyot sohasiga qo'shgan hissasi..... 2.3. Muhammad Shayboniyxon ijodining xorijiy mamlakatlarda o'r ganilishi..... 		
XULOSA.....		
FOYDALANILGAN RO'YXATI.....		ADABIYOTLAR
ILOVALAR.....		

KIRISH

Bitiruv malakaviy ishi mavzusining dolzarbligi. O'zbekiston mustaqillikka erishgach, o'zbek xalqi o'zining boy va qadimiy tarixini qaytadan kashf etish imkoniga ega bo'ldi. "O'zbek xalqining necha ming yillik tarixida qanday murakkab davrlar, og'ir sinovlar bo'lganini barchamiz yaxshi bilamiz"¹. Mana shu sinovlarga boy o'tmish, mana shu so'nmas madaniyat o'zbek xalqini buyuk va yorqin kelajak sari odim qadam tashlashga, qiyinchilik va sinovlarni yengib o'tishga undaydi, mushtarak maqsadlar yo'lida birlashtiradi. Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev aytganlaridek: "O'zbekistonning eng yangi tarixi va biz erishgan olamshumul yutuqlar mard va matonatli xalqimiz har qanday qiyinchilik, to'siq va sinovlarni o'z kuchi va irodasi bilan yengib o'tishga qodir, deb baralla aytishga to'la asos beradi"².

Yuqorida ta`kidlanganidek, mustaqillik xalqimizga o'zligini qaytarib berdi. Buning natijasi o'laroq, hukumatimiz tomonidan iqtisodiy, siyosiy, madaniy hamda ijtimoiy, xususan, ilm-fan sohalarini rivojlantirishga katta e`tibor berildi. Jumladan, joriy yilning boshida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev tomonidan tasdiqlangan "2017 – 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi"³ ning to'rtinchi yo'nalishida ta`lim va fan sohasini rivojlantirish, yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish vazifalarining belgilanishi fikrimizning yaqqol misolidir.

Shu o'rinda XV asrning so'nggi choragi va XVI asr boshlarida Movoraunnahr va Xurosondagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotini

¹ Мирзиёев Ш. М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини бирга курамиз. – Т.: Ўзбекистон, 2017. – Б. 5.

² Мирзиёев Ш. М. Ko'rsatilgan asar. – Б. 7.

³ Ўзбекистон Республикаси Президентининг "2017 — 2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича харакатлар стратегияси" ПФ-4947-сонли фармони // Халқ сўзи. – 2017. – № 28. – Б. 1-2.

shu davrlarda yozilgan tarixiy asarlardan olishimiz mumkin. Muhammad Shayboniyxon va Shayboniylar sulolasi tarixi o`zbek davlatchiligining ajralmas qismi bo`lib, o`zining o`ta murakkabligi va serqirraligi bilan ajralib turadi.

O`zbekiston Respublikasi 1991-yil 31-avgustda o`z mustaqilligini e`lon qilgandan so`ng, qisqa muddat ichida respublikamizning ijtimoiy-siyosiy, ma`naviy-ma`rifiy va iqtisodiy sohalarida ulkan yutuqlar qo`lga kiritildi. Jumladan, ushbu davrda erishgan eng buyuk va bebahoh yutuqlarimizdan biri – bu insoniyat tarixi va jahon sivilizasiyasida o`z o`rniga ega bo`lgan o`zbek xalqining ko`p asrlik boy madaniy va ma`naviy merosini mazmunan yangitdan o`rganish, uzoq yillar davomida soxtalashtirib kelingan haqiqiy tariximizni o`rganish va amalda tarixiy haqiqatning tiklanishi, jamiyatda ma`naviy-axloqiy poklanish jarayonlarining amalga oshirilishidir.

O`zbek davlatchiligidagi munosib o`ringa ega bo`lgan Muhammad Shayboniyxon hukumronlik davrini va bu davrdagi Movoraunnahr va Xurosan tarixini o`rganish va undan tegishli xulosalar chiqarish, bu davrdagi davlat boshqaruv tizimi, uning tartib-qoidalarini, vaqt o`tib borishi bilan unda sodir bo`lgan o`zgarishlarni tahlil etish bugungi kunda nihoyatda katta tarixiy ahamiyatga ega bo`lgan masaladir.

Bitiruv malakaviy ishi mavzusining o`rganilishi darajasi. Muhammad Shayboniyxon va uning O`zbek davlatchiligi tarixida tutgan o`rni bugungi kunga qadar alohida tadqiqot ob`yekti sifatida o`rganilamagan bo`lasada bir guruh mahalliy va xorijlik tadqiqotchilarining asarlarida mavzuga oid qimmatli ma`lumotlar uchraydi. Xususan, Ahmad Zaki Validiy To`g'on, Muhammad Fuod Ko`prulu, K. Eraslon, M. Kafali, Ya. Qoraso'y, N.N. Tumanovich, Tanju O`ral Seyhan, Charlz R'yo, amerikalik olim A. Bodrogligli, amerikalik taniqli turkiyshunos olim E. Olvort, R. Grosset, major olimlaridan H. Vamberi, Ya. Ekmann, rus sharqshunoslardan V. V. Bartold, A. A. Semenov, B. D. Grekov, A. Yu. Yakubovskiy va boshqalarning tarixiy asarlari kiritishimiz mumkin⁴. Bundan

⁴ Ахмад Закий Валидий. Бугунги турк эли (Туркистон ва яқин тарихи). – Истанбул, 1981, 2-нашри.; Абдулғози Баходурхон. Шажарайи турк. – Т.: Чўлпон, 1990.; Qoraso'y Ya. "Shayboniyxon devoni?": Doktorlik dissertatsiyasi, 1992.; Tojiboeva O. Bobur armoni. – Toshkent: Kamolot, 2000.; Shamsutdinov R., Abdullayev M.

tashqari shu davrgacha Shayboniyxon ijodini tadqiq qilingan Akbiyik O'zay, Temur Xo'ja o'g'li dissertatsiya ishlarini kiritishimiz mumkin.

Bitiruv malakaviy ishining davriy chegarasi sifatida Muhammad Shayboniyxon yashagan va hukmronlik qilgan davr oralig'idagi 1451 – 1510-yillar belgilangan. Bu davrda ro'y bergan voqeа-hodisalar, siyosiy jarayonlar, murakkab tarixiy jarayonlar tarixi yoritib berilgan.

Bitiruv malakaviy ishining maqsad va vazifalari. Muhammad Shayboniyxon shaxsi, uning hukmronlik davri tarixi, davlat boshqaruvi va siyosiy jarayonlar, bu masalaning davlatchilik, madaniy hayot rivojida tutgan o'rnini ilmiy tadqiq etish va umumlashtirish bitiruv malakaviy ishning asosiy maqsadi hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ish doirasida quyidagi ilmiy vazifalarni hal etish rejalahtirilgan:

- Muhammad Shayboniyxonning hayot yo'li yoritilgan manbalarni tahlil qilish;
- XV asr oxiri – XVI asr boshlarida Dashti Qipchoq va Movarounnahrdagi siyosiy ahvolni o'ranish;
- Muhammad Shayboniyxonning markazlashgan davlatga asos solishi va uning ahamiyatini ko'rsatib berish;
- Muhammad Shayboniyxonning harbiy yurishlari va sarkardalik faoliyatini yoritish;
- Muhammad Shayboniyxon hukmronligi davrida davlat boshqaruvi soxasidagi o'zgarishlarni tahlil qilish;

"Boburnoma"ning yo'qolgan sahifalari xususida" nomli maqolasida Bobur va boburiylarning jahon madaniyati tarixida tutgan o'rni. –Toshkent: Fan, 2008; Fayziyev T. Zahiriddin Muhammad Bobur va uning avlodlari. – T.: Yozuvchi, 1996.; Muhammadyor ibn Arab Qatag'an. Musaxxir al-bilod. Fors tilidan tarjima, izoh va ko'rsatkichlar mualliflar: Ismoil Bekjonov, Dilorom Sangirova. – Toshkent: Yangi asr, 2009; G'iyosiddin ibn Humomiddin Xondamir. Habib us-siyar fi axbori afrodi bashar. Ismoil Bekjonov tarjimasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2013.; Умняков И. И. «Абдулла-наме» Хафиз-и Таныша. – Самарканд, 1941.; Салахиддина М. А. Сведения о киргизах в «Абдулла-намэ» Хафизи Таныша. – Фрунзе, 1960.; Аҳмедов Б., Муноров Қ. Ҳофиз Таниш Бухорий. – Тошкент.: Фан, 1963.; Аҳмедов Б. Ўзбекистон тарихининг манбалари. – Т.: Фан, 1991. – 268 б.; Унинг о'зи. Ўзбекистон тарихи манбалари. – Т.: Ўқитувчи, 2001; Воҳид Ш. Қўқон хонлиги ва Бухоро амирлигига унвон ва мансаблар. – Т.: Фан, 1996. - 49 б.; Зиё А. Ўзбек давлатчилиги тарихи. – Т.: Шарқ, 2000.; Сайдкулов Т.С. Ўрта Осиё ҳалқлари тарихининг тарихшунослигидан лавҳалар. – Т.: Ўқитувчи, 1993.; Sharipova M. "Shayboniy g'azallari poetikasi": Nomzodlik darajasini olish uchun yoziligan dissertatsiyasi tayyorlamoqda.

- Muhammad Shayboniyxon hukmronligi davrida Mavarounnahr va Xurosondagi ijtimoiy-iqtisodiy hayotni ko'rsatib bersih;
- Muhammad Shayboniyxon hukmronligi davrida madaniy hayot va me'morchilikka berilgan etiborni aniqlash;
- Muhammad Shayboniyxonning ilm-fan sohasiga qo'shgan hissasini ko'rsatib berish;
- Muhammad Shayboniyxonning hayot yo'lini ilmiy adabiyotlar va manbalar orqali yoritish.

Bitiruv malakaviy ishining ob'yekti va predmeti. Muhammad Shayboniyxon faoliyati tadqiqotning ob'yekti sifatida belgilandi. Muhammad Shayboniyxon davrida yuz bergan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlardagi o'zgarishlarni ko'rsatib berish ilmiy tadqiqot ishining predmeti qilib tanlab olindi.

Bitiruv malakaviy ishining manbaviy asoslari. Bitiruv malakaviy ishining manbaviy asoslarini XV – XVI asrlarda mahalliy mualliflar tomonidan yozilgan asarlar tashkil qildi. Xususan, turkiy tilida yozilgan Muhammad Solihning “Shayboniynoma”⁵ Zaxiriddin Muhammad Boburning “Boburnom”⁶, Xondamirning “Habib us-siyar fi axbori afrodi bashar”⁷, Hofiz Tanish Buxoriyning “Abdullanoma”⁸ asarları bitiruv malakaviy ishining asosiy manbasi bo'lib xizmat qildi.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy va uslubiy asoslari. Bitiruv malakaviy ishini o'rganish va tahlil qilishda dialektikaning umumfan – mantiqiy, tizimli yondashuv va analiz-sintez uslublari hamda maxsus tarixiy – tarixiy-genetik, xronologik va tarixiy qiyoslash uslublaridan foydalanildi. Shuningdek, tarixiy bilmoqning xolislik, sababiylilik (determinizm), tarixiylik va tizimlilik (sistemali) tamoyillaridan ham foydalanildi. Turli manba va ma'lumotlarni tahlil qilishda ularga qiyosiy va tanqidiy nuqtayi nazardan yondashildi. Davr xususiyatlarini nazarda tutgan holda voqealar tarixiylik, tadrijiylik, sivilizatsion yondashuv

⁵ Муҳаммад Солиҳ. Шайбонийнома. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1989. – 336 б.

⁶ Бобур З. М. Бобурнома. – Тошкент: Юлдузча, 1989. – 410 б.

⁷ Г'юсіттін ibn Humомиддин Xondamir. Habib us-siyar fi axbori afrodi bashar. – Toshkent: O'zbekiston, 2013.

⁸ Ҳоғиз Таниш Бухорий. Абдулланома. – Тошкент: Фан, 1966. – 400 б.

usullari asosida umumlashtirildi va tahlil etildi.

Tadqiqotning nazariy-uslubiy asosini ishlab chiqishda O`zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A. Karimov va O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan ilmiy-nazariy ko`rsatmalar, turli tadbir, marosim va tantanalarida so'zlagan nutqlari, O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarorlarida belgilangan muhim vazifalar haqidagi ko`rsatmalardan foydalanildi.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

- Muhammad Shayboniyxonning hayot yo`li yoritilgan manbalarni tahlil qilish;
- XV asr oxiri – XVI asr boshlarida Dashti Qipchoq va Movarounnahrdagi siyosiy ahvol ko`rsatib berildi;
- Muhammad Shayboniyxonning markazlashgan davlatga asos solish jarayoni yoritildi;
- Muhammad Shayboniyxonning harbiy yurishlari, sarkardalik mahoratlari yoritib berildi;
- Muhammad Shayboniyxonning davlat boshqaruvi soxasidagi isloxtlari aniqlandi;
- Muhammad Shayboniyxon hukmronligi davrida Movarounnahr va Xurosondagi ijtimoiy-iqtisodiy hayot ko`rsatib berildi;
- Muhammad Shayboniyxon hukmronligi davrida madaniy hayotning ahvoli aniqlandi;
- Muhammad Shayboniyxonning ilm-fan sohasiga qo'shgan hissasini ko`rsatib berildi.

Bitiruv malakaviy ishi natijalarining ilmiy-amaliy ahamiyati. Ushbu bitiruv malakaviy ishda turli ilmiy ma'lumotlarni hisobga olgan holda, yangi uslubiy va nazariy yondashuvlar asosida Muhammad Shayboniyxon davrining o'ziga xos xususiyatlari o'rganilib umumlashtirildi. Bu ishning ilmiy ahamiyatini belgilab beradi. Shuningdek, ushbu tadqiqot natijalaridan, oliy o'quv yurtlarida talabalarga ma'ruzalar o'qish jarayonida, O`zbekiston tarixining tegishli bo'limlari,

darsliklar va o'quv qo'llanmalari yozishda, maxsus kurslarda qo'llanma, monografiya va risolalar tayyorlashda, O'zbekistonda tarixiy-madaniy merosni o'rghanish va targ'ib qilishda foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishning tuzilishi va hajmi. Bitiruv malakaviy ish o'z oldiga qo'ygan maqsad va vazifalarni inobatga olgan holda kirish, ikkita bob va oltita bo'lim, xulosa, foydalanilgan manbalar va adabiyotlar ro'yxati, ilovalardan iborat. Ishga o'r ganilgan mavzuga bag'ishlangan fotosuratlar ilova qilingan. Bitiruv malakaviy ishining xajmi 80 betni tashkil etdi.

I BOB. XV ASR OXIRI – XVI ASR BOSHLARIDA DASHTI QIPCHOQ VA MOVAROUNNAHRDAGI SIYOSIY AHVOL.

1.1. Abulxayrxon – Dashti Qipchoqda O’zbeklar davlati asoschisi.

Vatanimiz tarixi o`zbek davlatchiligi taraqqiyoti bir tekisda o`tmaganligi, uning rivojida zafarli va inqirozli davrlar bo`lganidan guvohlik beradi. Sohibqiron Amir Temur asos solgan sultanat eng yirik va qudratli o`zbek davlati bo`lganligi jahonga ma`lum. U o`z vorislariga nafaqat qudratli davlatni, shuningdek, sultanat qurish va davlatni boshqarish qonun-qoidalari bayon etilgan mashhur tuzuklarni ham qoldirgan edi. “... toki farzandlarim, avlodim va zurriyotimdan bo`lganlarning har biri,- deb yozgan edi u o`zining tuzuklarida,- unga muvofiq ish yuritsin... Bu tuzuklardan sultanat ishlarini boshqarishda qo`llanma sifatida foydalangaylor, toki mendan ularga yetadigan davlat va sultanat zararu tanazzuldan omon bo`lg’ay”⁹. Ammo, uning dasturi va vasiyatlariga amal qilinmadi. Taxt, hokimiyat ilinjida avj olgan o`zaro va ichki kurash, jangu jadallar davlatni zaiflashtirib, mamlakatni inqirozga va parokandalikka olib keldi. XV asrdan boshlab Movarounnahr hududida feodal tarqoqlik vujudga keldi. Bunday holatning paydo bo`lishiga Temur vafotidan keyin uning nabiralari va o`g’illari o`rtasida toju-taxt uchun kurashning kuchayishi sabab bo`ldi. XV asrning oxiri – XVI asr boshlarida Movarounnahr hududi bir necha mustaqil mulklarga bo`linib ketdi. Ular iqtisodiy jihatdan bir-biri bilan mustahkam bog’liq edilar, lekin ayrim viloyatlarning hokimlari o`rtasidagi uzluksiz to`qnashuvlar aholining o`zaro xo`jalik aloqalariga halaqit berdi.

Sirdaryoning yuqori oqimi va Tyan-Shan tog’ tizmalarining G’arbiy yon bag’irlaridan Dnepr daryosining quyi oqimiga qadar yoyilgan dashtlar Dashti Qipchoq nomi bilan atalgan. Bu Dashti Qipchoq atamasini XI asrda Nosir Xisrov qo’llagan. “Dashti Qipchoq XI – XV asrlarga oid arab va fors manbalarida tilga olinadi. Dashti Qipchoq aholisi sharq manbalarida – qipchoqlar rus solnomalarida polovetslar, Vizantiya xronikalarida kumanlar, venger manbalarida kunlar deb atalgan”¹⁰. Dashti Qipchoq XIII asr boshlarida Chingizzon qo’shinlari tomonidan

⁹ Темур тузуклари. – Т.: Ўзбекистон, 2011. – Б. 73.

¹⁰ Ахмедов.Б Тарихдан сабоқлар. – Т.: Ўқитувчи, 1994. – Б. 415.

bosib olingan, tarixda Jo'ji ulusi nomi bilan atalgan Oltin O'rda davlati barpo etiladi.

XIV asrning ikkinchi yarmida Dashti Qipchoqning kattagina qismi xususan, Oq O'rda va Shaybon ulusida ko'chib yurgan turk-mo'g'il qabilalari "O'zbeklar" bu bepayon hudud esa "o'zbeklar yeri" deb atala boshlanadi. Bundan o'zbekalar Dashti Qipchoqda faqat XIV asrning ikkinchi yarmidan paydo bo'lgan degan xulosa kelib chiqmaydi. Xozirgi o'zbeklar shuningdek qozoqlar, qoraqalpoqlar, boshqirdlar, tatarlar va boshqa turkiyzabon xalqlarning ota bobolari qadim zamonlardan shu xalqlar yashab turgan hududlarda hayot kechirganlar.

Ma'sud ibn Usmon Kuhistoniyning "Tarixi Abulkayrxoniy" nomli tarixiy asarida ko'chmanchi o'zbeklar va ularning XV asrda tashkil topgan davlati to'g'risida qimmatli ma'lumotlar bor. Bundan tashqari Abulkayr Fazlulloh Ro'zbehonning "Mehmonnomayi Buxoro" deb nomalangan asarida ham o'zbeklar haqida qimmatli ma'lumotlarni uchratamiz. Uning fikricha o'zbeklar asosan uch toifadan ya'ni qabilalar ittifoqidan: Shaybon ulusiga kirgan qabilalar Shayboniyon, qozoqlar va mang'itlardan tashkil topgan.

XIV asr boshlarida Jo'ji ulusi, ya'ni Oltin O'rda ikkiga (Ko'k O'rda va Oq O'rdaga) bo'linib ketadi. "Garchand Oq O'rda Ko'k O'rdaga bo'ysundirilgan bo'lsada uning tepasida Jo'ji naslidan bo'lgan mustaqil sulola Jo'jining o'g'li O'rda Ichan avlodi turar edi. Oq O'rda asosan O'rda Ichandan boshqa Shayboniyning avlodlari ham Ko'k O'rdada bo'lsa Botuxon va To'qay Temur avlodlari hukumronlik qildi"¹¹. 1380-yilda To'xtamishxon Oltin O'rda va Oq O'rdani birlashtirishga muvaffaq bo'ldi. Bunga Amir Temurning To'xtamishxonning bir necha marta qo'llab quvvatlashi sabab bo'ldi.

To'xtamishxon davridan so'ng yana Jo'ji ulusida inqiroz boshlanadi. Bu davrda Shaybon ulusida (Shaybon tomonidan 1238-yili Botuxondan olingan yerlarda Shaybon ulusi tuziladi) ham feodal munosabatlar keskinlashadi. Shaybon ulusida Xiva xoni Abulg'oziyxonning yozishicha bir nechta mustaqil xonlik

¹¹ Ахмедов.Б Тарихдан сабоқлар. – Т.: Ўқитувчи, 1994. – Б. 66.

mavjud bo’lgan¹². Bu xonliklardan biri Jumoduqxon (1425 – 1428)ning ulusi Orol dengizining shimolida, ya’ni Sarisuv va Emba daryolarining o’rta oqimida bo’lgan. Uning otasi Oq So’fi 1425-yilda ko’chmanchi feodallar tomonidan taxtdan tushirilgan. Jumoduqxonning shajarasiga quyidagilar yozilgan: “1425-yilda uning otasi hayot bo’lishiga qaramay qabila boshliqlari Jumoduqxonni taxtga o’tqazdi”. Maxmud ibn Valining yozishicha Davlatshox O’g’lon (Abulxayrxonning otasi) vafot qilgandan(1425) keyin shayboniylar orasidatoju taxt uchun kurash kuchayib ketgan va oqibatda uning balog’atga yetmagan o’g’li Abulxayrxon taxtdan tushirilgan, hokimiyat dastlan Oq So’fi keyinchalik esa uning o’g’li Jumoduqxon qo’liga o’tgan.

XV asr boshlarida Shaybon ulusida munosabatlar yanada keskinlashadi. Dastlab 1425–1426-yillarda Mang’it ulusida tartibsizliklar boshlanadi. Jumoduqxon hukumronligini dastlabki yillarida Idikubiyning o’g’illaridan G’oziboy mang’it o’zini Mang’it urug’i va qabilasining boshlig’i deb elon qiladi. U o’z urug’iga nisbatan jabr sitamkorlikka qo’l uradi natijada qabila undan yuz o’girib uni o’ldirishadi. Shunday bo’lsada mang’itlar ulus tarkibidan chiqib Joytar Jolqin degan joyga ko’chishadi, u yerda burqut va nukuz qabilasidan bo’lgan ko’chmanchilarni ham o’zlaridga ittifoqdosh qilishadi va 17 minglik qo’shin tuzishadi. Jumoduqxon qo’zg’olonga qarshi qo’shin tortdi lekin jangda mag’lubiyatga uchradi. O’zi asir olinib qatl etildi. Bu jangda Jumoduqxon qo’shining javong’iri (so’l qanoti)ga qo’mondonlik qilgan yosh Abulxayrxon ham asir olindi va Sarig’ Usmon tomonidan qamab qo’yildi. Ma’sud ibn Usmon Kuhistoniying yozishicha, Sarig’ Usmon Abulxayrxonni shayboniylar naslidan bo’lganligini bilgach uni o’z himoyasiga olgan va hayrihohligini bildirgan. Oradan ko’p vaqt o’tmay safar anjomlari bilan taminlab, o’z ulusiga ketishiga ruxsat bergen. Buning asosiy sababi o’sha davrda ham hozirgi Qozog’iston hududida ko’chib yurgan xalqlar ongida “oqsuyaklar”ga ya’ni Chingizxon naslidan bo’lganlarga sig’inish kuchli edi. Shubxasiz bu yerda Abulxayrxon hokimyatlari qo’lga olgach, Sarig’ Usmonga zarur imtiyozlar beraman deb so’z beragan. Shunga

¹² Абулғозий Баходирхон. Шажарайи турк. –Т.: Чўлпон, 1992. –Б. 7.

ko'ra Abulxayrxon taxtga o'tirgach Sarig' Usmonga katta imtiyozlar berib o'z mulozimlari qatoriga qo'shdi¹³.

Abulxayrxon asirlikdan qutilib o'z ulusiga qaytishda Shanvay Manglab degan joyda qishlaydi. Kelasi yili u Alasha Baxodir diqqatiga sazovor bo'ladi. Ma'sud ibn Usmon Kuhistoniyning yozishicha, Alasha Baxodir va boshqa qabila boshliqlari unga tobelik bildiradi. U Alasha Baxodir yordamida katta qo'shin to'playdi. Va o'z ulisiga qaytib boradi bu yerda qiyot, mang'it, do'rmon, qushchi,o'tarchi, nayman, toymas, jot, qorliq, qo'ng'iroq va boshqa ko'chmanchi qabila boshliqlari, ruxoniylar va sultonlar uni xon qilib ko'tardilar. 1428 – 1429-yillarda ko'chmanchi o'zbeklar Abulxayrxon boshchiligidagi Janubi-g'arbiy Sibirdagi Tura shaxrini egalladilar. Shaxar hukumdorlari Adabbek bilan Kepakbek shaxarni qarshiliksiz topshirdilar. Bu shaxarda Abulxayrxonga xutba o'qitilib tanga zarb qilindi va 1446-yilgacha mamlakat poytaxti bo'ldi.

Bu voqeadan so'ng Abulxayrxonni Dashti Qipchoqda ham obro'si oshib ketdi, ko'plab urug' sardorlari Turaga kelib unga itoat bildirdilar. Abulxayrxon 1429-yida Shaybon ulusini bir qismi bo'lgan Maxmudxo'jaxonga qarshi yurish qildi. Jangda Abulxayrxon g'alaba qildi Maxmudxo'jaxon qatl etildi.

Hofiz Tanish Buxoriy buni "Xo'ja Mahmudxon shaxid bo'lgandan so'ng Abulxayrxon Dashti Qipchoqqa podshoh bo'ldi va Turkiston va Sig'noq atrofidagi yerlar unga qaram bo'lgan"¹⁴ deb ta'riflaydi.

Shunday qilib Abulxayrxon 1428 – 1431-yillar oralig'ida Shaybon ulusini katta qismini birlashtirishga muvaffaq bo'ldi. "Bahr ul-asror"da yozilishicha Abulxayrxon o'sha yillari o'z davlatini O'ltin O'rdadan (Ko'k O'rda) mustaqil deb e'lon qilgan. 1431 – 1432- yili ko'chmanchi o'zbeklar Xorazmga katta yurish uyushtiradilar. Ular Xorazmning ko'plab shaxar va qishloqlarini bosib oladilar, uning poytaxti Urganch qamal qilinadi. Temuriylarning Xorazmdagi hokimi Ibrohim shaxarni jangsiz topshiradi. "Bahr ul-asror"da yozilishicha shaxar qamal qilingandan keyin Abulhayrxon Ibrohimga quyidagicha talab qo'yadi: Xorazm

¹³ Ахмедов.Б Тарихдан сабоклар. – Т.: Ўқитувчи, 1994. – Б. 69.

¹⁴ Хоғиз Таниш Бухорий. Абдулланома – Т.: Фан, 1966. – Б. 96.

Chingizzon zamonidan beri Jo'jixon va uning avlodlariga tobe bo'lgan shu tufayli bu o'lka yana Chingizzon avlodiga ya'ni Abulxayrxonga bo'ysundirilishi kerak.

Lekin baribir o'zbeklar ko'p o'tmay Xorazmni tashlab Dashti Qipchoqqa qaytib ketadilar. Ma'sud ibn Usmon Kuhistoniy buni Xorazmning iqlimi bilan bo'g'laydi. XV asrda yashagan arab tarixchisi al Maqriziy o'sh ayillarda Dashti Qipchoqda qattiq qurg'oqchilik bo'lganligi va natijada vabo kasalligi tarqalib ko'p aholi va chorvalarning qirilib ketganini yozadi. Bu fikrni A. Yu. Yakubovskiy ham tasdiqlaydi, ya'ni ko'chmanchi o'zbeklarning Xorazmdan tez fursatda chiqib ketishlariga vabo kasalligining tarqalishi sabab bo'lgan deb yozadilar. Abdurazzoq Samarqandiy, Shoxrux (1409 – 1447) tarafidan ko'chmanchi o'zbeklarga qarshi qo'shin yuborilganidan keyin o'zbeklarning Xorazmdan chiqib ketganliklarini aytadi. B.Ahmedov esa "ularnig chiqib ketishlariga Dashti Qipchoqda Abulxayrxonga qarshi Maxmudxon va Ahmadxonlar boshchiligidida ulus chegaralariga hujum uyushtiriladi¹⁵. Abulxayrxon Xorazmdan qaytgach Maxmudxon va Ahmadxonlarga qarshi qo'shin tortadi. Ikki o'rtada Irki Tub degan joyda urush bo'lib o'tadi, jangda Abulxayrxon g'alaba qozonib O'rda Bozorni egallaydi.

1431 – 1446-yillar o'rtasida Abulxayrxon katta bosqinchilik urushlarini olib bormadi. Bunga quyidagilar sabab bo'ldi. Birinchidan, Iboqxon, Berka Sulton, Oq O'rda xoni Baroqxonning o'g'llari Jonibek va Girayxon singari ko'pkina sultonlar Abulxayrxonga tobe bo'lishdan bosh tortadilar. Bularning ichida eng kuchlisi Mustafaxon bo'lib uni mag'itlarning bir qismi qo'llab quvvatlab tutrar edi. Shuning uchun ham Abulxayrxon o'sha yillarda ichki kurashlar bilan band bo'ldi. Ikkinchidan Abulxayrxon o'sha yillarda O'zbek ulusi chegaralarida ko'chib yurgan yana bir shayboniy Said Ahmad va ayniqsa Ahmadxonning kuchayib borishidan cho'chir edi. Shu tufayli u mudofaa urushlariga xozirlanib turishga majbur bo'ldi¹⁶.

XV asrning 40-yillarida Oltin O'rdada, Mo'g'ilistonda va Temuriylar davlatida feodal kurash benihoya kuchayib ketdi. Bu xol Abulxayrxon va

¹⁵ Ахмедов.Б Тарихдан сабоклар. – Т.: Ўқитувчи, 1994. – Б. 70.

¹⁶ Ахмедов.Б Тарихдан сабоклар. – Т.: Ўқитувчи, 1994. – Б. 71.

ko'chmanchi o'zbeklarga Sirdaryoning o'rta oqimida joylashgan viloyatlarni bosib olish uchun yo'l ochib berdi. Bundan tashqari Abulxayrxon 1446-yilda o'zining eng kuchli raqiblaridan biri Mustafoxon ustidan g'alaba qildi. Abulxayrxon qulay fursatdan foydalanib Sirdaryoning o'rta oqimida joylashgan Sig'noq, Oqqa'rg'on, Arquq, O'zgand, Suzoq shaxarlarini o'ziga bo'ysundirdi. Ko'chmanchi o'zbeklarning poytaxti o'sha yili Turadan Sig'noqqa ko'chirildi. Ko'chmanchi o'zbeklar Sirdaryo bo'yidagi yerlarni ishg'ol qilib Temuriylar davlatining yon qo'shnisi bo'lib qoldilar va Movarounnahr qishloq hamda shaxarlarini tez-tez talon-taroj qilib turdilar. Bundan tashqari Temuriylar davlati ichki ishlariga ham aralashib turdilar. Shunday bo'lsada Dashti Qipchoqda ham bu davrda sulolaviy nizolar boshlandi. Aynan shu sabab oxir oqibatda ko'chmanchi o'zbeklar davlatini inqirozga uchratdi. Abulxayrxon davlatini inqirozga olib kelgan asosiy sabablarning yana biri ko'chmanchi o'zbeklar va qalmoqlar o'rtasidagi 1457-yilgi Sig'noq yaqinida bo'lgan qirg'inbarot urush bo'ldi. Qalmoqlar o'tmishda Dashti Qipchoq o'zbeklari singari ko'chmanchi xalq bo'lgan XV asr o'rtalarida ular Abulxayrxon davlatini sharqiy hududlarida paydo bo'ladi. Qalmoqlar 1457-yilning baxorida O'z Temur Toshi boshchiligidida Sirdaryo bo'ylarida paydo bo'lishadi. Shu yili Sig'noqdan ko'p ham olis bo'limgan Ko'k koshona yonidagi Nurto'qay degan joyda ko'chmanchi o'zbeklar va qalmoqlar o'rtasida katta jang bo'lib o'tadi. Bu urushda Abulxayrxon yengiladi va Sig'noqqa chekinadi. Qalmoqlar Yassi, Toshkent, Shoxruhiyani talab Chu vodiysiga qaytadilar. Muallifi ma'lum bo'limgan "Taxorixi guzida Nusratnama" asarida O'z Temur Toshi Abulxayrxonning nabirasi, Muhammad Shayboniyxonning inisi uch yoshli Maxmud Sultonni o'zi bilan omonat tariqasida olib ketganligi va shaxzoda qalmoqlar orasida yetti yil yurib qaytganligi haqida hikoya qilinadi¹⁷.

Abulxayrxon vafot qilgandan keyin ko'p o'tmay ko'chmanchi o'zbeklar davlati siyosiy inqirozga uchradi. Masud Ibn Usmon Kuhistoniy "Abulxayrxon vafot etganidan so'ng barcha ko'chmanchilar kattasidan kichigigacha Abulxayrxon taxtiga huruj qildilar" deb yozadi. Mirzo Muhammad Haydar o'z asarida

¹⁷ Ахмедов Б. Тарихдан сабоклар. – Т.: Ўқитувчи, 1994. – Б. 74.

quyidagicha hikoya qiladi Abulxayrxon vafotidan so'ng O'zbek Ulusi inqirozga yuz tutdi unda katta g'alayonlar boshlandi. Ko'pchilik xalq Girayxon va Jonibekxon huzuriga qochib ketdi.

Abulxayrxon vafot qilgandan keyin uning o'gli Shayx Xaydarxon xon qilib ko'tarildi. Bu paytda Abulxayrxonning barcha dushmanlari birlashib, Shayx Xaydarxonga qarshi kurash boshladilar. Kamoliddin Binoiyning yozishicha Shayx Xaydarxon hukumronligi uzoqqa bormagan. "Taxorixi guzida Nusratnama" asarida ham xuddi shunday deyilgan unga ko'ra Iboqxon, Berka Sulton, Jonibekxon, Girayxon va mang'it amiri Yomgurchi birlashib Shayx Xaydarxonga qarshi yurish qilishadi dastlab ular yengiladi. Keyin ular Oltin O'rda xoni Axmadxon bilan ittifoq tuzib oqibatda Shayx Xaydarxon ustidan g'alaba qilishadi. Shayx Xaydarxon jangda xalok bo'ladi. Iboqxon va uning ittifoqchilari Abulxayrxonning qarindosh urug'larini qirg'in qiladi. Bundan faqat Muhammad Shayboniyxon, uning inisi Maxmud Sulton, Abulxayrxonning o'g'llari Suyunchixo'jxon, Ko'chkinchixon, Mahdiy Sulton va Xamza Sultonlar qutilib qoladi.

Shunday qilib ko'chmanchi o'zbeklar davlati inqirozga uchradi. Lekin bu davlatning inqirozi vaqtinchalik bo'lib oradan ko'p vaqt o'tmay, "XV asrning 80-yillarida Muhammad Shayboniyxon bu davlatni qayta tikladi"¹⁸.

1.2. Temuriylar davlatining inqirozi va Muhammad Shayboniyxon tarix sahnasida.

Amir Temurdan vorislariga ulkan va yirik sultanat meros bo'lib qoladi. Uning vasiyatiga sodiq qolishga qasamyod qilgan shahzodalar hali ulug' Amirning jasadi sovimasdanoq vasiyatdan yuz o'girib, toju taxt uchuy kurash boshlab yuboradilar, harbiy va ma'muriy boshliqlar esa guruhbozlikni avjiga chiqaradilar. Natijada Amir Temur tomonidan barpo etilgan buyuk sultanat yemirila boshladi. "Toju taxt talashish kurashini Mironshoh Mirzoning 22 yoshli o'g'li Xalil Sulton

¹⁸ Зиё А. Узбек давлатчилиги тарихи. – Т.: Шарқ, 2000. – Б. 236.

Mirzo boshlab beradi”¹⁹. Sohibqiron Amir Temur tomonidan taxt vorisi deb e’lon qilingan Pirmuhammad Mirzo Amir Temur vafot etgan paytda Qandahor viloyatida bo’lib, u hali Samarqandga etib kelishga ulgurmasdan Xalil Sulton Mirzo 1405-yil 18- martda Samarqand taxtini egallaydi. Toju- taxt uchun temuriy shahzodalar o’rtasidagi kurash 1409-yilga qadar Shohruh Mirzo Samarqand taxtini egallagunga qadar davom etadi. Xalil Sulton bilan Shohruh Mirzo o’rtasida Shayx Nuriddin vositachiligida bitim imzolanadi. Bitimga ko’ra Xalil Sulton Movarounnahr taxtiga da’vogarlikdan voz kechadi, evaziga Ray viloyatiga hokim qilib tayinlanadi. Oradan ikki yil o’tgach, u 1411-yil 4-noyabrdan kasal bo’lib vafot etadi, boshqa ma’lumotlarga qaraganda uni zaharlab o’ldiradilar.

Shohruh Mirzo mamlakatni boshqarishda temurzoda va nufuzli amirlardan iborat hokimlarning aksariyatini o’zi uchun ishonchsiz deb hisoblaydi. Ularning o’rniga deyarli barcha viloyatlarda o’z o’g’illari, nabiralari va o’ziga yaqin tutgan qon-qarindoshlarini qo’yadi. “Movarounnahr hukmronligini katta o’g’li Ulug’bek Mirzoga beradi. Balx bilan Badaxshon viloyatlarini ikkinchi o’g’li Ibrohim Mirzoga, Hisor hukmronligini Muhammad Sulton Mirzoning o’g’li Muhammad Jahongir Mirzoga, Farg’onani esa Umarshayx Mirzoning 22 yoshli o’g’li Ahmad Mirzoga suyurg’ol tariqasida in’om qiladi. O’zi Hirotda turib otasidan qolgan buyuk sultanatni tiklashga kirishadi”²⁰. U shu maqsad yo’lida asta-sekin o’z akalari Jahongir Mirzo, Umarshayx Mirzo va Mironshoh Mirzo avlodlariga g’amxo’rlik ko’rsatadi, ularni o’z qo’l ostida birlashtirib, Ozarbayjon, Movarounnahr, Xuroson va Shimoliy Afgonistondan iborat katta bir davlat jilovini qo’lga oladi. Kobul, Qandahor, G’aznadan tortib Shimoliy Afg’onistondagi barcha viloyatlar Pirmuhammad Mirzoga suyurg’ol tarzida berilgan edi. Pirmuhammad Mirzo vafotidan so’ng mazkur viloyatlar uning katta o’g’li Qaydu Mirzoga beriladi. “Shohruh Mirzo tabiatan oljanob hukmdor, ilm-fanga moyil ma’rifatparvar davlat arbobi edi. U hokimiyat tepasiga kelgach, Eronda ham, Turonda ham bir necha o’n yilliklar davomida nisbatan tinchlik va osoyishtalik hukm suradi. Uning davrida Hirot Sharqning eng ko’rkam, obod va madaniyati rivoj topgan shaharlaridan

¹⁹ Херман Вамбери. Бухоро ёхуд Мовароуннахр тарихи. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1990. – Б. 58

²⁰ Зиё А. Ўзбек давлатчилиги тарихи. – Т.: Шарқ, 2000. - Б. 168.

biriga aylanadi”²¹. Amir Temur davlatining asosiy qismi uzoq vaqt davomida Shohruh Mirzo tomonidan idora qilingan bo’lsa-da, amalda bu ulkan mamlakat mustaqil ikkita davlatdan iborat edi. Biri poytaxti Hirot shahri bo’lgan Shohruh Mirzo davlati bo’lsa, ikkinchisi markazi Samarqand shahri bo’lgan Mirzo Ulug’bek davlati edi.

Abulxayrxon 1431 – 1435-yillarda Xorazmgacha bostirib keladi, uning g’arbiy qismini Urganj bilan birga egallab oladi. Abulxayrxonga qarshi kurash Shohruh Mirzo bilan Ulug’bek Mirzoga oson bo’lgani yo’q. Shunday qilib, Ulug’bek Mirzo ichki va tashki siyosatda ayrim xollardagina mustaqil harakat qilgan bo’lsa-da, asosan otasi Shohruh Mirzoga vassal edi va uning rozilgisiz o’zi mustaqil bir ish qila olmasdi.

Shohruh 1447-yil 12-martda nevarasi Sulton Muhammad isyonini bostirish vaqtida Ray shahrida vafot etadi. Shu daqiqadan e’tiboran temuriy shaxzodalar o’rtasida toju taxt uchun kurash yangi kuch bilan avj olib ketadi. Shohruh Mirzo vafotidan so’ng odatga ko’ra uning katta o’g’li Ulug’bek Mirzo valiahd sifatida ota taxtini egallashi kerak edi. Ammo Gavxarshod begin Shohruhning uchinchi o’g’li Boysung’ur Mirzoning o’g’li va sevikli nabirasi Alouddavlarning valiahd bo’lishiga tarafdarlik qiladi. Natijada Boysung’ur Mirzoning o’g’illari Alouddavla va Abulqosim Bobur Ulug’bek Mirzoga qarshi harakat boshlaydilar. Xuroson bilan Hirotni Alouddavla, Mozandaron va Jurjoni Abulqosim Bobur egallaydi. G’arbiy Eron bilan Forsni Boysung’urning yana bir o’g’li Sulton Muhammad qo’lga kiritadi. Shohruhning o’zi xayotlik chog’ida hech kimga aytmagan bo’lsa-da, biroq o’g’li Muhammad Jo’kini o’z o’rniga valiavd hisoblardi. Ammo u 1444-yilda to’satdan vafot etadi. Jo’kining o’g’li Abu Bakr Mirzo o’z og’asi Muhammad Qosimga qarshi bosh ko’taradi va undan Balx, Shibirg’on, Qunduz va Bag’lon viloyatlarini tortib oladi. Ana shunday boshboshdoqlik va o’zboshimchaliklar avj olib ketgan bir sharoitda Ulug’bek qo’shin tortib chiqishga va temuriy shahzodalar bilan muzokaralar boshlashga majbur bo’ladi²².

Ulug’bekning qo’shin bilan Samarqanddan chiqishiga yana boshqa eng

²¹Мансур Олтин. Амир Темурнинг мабнавий салохияти. // – Мулокот. – № 4 (58). – 1996. – Б. 21.

²² Ахмедов Б. Тарихдан сабоклар. – Т.: Ўқитувчи, 1994. – Б. 75.

muhim sabab ham bor edi. Shohruh Mirzo o’z nabirasi Sulton Muhammad isyonini bostirishga kelib, Ray shahrida vafot etgan paytda Gavharshodbegim Ulug’bekning o’g’li Abdullatif bilan birga bo’ladi. Alouddavla esa Hirotda qoldirilgan edi. Gavharshodbegimning maslahati bilan Abdullatif Shohruh qo’shiniga boshchilik qiladi. Ayni paytda Gavharshodbegim bo’lgan voqeа xususida Alouddavlaga maxfiy xabar yuboradi. Abdullatif Shohruh lashkarining amiri bo’lgandan so’ng unga bo’ysunmagan va isyon ko’targan o’zining lashkarboshilari va qarindoshlari bo’lmish Boysung’urning o’g’li Abulqosim Bobur va Muhammad Jahongirning o’g’li Xalil Sultonga qarshi keskin choralar ko’radi. Abdullatif bu isyonda Gavharshodbegimning qo’li borligidan shubhalanadi va uni hibsga oladi. O’zi esa lashkar bilan sharqqa tomon yurib Nishopurga keladi. Gavharshodbegim tomonidan ogoh etilgan Alouddavla Shohruhning xazinasini askarlarga bo’lib beradi va Nishopurga yetib keladi. Bu yerda u kutilmaganda, qo’qqisdan 1447-yil aprelda Abdullatif qo’shinlariga hujum qiladi va uni tor-mor qilib, Abdullatifni qo’lga oladi. Alouddavla Abdullatifni Hirotdagi Ixtiyoriddin qal’asiga zindonga tashlab, o’zi Ulug’bek Mirzoga qarshi Balx sari lashkar tortadi²³.

Bu paytda Ulug’bek Mirzo Amudaryodan o’tib, Balxni ishg’ol qilgan edi. U Balx va uning atrofidagi yerlar hokimi Jo’kining o’g’li Abu Bakrni hibsga oladi va Samarqandga jo’natadi. U shu yerda Ulug’bekning buyrug’i bilan qatl etiladi. Ulug’bek o’g’li Abdullatifning qurbon bo’lishini istamay, Alouddavla bilan sulh bitimi tuzishga majbur bo’ladi. Bu bitimga ko’ra Abdullatif zindondan ozod qilindi va Ulug’bek uni Balx va Amudaryo ikki sohilidagi yerkarning hokimi etib tayinlaydi. Buning evaziga Ulug’bek Hirotdagi Xurosonga bo’lgan da’vosidan voz kechadi. Ikki o’rtadagi chegara Murg’ob daryosi vodiysi bo’ylab o’tgadigan bo’ladi. Alouddavla Abulqosim Bobur bilan ham bitim tuzadi. Bitimga ko’ra ularning mulklari o’rtasidagi chegara Xurosonning shimolidagi Kuchan shaxri deb belgilanadi. Ana shu tariqa Amir Temur tomonidan ne-ne mashaqqatlar bilan barpo etilgan buyuk saltanat bir necha bo’laklarga bo’linib ketadi.

Oradan ko’p vaqt o’tmasdan Alouddavla bilan Abdullatif o’rtasidagi

²³ Ашраф Аҳмад. Улугбек Мухаммад Тарагай. – Т.: Ҳалқ мероси, 1994. –Б. 18.

munosabatlar yangi kuch bilan yanada ziddiyatli tus oladi. Alouddavla ikki o'rtadagi bitim shartlarini to'la bajarmaydi, ya'ni Abdullatifning o'zini zindondan ozod qilgan bo'lsa-da, uning asir olingan askarlarini ozod qilmaydi. Buning ustiga chegaradagi Chechaktu degan joyga Abdullatifning dushmani Mirzo Solihni amir etib tayinlaydi. Shu boisdan 1447-yilning oxirlaridayoq Abdullatif Mirzo Solihga qarshi yurib, uni mag'lub etadi, Mirzo Solih Hirota qochadi. Alouddavla Balxga yurishga majbur bo'ladi. Ammo 1448-yilning boshida Chechaktuga yetganda qattiq sovuq bo'lganligi tufayli yurishni to'xtatishdan boshqa chora topa olmaydi. O'sha yilning bahorida Ulug'bek va Abdullatifning 90 ming kishilik lashkari Alouddavlaga qarshi Hirota yurish boshlaydi. Movarounnahr va Xuroson lashkarlari o'rtasidagi jang Hirotdan bir necha chaqirim naridagi Tarnob yaqinida bo'ladi. Bu jangda Alouddavla batamom mag'lubiyatga uchraydi va u Kuchanga, birodari Abulqosim Bobur huzuridaga qochib boradi. Hirota Ulug'bek va Abdullatiflar tomonidan batamom egallanadi²⁴. Alouddavla mag'lubiyatini eshitgan saroy a'yonlari Gavharshodbegim bilan poytaxtni tashlab qochadilar. Ulug'bek va Abdullatif g'arbgaga tomon xujumni davom ettiradilar va Mashxadni ham egallaydilar. Radkonda Ulug'bekning huzuriga Abulqosim Boburning elchilari kelib, Ulug'bekni o'z podshohi deb tan olishini va uning ismini xutbaga kiritib, uning nomi bilan tanga zarb qilishga hozir ekanligini bildiradilar. Ammo Ulug'bek yurishni davom ettiradi va Isfaroingacha yetib, u yerda uch kun turadi. Bu o'rtada Abdullatifni Biston bilan Astrobodga jo'natadi. Shundan so'ng Ulug'bek o'z yurishini davom ettirib, Ibrisham daryosidagi ko'prikka yetadi. Bobur esa, undan ham nariroqqa, Domg'onga ko'chadi. Ulug'bek daryo ko'prigidan nariga o'tishga botinolmaydi va orqaga, Mashxadga qaytadi. Bu albatta Ulug'bekning harbiy va taktik xatosi edi. U xoldan toygan o'z raqibini nafas olishga imkon byermasdan quvib borishi va batamom yanchib tashlashi mumkin edi. Ulug'bekning raqiblari uning orqaga qaytishini chekinish deb baholaydilar va bu ularga quvvat baxshida etadi.

Alouddavla ustidan qozonilgan g'alaba Ulug'bekka shuhratdan ko'ra

²⁴ Ашраф Ахмад. Улугбек Мухаммад Тарагай. – Т.: Халқ мероси, 1994. –Б. 19.

ko'proq tashvish va alam keltiradi. Uning hayotda yo'l qo'ygan xatosi tufayli o'z o'g'li Abdullatif bilan orasi buzilib, borgan sayin dushmanlik alomatlari kuchayib boradi. Chunki Hirotdan 14 farsax narida bo'lган Tarnob jangida qo'shining chap qanoti Abdullatifga, ung qanoti esa nomigagina Abdulaziz Mirzoga topshirilgan edi. Binobarin, erishilgan g'alabada Abdullatifning hissasi va jasorati alohida tahsinga loyiq edi. Ammo negadir Ulug'bek Mirzo jangdan so'ng barcha viloyat amirlariga yo'llagan yorlig'ida Abdullatif chetda qolib g'alaba sha'nini suyukli o'g'li Abdulaziz Mirzo nomiga yozdiradi. Bu ham yetmaganday Hirot qo'lga olingach, Ulug'bek, Abdullatif Mirzoni shahardagi Ixtiyoriddin qal'asiga kiritmaydi. Xolbuki, bu qal'ani Shohruh Mirzo xayotlik chog'ida nabirasi Abdullatifga in'om qilgan edi. Abdullatif hali 1446-yilda bobosi Shohruh Mirzo bilan Isfaxon yurishiga tayyorlanar ekan, o'ziga tegishli bo'lган barcha boyliklarni, chunonchi, bir necha ming misqol oltin, kumush buyumlar va 200 tuman pulni mana shu Ixtiyoriddin qal'asida bekitib qo'ygan edi. Ulug'bek Mirzoning Abdullatifga nisbatanadolatsizligi boylik, davlat va shuhratga uch bo'lган o'g'il qalbida o'chmas iz qoldiradi. Bu davrda ko'chmanchi o'zbeklar xoni Abulkayrxon Ulug'bek Mirzoning Xurosonda ekanligidan foydalanib, Movarounnahrga bostirib kiradi, undagi shahar va qishloqlarni vayron qiladi, aholini talaydi va Samarqandgacha yetib keladi. Bu xabarni eshitgan Ulug'bek shoshilinch suratda Hirotni Abdullatifga topshirib, o'zi Samarqand sari otlanadi. U o'zi bilan birga Shohruh Mirzoning hoki solingan tobutni va Shohruhning Gavharshodbegim madrasasida berkitib qo'yilgan bir bo'lak xazinasini ham olib, Amudaryo – Kalif kechuvi sari yuzlanadi. Abulqosim Bobur bu paytda Saraxsda edi. U Ulug'bekning yo'lga chiqqanligidan xabar topib, amir Xindukani katta qo'shin bilan o'z amakisi orqasidan jo'natadi. Amir Hinduka yarim kechada kutilmaganda Ulug'bek qarorgoxiga xujum qiladi. Ulug'bek bu jangda juda ko'p askarlari va boyligidan mahrum bo'ladi. Bu ham yetmaganday, ertasi kuni Ulug'bek Kalif kechuvidan o'tish chog'ida ko'chmanchi o'zbeklar xujumiga uchraydi. Ulug'bek qishni kichkina qo'shin bilan Buxoroda o'tkazishga majbur bo'ladi. "U Shohruh Mirzoning hoki solingan tobutni singlisi Poyanda Sulton begin bilan birga

Samarqandga jo'natadi. Jasad Go'ri Amir maqbarasida dafn etiladi”²⁵.

Abulqosim Bobur Hirotda Abdullatifning yolg'iz qolganligidan foydalanib, unga qarshi Saraxsdan katta qo'shin jo'natadi. Abdullatif shaharni tashlab qochadi va Balx tomon ketadi. Balx bir necha mayda viloyatlarga bo'lingan bo'lib, Abdullatif Mirzoning mulki edi. U bu yyerda turib ochiqdan-ochiq otasi Ulug'bekka qarshi urushga tayyorgarlik ko'ra boshlaydi. U Ulug'bekka qarshi bo'lган savdogarlarni o'z tomoniga og'dirib olish maqsadida tamg'a, ya'ni savdo solig'ini bekor qiladi. Ulug'bek bu soliqqa katta e'tibor berar edi. Chunki Buyuk Ipak yo'li Xindistonga Balx orqali o'tar edi va u davlat xazinasiga katta daromad keltirardi. Nobakor o'g'lining xatti-harakatidan g'azablangan Mirzo Ulug'bek Abdullatifning tanobini tortib qo'yish uchun tayyorgarlik ko'ra boshlaydi²⁶.

Xondamirning yozishicha, Abdullatif 1449-yilning bahorida o'z mulkida unga qarshi qo'zgolon ko'targan Mironshoh ismli bir temuriy isyonini bostiradi, shahzoda qatl etiladi. Qatl etilgan shahzodaning cho'ntagidan bir maktub topiladi. Maktub Ulug'bek Mirzo qo'li bilan yozilgan bo'lib, unda go'yo shahzodani Abdullatifga qarshi isyon qilishga da'vat etilgan edi. Bu voqeadan so'ng Abdullatif o'z otasiga nisbatan ishonchini batamom yo'qatadi va battol dushmanga aylanadi. U hatto Abulqosim Bobur Mirzo bilan ham otasiga qarshi harbiy ittifoq tuzadi va 1449-yilning bahorida Abdullatif Ulug'bekka qarshi ochiq jang harakatlarini boshlab yuboradi. Ulug'bek Mirzo isyonkor o'g'li Abdullatifga qarshi lashkar tortishga majbur bo'ladi. U Samarqandni kichik o'g'li Abdulaziz Mirzoga topshirib, jiyani va kuyovi Abdullo Mirzoni o'zi bilan birga olib Amudaryo sohillarida turgan Abdullatif qo'shinlariga ro'baro' keladi. Davlatshoh Samarqandiy ma'lumotlariga qaraganda, ota-bola qo'shinlari uch oy mobaynida bir-birlariga qarama-qarshi turganlar. Har ikkala tomondan kichik-kichik guruqlar daryordan o'tib, to'qnashib jang harakatlar olib borganlar. Bu janglarda Abdullatif lashkarlarining qo'li sezilarli darajada ustun mavqega ega bo'lgan. Hatto ular Abdulla Mirzoni asirga ham olganlar. Ayni zamonda Mirzo Ulug'bek lashkarlari orasida isyon xavfi paydo bo'ladi. Buning asosiy sababchisi Samarqandda hokim

²⁵ Бердимуродов А. Гўри Амир макбаси. – Т.: Халқ мероси, 1996. – Б.17.

²⁶ Ашраф Ахмад. Улугбек Мухаммад Тарагай. -Т.: Халқ мероси, 1994. –Б. 21.

qilib qoldirilgan Ulug’bekning kenja erkatoyi Abdulaziz edi. U Samarqand taxtini egallagach, beibolarcha axloqiy buzuq ishlarni amalga oshirishga kirishadi. Abdulaziz otasi Ulug’bek bilan birga jangga ketgan Samarqand shahrining yirik bek va amirlarining go’zal qizlari, kanizak-juvonlarini majburan saroya oldirib, aysh-ishrat bilan mashg’ul bo’ladi. Albatta, bu hol bek va amirlarning Ulug’bek Mirzodan noroziligining kuchayishiga sabab bo’ladi. Bu narsa Ulug’bekning keyingi faoliyatiga salbiy ta’sir ko’rsatmay qolmaydi, albatta. Ulug’bek Mirzo darhol bek va amirlar bilan o’zaro muloqotda bo’lib, tang vaziyatni tinchitishga harakat qiladi va o’g’li Abdulazizni pand-nasihat bilan to’g’ri yo’lga soladi²⁷.

Shunday og’ir bir vaziyatda turkmanlarning arg’un qabilasi 25 yoshli Abu Sayyid Mirzoni o’zlariga bosh qilib ko’taradilar va Samarqandni qamal qiladilar. Abdurazzoq Samarqandiy bergen ma’lumotlarga qaraganda, bu qabila vakillari Mirzo Ulug’bek bilan birga harbiy yurishda bo’lgan. Ular Amudaryo sohiliga kelgach, Ulug’bek lashkarlaridan ajralib chiqib, Samarqand sari yuradi. Bu vo-qeadan xabar toptan Ulug’bek Samarqandga qaytishdan boshqa yo’l topa olmaydi. U Samarqand tomon yurib Abu Sayyid Mirzoni bartaraf etadi va shaharda osoyishtalik o’rnatadi. Ulug’bek Samarqand hokimligiga qovchin urug’idan bo’lgan Mironshohni ko’tarib, o’zi Abdulazizni yoniga olib yana Abdullatifga qarshi qo’shin tortib ketadi. Ammo bu paytda Abdullatif Amudaryodan o’tib Termiz, Huzor (G’uzor) va Keshni egallab, Samarqand sari kelayotgan edi. Nihoyat 1449-yil oktyabr oyida Samarqandga yaqin Damashq qishlog’i yonida otabola o’rtasida qattiq jang bo’ladi. Bu jangda Ulug’bek Mirzo qo’shnlari yengiladi. Chorasiz qolgan Ulug’bek Samarqandga chekinadi. Biroq Samarqand hokimi Mironshoh qovchin uni Samarqandga kiritmaydi. Ulug’bek noiloj Shohruhiyaga keladi. Lekin Shohruhiya hokimi Ibrohim ibn Po’lod Ulug’bek Mirzodan yuz o’giradi. U hatto Ulug’bekni Abdullatifga tutib berish choralarini ham ko’radi. Mana shunday og’ir bir vaziyatda Ulug’bek Mirzo “egilgan boshni qilich kesmas” qabilida ish tutadi. U o’z xohishicha hokimiyatni Abdullatif Mirzoga topshirib, umrining qolgan qismini ilm-ma’rifatga bag’ishlamoqchi bo’ladi. Ulug’bek ana

²⁷ Ашраф Ахмад. Улугбек Мухаммад Тарагай. -Т.: Халқ мероси, 1994. –Б. 21.

shu ezgu niyatlar bilan o'g'li Abdullatifning huzuridaga bosh egib boradi. Biroq Abdullatif Mirzo otasi Ulug'bekni Ka'batulloh ziyoratiga jo'natish xususida farmon beradi. Ulug'bek Mirzoning fojiali o'limi tafsiloti haqida tarixchi Mirxon'd batafsil ma'lumot bergen: "Ka'batulloni bir necha marta ziyorat qilgan Hoji Muhammad Xusravning rahnamoligida Ulug'bek Mirzo kechqurun Samarqanddan otliq yo'lga chiqqan. Uning vaqtি choq turli mavzularda so'zlashib borardi. Ko'p o'tmay, orqadan bir chopar yetib kelib (sulduz urug'idan) sobiq hukmdorni Ka'batulloga kuzatish marosimini shohona tarzda o'tkazish lozimligi va bunga tayyorgarlik tugallangunga qadar qo'shni qishloqda dam olishlari haqida farmoni oliyni eshittiradi. Mazkur farmonidan dovdirab qolgan Ulug'bek Mirzo qo'shni qishloqdagi uylardan biriga kirib tunashga majbur bo'ladi. Havo ancha sovuq edi. Ulug'bek Mirzo olov yoqib, go'sht pishirishga amr qiladi. Olov yoqiladi, gulxan yonida chordana qurib, isinib o'tirgan Ulug'bek Mirzoning tizzasiga uchqun sachrab, chakmonini quydiradi. Shunda u olovga qarab: "Sen ham bilding", – deydi-yu, uning kayfiyati buziladi, hoji esa Ulug'bekka tasalli berishga behuda urinadi. Shu asnoda uy eshigi ochilib, xonaga Abbas ismli shaxs o'z navkari bilan kirib keladi. Ulug'bek Mirzo Abbasni ko'rgan hamono o'rnidan turib, unga tashlanadi va ko'ksiga musht tushiradi. Navkar Ulug'bekni ushlab, uning yelkasidan «oltoy po'stin»ni yechib oladi. Abbas arg'amchi keltirish uchun tashqariga chiqadi. Ulug'bek Mirzo o'limi oldidan so'nggi tahoratni qilib olishi uchun Hoji darhol eshikni ichidan zanjirlab oladi. So'ngra Abbas kirib, sobiq hukmdorning qo'llarini bog'lab, tashqariga olib chiqadi. Ariq bo'yiga cho'kkalatib, fonus yorug'ida qilichning bir zarbi bilan boshini tanasidan judo qiladi”²⁸.

Shunday qilib, ulug' olim, davlat arbobi va ma'rifatparvar inson Ulug'bek Mirzo 56 yoshida fojeali suratda shahid bo'ladi.

Samarqand taxtini egallagan Abdullatif mamlakatda zulm-adovatni avjiga mindiradi. U ota qotili padarkush sifatida tarixda nom qoldiradi. Bir necha kundan so'ng Abdullatif taxt vorislaridan qutilish niyatida o'z ukasi Abdulaziz Mirzoni ham o'ldirtyadi. Movarounnaxrdagi har qanday itoatsizlik va isyonni shafqatsizlik

²⁸ Ахмедов Б. Амир Темур ва Улугбек замондошлари хотирасида. – Т.: Ўқитувчи, 1996. – Б. 132.

bilan bostiradi. Uning siyosatidan norozi bo’lgan kishilar hatto ovoz ham chiqara olmasdilar. Mavarounnaxrdagi nisbatan osoyishtalik Abdullatif tomonidan amalga oshirilgan g’oyatda qattiqqo’llik siyosati tufayli edi.

“Tarixi Abulkayrxoniy” kitobida yozilishicha, Abdullatifning taqdiri quyidagicha o’z poyoniga yetadi: “Jangu jadallarda Rustami doston va Isfandiyordek bo’lg’on va Abdulaziz Mirzo tarafidan martabasi yuqorilatdirilg’on Bobo Husayn bahodir ikki nomdor podshoh: Ulug’bek Ko’ragon bilan Mirzo Abdulaziz shaxid etilganlaridan so’ngra qasd qilib badkirdor Abdullatif Mirzoning xizmatiga kirdilar va kecha demayin, kunduz demayin anga tirishib xizmat qildi, ammo qalbida anga gina saqlab, ul badkirdorni mahv etish xayoli bilan yurdi. Bobo Husayn baxodir o’sha kuni kamonni yelkaga osub, jonin shu ishga tikdi. Sodiq navkari birlan Abdullatifning yo’lini poyladi. Shahzodaning navkari Chorraxa darvozasidan tashqariga chiqdi va tor ko’cha bo’ylab yo’lga tushdi. Ko’chaning bir tarafi jarlik bo’lib, ikkinchi tarafi Bog’i navning baland devori edi. Bobo Husayn bahodir va aning navkari ot ustida yo’l chetidagi katta qayrag’och orqasida poylab turdilar. Abdullatif alarning yonginasidan o’tib ketdi, lekin besholti qadam o’tgach, Bobo Husayn bahodir kamonni yelkasidan oldi va ani o’qlab, shaxzodani aniq nishonga oldi. Abdullatif faqat “Olloh o’q tegdi”, deb aytishga ulgurdi, xolos. U otdan qulab tushdi va shu topdayoq jon berdi. O’q aning chap ko’ragini teshib o’tib, yuragiga qadalg’on erkan. Mirzoning mulozimlari, oldi-orqasiga qaramayin tumtaraqay bo’lib qochdilar. Bobo Husayn bahodirning navkari chopib borib, Abdullatifning boshini kesib oldi va xurjunga soldi. Padarkush Abdullatifning boshini shu paytning o’zidayoq Registonga olib borub, Mirzo Ulug’bek madrasasining peshtoqiga osib qo’ydilar”²⁹. Bu voqeal 1450-yil 9-may kuni sodir bo’lgan edi.

Abdullatif Mirzo vafotidan so’ng temuriy shaxzodalar o’rtasida taxt va davlat uchun o’zaro kurash yangi cho’qqiga ko’tariladi. Samarqand taxtiga Ibrohim Sultonning o’g’li Ulug’bekning jiyni va kuyovi Abdullo Mirzo o’tiradi. U Mavarounnahrning ilgarigi mavqeyi va shon-shuxratini tiklashga intiladi, turk

²⁹ <http://uz.denemetr.com/docs/134/index-21097-2.html>.

a'yonlari uni qo'llab-quvvatlaydilar. Ammo Buxoroda podshohlikka ko'tarilgan Mironshohning nabirasi Sulton Abu Sayyid unga raqib sifatida maydonga chiqadi. U ko'chmanchi o'zbeklar xoni Abulkayrxondan yordam so'raydi va juda ko'p o'ljalar berishni va'da qiladi. 1451-yilda Abulkayrxon Sirdaryoning quyi oqimida joylashgan Yassi va Sabronni egallab olgan Mirzo Abdulloga qarshi Toshkent, Chinoz, Jizzax orqali Samarqand sari yuradi. Yoz oyida Shiroz qishlog'i yaqinida Bulung'ur angori yoqasida qattiq jang bo'ladi. Bu jangda Mirzo Abdullo yengiladi va halok bo'ladi. Abulkayrxon yordamida Abu Sayyid Samarqand taxtiga egalik qiladi va Movarounnahr hokimi bo'ladi. Abu Sayyid Hirot taxtini egallay olmaydi. Chunki Hirotni 1452-yilda Abulqosim Bobur qo'lga kiritgan edi. U 1457-yilgacha Xurosonni boshqaradi. Ammo Abulqosim Bobur bilan Abu Sayyid o'rtaсидаги munosabatlar juda yomon edi³⁰.

Movarounnaxrda Abu Sayyidning o'g'illari dastavval Sulton Axmad Mirzo (1469-1493), so'ngra Mahmud Mirzo (1493-1494) va nihoyat, Mahmudning o'g'li Sulton Ali Mirzo (1494-1501)lar davrida feodal tarqoqlik va beboshliklar misliko'rilmagan darajada kuchayadi. Bu xol Dashti Qipchoq cho'llarida kun kechirib, yashab kelayotgan Muhammad Sahayboniyxon boshchiligidagi ko'chmanchi o'zbek qabilalarining Markaziy Osiyo xududlaridan temuriylar sulolası vakillarini quvib chiqarib, o'lkani egallab olishlariga qulay imkoniyatlar yaratadi³¹.

Abulkayrxon vafot etgach 1468-yilda o'rniga taxtga o'tirgan o'g'li Haydarxon davrida Iboqxon, Burkasulton, Jonibek, Gerayxon, mang'it amirlaridan Yomqurchi va Muso Mirzolar Oltin O'rda xoni Ahmadxon bilan ittifoq tuzib Haydarxonga qarshi kurash olib borib, g'alabaga erishganlar, Haydarxon esa qatl etilgan. Shunda shoh Budoqning o'g'illari Shayboniyxon va Mahmud Sultonni yaqin kishilari Ashtarkxon xoni Qosimning saroyiga olib borib yashirganlar. Bundan xabar topgan sultonlar o'z quollarini Qosimga qarshi qaratganlar. Ammo shahzoda Muhammad Shayboniy o'z ukasi bilan qamat qilingan Ashtarkondan omon-eson chiqib Dashti Qipchoqqa yetib kelgan. U XV asrning 80-yillarida

³⁰ Ахмедов.Б Тарихдан сабоклар. – Т.: Ўқитувчи, 1994. – Б. 347.

³¹ Ахмедов.Б Тарихдан сабоклар. – Т.: Ўқитувчи, 1994. – Б. 346.

bobosi Abulxayrxon birlashtirgan Dashti Qipchoq yerlarini birlashtirish va hokimiyatni qaytadan tiklash uchun kurash olib boradi. Bu kurashning dastlabki bosqichida temuriylar Shayboniyxonga katta yordam va madad berganlar. Tarixiy manbalarda Shayboniyxon o'z ukasi bilan bir necha marta Movarounnahr hukmdorlari va noiblari –Turkiston va O'trorni idora qilgan noib Muhammad Mazid Tarxon, Samarcand hokimi Ahmad Mirzolar huzurlariga kelganda yaxshi kutib olganliklari va homiylik qilganliklari ko'rsatiladi. Shayboniyxon bir necha vaqt Buxoroda ham yashagan va Dashti Qipchoqqa borib kelib turgan. Buxoroda bo'lganida Shayboniyxon ma'rifatdan saboq olgan, ilm va she'riyatni sevib o'rgangan³².

Sig'noq shahri Shayboniyxonga jangsiz taslim bo'lgan. Mang'it hokimi Muso-Mirzo (No'g'ay)ning yordami evaziga Shayboniy qozoqlar xoni Burunduqxonni (1481 – 1511) tor-mor qiladi. Ammo keyin o'zi qattiq zarbaga uchrab, Mang'ishloq yarim oroliga qochadi.

Samarqand hokimi Ahmad Mirzo mo'g'ullarning tinimsiz qilib turgan hujumidan tinkasi qurib Shayboniyxonga yordam so'rab murojaat qiladi. Shu bahona bilan Shayboniyxon Movarounnahrga ikki bosqichda ya'ni 1488 – 1499-yillarda birinchi marta, 1499 – 1507-yillarda ikkinchi marta yurishlar qiladi va birin-ketin O'tror, Yassi (Turkiston), Buxoro, Samarcand hamda Farg'ona hududlarini egallab oladi³³.

1.3. Muhammad Shayboniyxonning harbiy yurishlari, hayoti va fojeali halokati

Muhammad Shayboniyxon tarixda ko'chmanchi o'zbeklar davlati asoschisi degan nom olgan, "Tura (G'arbiy Sibir) xoni"³⁴ Abulxayrxonning nabirasi Budoq sultonning o'g'li edi. "Budoq Sultonning ikki o'g'li bo'lib Muhammad Shayboniyxon va Mahmud Sultondir"³⁵. Abulxayxon esa Chingizzon o'g'li Jo'jining beshinchi o'g'li Shaybon (Shabon) naslidan bo'lgan.

³² Херман Вамбери. Бухоро ёхуд Мовароуннарх тарихи. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1990. – Б. 71.

³³ Херман Вамбери. Бухоро ёхуд Мовароуннарх тарихи. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1990. – Б. 82.

³⁴ Зиё А. Ўзбек давлатчилиги тарихи. – Т.: Шарқ, 2000. – Б. 237.

³⁵ Хофиз Таниш Бухорий. Абдулланома – Тошкент: Фан, 1966. – Б. 100.

Butun Mag’ribu Mashriqni vahimada tutgan jahongir Chingizzon farzandlaridan biri – Jo’jining beshinchi o’g’li Shaybon nasliga mansub bo’lgani uchun tarix sahnasida Shayboniy (Shaboniy) nomi bilan qolgan o’zbek xonining tabiatи, fe’l-atvori uzoq yillar Mo’g’ulistonni tark etib, Dashti Qipchoq, Turkistonga o’rnashgan barcha ko’chmanchilar kabi mo’g’ullikdan uzoqlashgan, ko’proq turkiy xususiyatlarga ega edi. Agar mo’g’ullar turkiylar yerini egallahsha urungan bo’lsalar, turkiylar ularning fe’l-atvorini, turmush tarzlarini o’zgartirib, ularni ichlariga yutgan edilar. Shayboniyxonning bobosi Abulkayrxon saroyida ham turkiylar odatiga ko’ra tug’ilgan go’dakka ikki ism qo’yish urf bo’lgandi. Bu ismlarning birinchisi hamisha turkiy, ikkinchisi, albatta, islam aqidalaridan kelib chiqib, arabcha bo’ldi. Buyuk turkiy hukmdor Amir Temurning mashhur nevarasi tug’ilganidan rasmiy “Muhammad” nomini, yaqin kishilari uchun esa turkiycha “Ulug’bek” nomini olganini esga olishimiz kifoya. Yoki undan oldinroq o’tganlar sulolalarda ham bu rasm bo’lganini ko’rish mumkin. Xorazmshoh farzandlaridan birining ismi ham Muhammad, ham Manguberdi (Mengburni) ekanini ko’rish mumkin. Bu odat turkiylashgan ko’chmanchilar tomonidan ham qabul qilingan edi. Masalan, Shayboniyxon boshliq ko’chmanchi xalqqa nomi o’tgan Oltin O’rda xoni O’zbekning rasmiy nomi Mahmud bo’lgan. Oltin O’rda xonlaridan Jonibek bilan Berdibeklarning ikkinchi ismlari Muhammad bo’lgan. Ammo Muhammadlar ko’p bo’lgani uchun Mirzo Ulug’bek ham, Sulton Jonibeku Berdibeklar ham turkiy ismlari bilan tarixda qolishdi. Tug’ilganda Muhammad deb nom olgan Shayboniyxon ham o’zining ikkinchi ismi bilan ko’proq tilga olinganining sababi shu bo’lsa kerak.

Shayboniyxon bir qator tarixiy asarlarda Shohibek nomi bilan tilga olinadi. Birinchi qismi forsiy, ikkinchi qismi turkiy so’zdan yasalgan bu ism “shohlar beki”, “shohlarga teng bek” ma’nosini bildiradi. Ammo Shayboniyxonning ikkinchi ismini boshqacha izohlovchilar ham bor. Jumladan, bu qarash fors tarixchisi Muhammad Kozimning “Tarixi olamoroyi Nodiri” (“Dunyoni bezovchi Nodir tarixi”) asarida o’z aksini topgan. Muhammad Kozim o’z asarida o’zbeklar hukmdori ismini ko’pchilikka ergashib, “Shohibek” deb emas, balki “Shoyibek”

tarzida keltiradi. Qadimiy turkiyda esa “shoy” (“shay”) so’zi “kuch-qudrat” ma’nosini bilirgan. V.Radlov esa bu so’zni “kuchli”, “jasur” sifatida izohlagan. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, Muhammad Kozim talqinidagi “Shohibek” aslida turkiycha “Shoyibek” ismining fors tilida buzilgan shakli, aniqrog’i turkiycha ismga forsiy mazmun berilganidir. Ushbu fikrning to’g’riligini isbotlash uchun “Boburnoma”da xonning ismini “Shayboqxon” tarzida keltirilganini ko’rishimiz mumkin. Bu nom ko’hna turkchada “kuch-qudrat” degan ma’noni anglatadi. Mana shularga asoslanib, Shohibek aslida Shoybek bo’lib, u “kuch-qudrat egasi” ma’nosida ishlatalgan deb aytish mumkin³⁶.

Tarixiy ma’lumotlarga ko’ra, Shayboniy otasi Budoq Sulton bilan onasi Qo’zibegimdan yoshligida yetim qolib, ukasi bilan birga otasining sodiq xizmatkori Qorachabek oilasida tarbiyalandi. Qorachabek bu shahzodadan mehr-shafqatini ayamadi, unga sadoqat bilan xizmat qildi. Ilm fan bilan ko’p yillar oshno bo’ladi. Zayniddin Vosify uni “shahid xon”, “zamon imomi” deb ta’riflaydi³⁷. Balog’atga yetgan Shayboniy Abulkayrxon o’rdusining turli taraflarga tarqalib ketgan kishilarini atrofiga to’plab, bobosining sultanattini tiklashni orzu qiladi. Jiddiy tayyorgarlikdan so’ng, sulolaning yo’qolgan shon-shavkatini qaytarmoqqa kirishadi.

Dastlab, yosh Muhammad Shayboniyxon parchalangan Temur davlatining shimoliy chegarasida noiblik qilayotgan Kushliqxon o’g’li Majid taxondan uni o’z xizmatiga olishni so’raydi. Majid taxxon rozilik beradi. Ammo, tez orada o’z hokimiyatiga xavf solayotgan o’zbeklardan, eng avval Shayboniyxonidan qo’rqan Majid taxxon ularni Buxoro hokimi Abdulali taxxon huzuriga jo’natib qutulishga qaror qiladi. Buxoro hokimi o’zbeklarni yaxshi kutib oldi va ulardan unumli foydalanish choralarini topdi.

“Shayx Nizomiddinxo’ja Mir Muhammad Shayboniyning piri edi. U pirining: “O’rtadan emas, chetlaridan boshlamoq lozim” degan ramziy so’zlariga muvofiq mamlakatlarni istilo qilish fikriga tushdi”³⁸.

³⁶ Бобур З. М. Бобурнома. – Тошкент: Юлдузча, 1989. – Б. 104.

³⁷ Зайниддин Маҳмуд Восифий. Бадоевул вақоев. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1979. – Б. 24.

³⁸ Херман Вамбери. Бухоро ёхуд Моварооннахр тарихи. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1990. – Б. 79.

Bir kuni Shayx debdilarki “g’ayb kalitlari uning kaftida, buyuk fattoh o’z ochqichlaridan bir kalitini kifoyatli kaftingizga qo’yadirg’on ko’rinadi, ammo bu ishning yuzaga chiqishi Turkiston viloyati tomonlarda ro’y berajak”³⁹.

Avvalo, u atrofdagi turk beklariga murojaatnoma yuborib, ularni temuriylar hokimiyatini butunlay tugatishga da’vat etdi. Bunga ayni fursat kelganini anglatdi.

Samarqand hokimi Ahmad Mirzo mo’g’ullarning tinimsiz qilib turgan hujumidan tinkasi qurib Shayboniyxonga yordam so’rab murojaat qiladi. Shu bahona bilan Shayboniyxon Movarounnahrga ikki bosqichda ya’ni 1488–1499-yillarda birinchi marta, 1499 – 1507-yillarda ikkinchi marta yurishlar qiladi va birin-ketin egallaydi. Fag’ona, Hisor, Samarqand, Buxoro singari mulklar va ular atrofidagi viloyatlar aslida o’zaro qaramlik munosabatlari bilan bog’liq mustaqil siyosiy tuzulmalar edi⁴⁰.

Temuriylar Movarounnahrning poytaxti Samarqandga da`vogar bo`lgan mustaqil hokim Toshkent hokimi edi. Xorazmda ham mustaqillikka da`vogar bo`lgan sufiylar sulolasining vakili hukmronlik qilar edi. Ayrim hukmdorlar o`z qo`shinlarining yerlarini bosib olish hisobiga o`z yarlarning kengaytirish poyidan bo`lib yurishlari muvaffaqiyatsiz chiqqanda talab olingan mollar bilan cheklanishardi. XV asrning oxirlarida feodallarning bir-biriga qarshi chiqishlari ancha keskinlashdi.

Movarounnahrda tarkib topgan beqaror siyosiy vaziyat Shayboniyxonning bosqinchilik yurishlari uchun qulay bo`ldi. O`zaro nizolardan foydalanib u janub tomon muvaffaqiyatli siljib borar edi. “Movarounnahr aholisi Shayboniyxon qo`shinlari harakatiga turlicha qarashardi. Ularning ayrimlari bosqinchilarga zarba berish uchun butun kuchlari sarflashga tayyor bo`lib o`z shahar va qishloqlarni fidokorona himoya qilishar, ayrimlar esa hukmdorlarning o`zgarishi va baquvvatiroq hokimiyatning o`rnatalishi, shahar va qishloqlarda nizolar va tartibsizliklarni to`xtatilishiga yordam beradi deb umid qilishardi⁴¹. Ularning ko`plari Shayboniyxon Buxoro va Samarqandda bo`lgan paytda u bilan tanishgan

³⁹ Ҳасанхожа Нисорий. Музаккири ахбоб. – Т.: Ҳалқ мероси, 1993. – Б.19.

⁴⁰ Херман Вамбери. Бухоро ёхуд Мовароуннаҳар тарихи. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1990. – Б. 82.

⁴¹ Херман Вамбери. Бухоро ёхуд Мовароуннаҳар тарихи. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1990.– Б. 81.

edilar. Ayrim Temuriylar ham bosqinchilarning qo`shinlariga qat`iy qarshilik ko`rsatdilar. Vujudga kelgan tahlikali holatlarda shu paytgacha bir biriga dushman bo`lgan feodallarni vaqtinchalik bo`lsada Temuriylar tevaragida birlashishiga olib keldi.

XVI asr boshlarida zaiflashib borayotgan Temuriylar sultanatiga Dashti qipchoq tomondagi o`zbeklar hukmdori Muhammad Shohbaxt Shayboniy hujumi boshlandi. Shayboniyxon 1500 – 1501 yillarda Samarqand va Buxoroni, 1504-yilda Hisor viloyatini, 1504 – 1505-yillarda Urganchni, 1506 – 1507-yillarda Xuroson poytaxti Hirot hamda Balxni, shuningdek, Marv, Mashhad va Nishapur shaharlarini zabit etdi. Toshkent, Farg`ona va Sirdaryo yerlari ham Muhammad Shayboniyxonga qaram bo`lib qoldi. Shunday qilib, Movarounnahr va Xuroson birlashtirildi va Shayboniylar sulolasи hukmronligi qaror topdi. 1469-yilda Sulton Abusayid vafotidan so`ng temuriylar sultanati yana ikki qismga bo`linib ketganligi tarixdan ma'lum. Movarounnahrda Sulton Abusayid avlodlari navbat bilan hukm surdilar. Dastlab uning o`g`li Sulton Ahmad Mirzo (1469 – 1494), so`ngra Sulton Mahmud Mirzo (1494 – 1498) va nihoyat Mahmudning o`g`li Sulton Ali Mirzo (1498 – 1500) mustaqil hukmronlik qiladilar. Farg`onada Umarshayx hokimlik qilar edi. Bu hukmdorlar orasida ayniqsa Sulton Ahmad uquvsiz, sustkash va buning ustiga savodsiz bo`lgan. Uning davrida siyosiy tarqoqlik va toj-u taxt uchun kurash avjiga mingan. 1494-yilda Sulton Ahmad Mirzo Mo`g`iliston xoni Sulton Mahmud o`zaro ittifoq bo`lib, lashkarlarini Farg`onaga yuborgan bir paytda Umarshayx fojiali halok bo`ladi. Bu haqida Bobur quyidagicha yozadi “ ... bu asnoda g`arib voqeа dast berdi, ma'lum bo`ldiki Axsi qo`rg`oni baland jar ustida bino bo`libdir, imoratlar jar yoqasida erdi. Ushbu tarixda dushanba kuni ramazon oyining to`rtida Umarshayx Mirzo jardin kabutar va kabutarxona birla uchib shunqor bo`ldi. Unda o`ttiz to`qquz yashar erdi”⁴².

Bu davrda Bobur Mirzo endigina 12 yoshga to`lgan edi. U valiahd sifatida taxtga o`tiradi. Yosh tajribasiz Bobur Mirzo yuqori tabaqa vakillari o`rtasida avjiga mingan siyosiy tarqoqlik kurashiga chorasziz holda aralashishga majbur bo`ladi. U

⁴² Вохидов Р. Биз билган ва билмаган Бобур. – Т.: Маннавият, 1999. – Б. 9.

ulug' sohibqiron bobosi davlatini birlashtirishni o'zining ezgu niyati deb bilar edi. Ana shu ezgu maqsad bilan harakat qilgan Bobur Mirzo boshchiligidagi Andijon qo'shinlari 1495–1496-yillarda Samarqandga ikki marta muvaffaqiyatsiz yurish qiladi. 1497-yil kuzida u Samarqand atrofidagi bir qancha joylarni va yetti oylik qamaldan so'ng Samarqandni egallaydi, Boysung'ur Qunduzga qochadi. Zahiriddin Bobur bobosi Amir Temurning rasmiy poytaxti Samarqandda bor yo'g'i yuz kungina hukmronlik qiladi, xolos. U tez orada Andijonga qaytishga majbur bo'ladi. Buni muarrihlar har xil sabablar bilan sharhlaydilar. Birinchi sababi, Samarqand uzoq vaqt qamal qilinganligi oqibatida shaharda oziq-ovqat tanqisligi kuchaygan. Ikkinci sababi esa, Bobur Mirzoning yo'qligidan foydalangan mahalliy hukmdorlar Andijonda qo'zg'olon ko'taradilar va shaharni qo'lga oladilar. Bobur Mirzo Andijondagi o'zboshimcha beklarni tanobini tortib qo'yish maqsadida Samarqanddan chiqib Andijon sari otlanadi. Samarqand yosh shahzoda xotirasida juda chuqur iz qoldiradi. Bu Bobur Mirzoning Movarounnahr poytaxtiga birinchi bor qadam qo'yishi edi⁴³.

1498-yilda Buxoroda turgan temuriylardan bo'lmish Sulton Ali Samarqandga kirib keladi. Uning ixtiyorida qurolli kuch yo'q bo'lib u amirlar qo'lida shunchaki bir qo'g'irchoq edi, xolos. Mamlakatdagi bunday bosh-boshdoqlik, boshqaruв tizimining tez-tez bir qo'ldan ikkinchi qo'lga o'tib turishi, xalqning og'ir iqtisodiy ahvoli Movarounnahr tuprog'idan temuriylarni surib chiqarishni o'z oldiga vazifa qilib qo'yan bosha bir turkiy qabila – Dashti Qipchoqdagi chorvador o'zbek nomi bilan ataluvchi qavm va qabilalarning Muhammad Shayboniyxon boshchiligidida bu hududlarni egallab olishlariga yordam berdi. Muhammad Shayboniyxon 1500-yilda jangsiz Samarqandni egalladi. U shaharni talaydi, temuriy shahzodalarni qilichdan o'tkazadi. Aholiga katta va og'ir soliqlar solinadi. Bu hol Samarqand shahri aholisining norozilik qo'zg'oloniga sabab bo'ldi. Qo'zg'olonga Abulmakarim boshchilik qiladi. Shayboniyxon bu davrda Samarqandda 600 kishini qoldirib o'zi Ko'limalikda dam olayotgan edi. Shunda Samarqand shahri ahli 19 yoshli Bobur Mirzoni Samarqandga chorlab,

⁴³ Вохидов Р. Биз билган ва билмаган Бобур. – Т.: Маннавият, 1999. – Б. 21.

shahar darvozalarini unga ochib berdilar. Shayboniyning Samarqand shahrida qoldirib ketgan 600 kishidan iborat askarlari qirib tashlandi⁴⁴.

Bobur Mirzo shoh etib ko'tariladi. Samarqand tumanlari, Qarshi, G'uzor hududlari ham Bobur Mirzo hukmronligini tan oldi. Samarqandda sodir bo'lган voqealardan xabar topgan Muhammad Shayboniyxon Turkiston atroflaridan katta qo'shin to'plab yana Samarqand sari yurdi. Bu davrda Samarqandda og'ir vaziyat vujudga kelgan edi. Qurg'oqchilik tufayli shahar oziq-ovqat va yem-xashak tanqisligiga uchradi. Natijada Bobur Mirzo lashkarlarining bir qismini tarqatib yuborishga majbur bo'ladi. U oz sonli qo'shin bilan qolgan edi. Bundan foydalangan Shayboniyxon hujum boshlaydi. Bobur Mirzo Kesh, Toshkentdan kelayotgan yordamchi kuchlarni kutmasdan jangga kiradi. Zarafshon qirg'og'ida bo'lган jangda Bobur Mirzo yengiladi va Samarqandda yashirinadi. Shayboniyxon Samarqandni uzoq vaqt qamal qiladi. Shaharda misli ko'rilmagan og'ir ahvol yuzaga keldi. Bobur Mirzo och-yalang'och qolgan Samarqandni yarim tunda tashlab Toshkent tomon otlandi. U tog'asi Toshkent hokimi Sulton Mahmudxon huzuriga Samarqandni qaytarib olishda yordam so'rab boradi. Biroq Muhammad Shayboniyxon Bobur Mirzo, Sulton Mahmudxonning birlashgan qo'shinlarini yengadi. Bobur Mirzo Mo'g'ilistonga qochishdan boshqa chora topa olmadi. Bu davrda Andijon ham Shayboniylar tomonidan egallangan edi. Muhammad Shayboniyxon 1505-yilga kelib butun Movarounnahrni egallab bo'lib, Xurosonni qo'lga kiritish maqsadida tayyorgarlik ko'rayotgan edi. Bobur Mirzo 1504–1507-yillar oralig'ida Mo'g'iliston va Movarounnahr yerlarida quvg'inda yuradi va nihoyat oz sonli lashkar bilan Hisor tog'laridan oshib, Qobul shahrini egallaydi. U boshidan juda og'ir kunlarni o'tkazdi.

Bobur Mirzo Afg'onistondagi tarqoq qabilalarni birlashtirdi. Qobuldan so'ng G'azna egallandi. Qobul Bobur Mirzo davlatining poytaxti edi. U 1508-yilda rasmiy suratda o'zini Afg'oniston davlatining podshosi deb e'lon qiladi. Hatto Xuroson hukmdori Husayn Boyqaro Bobur Mirzo bilan birgalikda Muhammad Shayboniyxonga qarshi jangga otlanishga o'zaro kelishib olgan edi. Faqat Husayn

⁴⁴ Вохидов Р. Биз билган ва билмаган Бобур. – Т.: Маннавият, 1999. – Б. 9.

Boyqaro Mirzoning 1506-yildagi kutilmagan bevaqt o'limi bu rejaning amalga oshuviga imkon bermadi. Muhammad Shayboniyxon Movarounnahr so'ng Xurosonni egallab, bu hududlarni temuriylardan tortib oldi⁴⁵.

Xurosonning ham bo'y sundirilishi bilan amalda Muhammad Shayboniyxon butun mintqani yagona bir markaz- Samarqand qo'l ostida birlashtira oldi. Binobarin u temuriyzodalar amalga oshiraolmagan ishni bajara oldi. Bu uning davlatchiligidan oldidagi hizmatidir. Shu tariqa Movarounnahr, Xorazm va Xurosonni o'z ichiga olgan hududda Muhammad Shayboniyxon hukumronligi o'rnatildi va davlatchiligidan tarixida Shayboniylar sulolasini hukumronligi davri boshlandi.

Shayboniyxon tobora davlati sarxadlarini kengaytirishga urindi. Bu orada Eronda Safaviylar sulolasiga asos solgan Eron shohi Ismoil ziyraklik bilan Shayboniyxon harakatlarini kuzatib turar va u Shayboniyxonning bu harakatini to'xtatishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan edi. Shoh Ismoil bilan Shayboniyxonning to'qnashuvi aniq bo'lib qoldi. Eron hukmdori Ismoil (Xatoiy taxallusi bilan she'r yozgan)⁴⁶ Ardabel shahridagi safaviylar xonadonidan edi. U Ozarboyjondagi turk qabilalari ko'magidan foydalanib uncha katta bo'limgan, biroq kuchli va tartib-intizomli qo'shin tuza oldi⁴⁷.

1510-yilda Sirdaryo bo'yalarida mo'g'ullar bilan qozoqlarning birlashgan kuchlaridan talofat ko'rgan Shayboniyxonning 17 ming kishilik qo'shini Marvga kirib Movarounnahrdan keladigan yordamni kutadi. Bundan xabar topgan shoh Ismoilning 70 ming kishilik qo'shini Marv qo'rg'onini qurshovga oldi. Biroq Shayboniyxon tomonidan qattiq mudofaa qilingan shaharni qo'lga ola olmagan Ismoil hiyla ishlatdi va qal'ada himoyalanayotgan Shayboniyga: "Agar mard bo'lsang tashqariga chiqib, men bilan maydonda olishasan", deydi⁴⁸. Erkaklik va mardlik g'ururi tutgan Shayboniyxon oz sonli qo'shin bilan Ismoilni orqasidan quvlashga tushdi. Eronlik safaviylar Marv yaqinidagi Murg'ob daryosi qirg'og'ida, Tahirrobod deb atalgan joyda daryo ustidagi ko'priklarni buzib, Shayboniylarni

⁴⁵ Херман Вамбери. Бухоро ёхуд Мовароуннахр тарихи. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1990.– Б. 82.

⁴⁶ https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Ismoil_I_Safaviy.

⁴⁷ https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Ismoil_I_Safaviy.

⁴⁸ Херман Вамбери. Бухоро ёхуд Мовароуннахр тарихи. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1990.– Б. 82.

tuzoqqa tushiradilar. Ko'p o'zbek sarkardalari qirib tashlanadi. Mag'lubiyatga uch-rab yaralangan Shayboniyxon yaqin bir qishloqqa chekinadi. Eronliklar Shayboniyxonni qo'lga olib 1510-yil 12-dekabrda uning boshini tanasidan judo etib, nayza uchiga ilib qo'yadilar. Zaki Validiy To'g'onning yozishicha, shoh Ismoilning buyrug'i bilan Shayboniyxonning bosh suyagidan sharob qadahi yasaladi va u oltin bilan bezatilib, Misr sultoni Falajga sovg'a sifatida yuboriladi. Chunki Falaj ham Shayboniyxon singari sunniy mazhabida edi va uni juda sevardi. Arab tarixchisi Ibn Ayos "Badoiy o'z-zuhur" nomli asarida keltirishicha Shayboniyxonning bosh suyagidan yasalgan qadah ustiga shoh Ismoil quyidagi satrlarni yozdirgan ekan:

Alsayf val-xanjar rayxonano,

Tuf a'lo almarjis val-as.

Mudominoman dam a'donno,

Vahasno jumjumatu'al-ras!

Arabcha bu satrlarning ma'nosini quyidagicha sharhlash mumkin:

Qilich va xanjar bizning hidimizdir,

"Tuf" bo'lsin nargiz va sumbulingizga.

Dushmanning qoni ichkiligimizdir,

Aylansin bosh suyak qadahimizga!⁴⁹

Shayboniyxonning bosh suyagidan yasalgan tilla qadahning Misrga yetib kelishi sunniy mazhabidagi aholi o'rtasida katta norozilik uyg'otdi. Misr sultoni Qansu Gavri o'sha bosh suyakni katta hurmat bilan ko'mdiradi. Yana Ibn Ayosning aytishicha, 200 dan ortiq misrlik shoir shoh Ismoilning yuqorida keltirilgan she'riy to'rtligiga qarshi javob she'riy to'rtliklar yozdilar. Masalan, shayx Nosuriddin Tahhan qalamiga mansub she'riy javob to'rtlikning o'zbekcha tarjimasi quyidagichadir:

Gar hidlab yursang hushbo'y narsalarni

Ko'paytirarsan mudhish qo'rquvlarni.

Jangda dushmanni o'ldirish sharafdir,

⁴⁹ Shamsutdinov R. Karimov Sh. Vatan tarixi. 2-kitob. –T.: Meros, 2009. –B. 17.

Faqat it yalaydi bosh suyaklarni!⁵⁰

Shayboniyxon o’lgandan keyin undan uchta o’g’il farzand qolgan. Kattasi Temur sulton, u 1514- yili halok bo’lgan. Uning Fo’lod sulton ismli o’g’li bo’lgan, Fo’lod sulton esa 1530-yil vafot etgan, (onasi Mehr Xonum) Fo’lod sultonning Ko’kbo’ri ismli o’g’li bo’lib, undan farzand qolmagan. Shayboniyxonning ikkinchi o’g’li Xurramshoh Bobur podshohning opasi Xonzodabegim va uning Muhammmad Shayboniyxon dan tug’ilgan o’g’li, ya’ni Boburning shayboniyzoda jiyani Xurramshoh taqdiri haqidagi ma’lumotlar talqini tarixiy manbalar hamda hozirgi zamon badiiy adabiyoti va ilmiy tadqiqotlarda turli-tumanligini ko’ramiz. Bobur podshoh o’z asarida Xurramshohni “maqbul o’g’lon edi” deya ta’riflagan⁵¹.

Xonzodabegim va uning o’g’li Xurramshoh haqidagi ma’lumotlar “Boburnoma” va “Habib us-siyar”, “Tarixi Rashidiy”, “Humoyunnoma”, “Ahsan at-tavorix”, “Lab at-tavorix”, “Tarixi olamoroyi Abbosiy”, “Tarixi Qipchoqxoni”, “Majma ul-g’aroyib”, “Musaxxir il-bilod”, “Tazkirai tarixi Muqimxoniy” kabi asarlarda aks etgan. “Boburnoma”ning bizgacha yetib kelgan ba’zi nusxalarida Xonzodabeginning Bobur Samarqandni sulh asosida tashlab chiqqan 1501-yil avgust oyida “Shayboniyxonga tushgani” qayd etilib, opasning 1510- yil dekabrida Marvdan shoh Ismoil tashabbusi bilan Bobur Mirzo oldiga yuborilgani hamda opasining Shayboniyxon dan tuqqan “Xurramshoh otliq maqbul o’g’lon”ining Balxda hokim bo’lgani va otasi halok bo’lgani voqeasidan bir-ikki yil o’tib esa vafot etgani qayd etiladi⁵², xolos. “Tarixi Rashidiy”da Xonzodabeginning keyinchalik Shayboniy nikohidan chiqarilgani, buning sababi esa Shayboniyxon Xonzodabeginning ukasi Boburning maslahatiga ko’ra xon hayotiga qasd qilib qo’yishi mumkinligidan gumonsiragancha taloq qilib, Sayyid Atoiy avlodidan bo’lmish Sayyid Hodiga bergani, bu sayyidning esa Shayboniyxon va boshqa shayboniy sultonlari, umuman, dashti qipchoqlik barcha o’zbeklar oldida katta e’tiborga egaligi eslatiladi⁵³. Yana Sayyid Hodi Marvdagi jangda o’ldirilgach, Xonzodabegim safaviylar qo’liga asir tushgani va Shoh Ismoil uning kimligini

⁵⁰ Shamsutdinov R. Karimov Sh. Vatan tarixi. 2-kitob. –T.: Meros, 2009. –B. 17.

⁵¹ Бобур З. М. Бобурнома. – Тошкент: Юлдузча, 1989. –Б. 171.

⁵² [http://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/muhammad-shayboniyxon/xurramshox qismati/](http://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/muhammad-shayboniyxon/xurramshox_qismati/)

⁵³ Мухаммад Хайдар Мирзо. Тарихи Рашидий. – Т.: Шарқ, 2010. – Б. 357.

bilgach, izzat-hurmat ko'rsatib, o'z elchisi bilan birga Bobur Mirzo oldiga yuborilgani ham qayd etilgan⁵⁴.

“Tarixi Qipchoqxoniy”da ham Shayboniyxonning Xonzodabegimdan ajrashish sababi sifatida ana shu zahar berishda gumonsirash masalasi ochiq-oydin ko'rsatilgan.

Sulton Muhammad Balxiy “Majma’ ul-g’aroyib”da yozishicha, uning otasi Darvish Muhammad mufti Xurramshoh saroyida xizmat qilgan. Muhammadyor ibn Arab Qatag'an qalamiga mansub “Musaxxir il-bilod” kitobida Hodixojaning kimligi va Xurramshohning hukmdorlik faoliyati xususida maxsus ma'lumot berilgan⁵⁵.

Boburning bizgacha yetib kelgan ma'lumotlarida Hodixoja nomi tilga olinmaydi. Xurramshohga Balx viloyati berilganidan boshqa fakt ham qayd etilmaydi. Bu qisqa ma'lumotda Boburning bu jiyanini ko'rgan-ko'rmagani masalasi aniq emas. Xondamir ham, Muhammad Haydar Mirzo ham bu haqda yozishmagan.O'zbekiston xalq yozuvchisi Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar” romanida Xonzodabeginning ikkinchi nikohi eslanmasdan, Xurramshohning ham onasi bilan birga tog'asi Bobur oldiga Qunduzga kelgani tasvirlanadi. Xonzodabegin va Xurramshohning bu kabi Bobur bilan uchrashuvi voqeasi albatta badiiy talqindir. Asar yaratilishi chog'i fors tilidagi “Habib us-siyar”, “Tarixi Rashidiy” kabi yana o'nlab yozma manbalar qo'l ostida bo'lgan sharqshunos tarixchi olim va yozuvchi Pirimqul Qodirov Xurramshohning Bobur bilan muloqotini ana shu badiiy to'qima orqali aks ettirishni ma'qul topgan⁵⁶. Badiiy asarning yo'rig'i boshqaligi uchun yozuvchining bunga haqqi bor. Andijonlik adiba Omina Tojiboeva “Qiyomat taqdir” hikoyasida “Xonzodabeginning Shayboniy nikohidan chiqarilib, uning xizmatidagi Ziyo Xodi ismli bir keksa ruhoni bilan turmush qurgani, bu ruhoni jismonan zaif bo'lgani va Boburni hurmat qilgani yuzasidan Xonzodabeginni o'z singlisi kabi asrab, fursat topganida Bobur oldiga yuborishni mo'ljallab yurishi, ammo, Marv jangida Shayboniyxon

⁵⁴ Мухаммад Ҳайдар Мирзо. Тарихи Рашидий. – Т.: Шарқ, 2010. –Б. 357.

⁵⁵ http://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/muhammad-shayboniyxon/xurramshox_qismati/

⁵⁶ http://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/muhammad-shayboniyxon/xurramshox_qismati/

bilan bir safda o'ldirilib, uning bu orzusini shoh Ismoil amalgalashirganini o'z badiiy talqinida havola etadi. Bu adiba ham Xurramshohning tog'asi oldiga Qunduzga kelganini hikoya qiladi”.

R.Shamsutdinov, M.Abdullayevning “Boburnoma”ning yo’qolgan sahifalari xususida» nomli maqolasida esa “Xonzodabeginning Shayboniyxon 1510-yilda o’ldirilgach, Bobur oldiga kelgani va shundan so’ng Sayyid Hodi ismli kishi bilan nikohdan o’tgani, ammo, ularning turmushi uzoq davom etmagach, Xonzodabeginning Mahdiy Xoja bilan turmush qurgani» tarixiy fakt sifatida havola etilgan”⁵⁷.

Aslida tarixiy voqelik qanday bo’lgan? Yuqorida eslatilgan yozma manbalar bu to’g’rida quyidagi ma'lumotni beradi: “Gulbadanbegin “Humoyunnoma”da ochiqroq tarzda yozishicha, 1478-yilda tug'ilgan Xonzodabegin 1501-yil avgustida Bobur va Shayboniyxon o’rtasida tuzilgan sulh bitimi shartiga binoan Samarqandda Shayboniyxon nikohiga kiradi. Bu nikohdan 1502- yil may oyida Xurramshoh dunyoga keladi. Oradan uch-to’rt yil o’tgach, Shayboniyxon Xonzodabeginni, zahar berishda gumonsirab, o’z nikohidan chiqaradi. Qoidaga binoan hukmdor erdan ajrashgan yoki beva qolgan saroy ayoli bunday voqeadan so’ng yo ersiz o’tishi yoki hukmdorning eng yaqin kishisiga tegishi lozim edi. Xonzodabeginni o’zidan uzoqlashtirgan xon shu sababli bevasining o’z ammavachchasi Sayyid Hodixoja bin Murtazoxoja nikohiga kirishiga rozilik beradi. Bu dashtiqipchoqlik sayyidlar xonadoni shajarasi Sayyid Oto orqali hazrat Ali bin Abi Tolibga ulanadi. Sayyid Hodixoja Shayboniyxonning ham ammavachchasi, ham shijoatli amirlaridan biri hisoblanib, o’sha paytda 50 yoshlarda bo’lgan. Xonzodabegin esa 28 yoshida edi. Shayboniyxon 1506-yil 15-noyabrida Balxni egallab, sog’lom enagalar va harbiy ishga mohir amirlar, yaxshi ilmlı ustozlar qo’lida tarbiya topgan qobiliyatli o’g’li Xurramshohni Balx va uning muzofotlariga hokim qilib tayinlaydi”⁵⁸. “Musaxxit il-bilod” muallifi bu haqda shunday yozadi: “...Yosh bo’lgani uchun ul shohzodaning Otoliqi mansabiga

⁵⁷ Shamsutdinov R., Abdullayev M. Bobur va boburiylarning jahon madaniyati tarixida tutgan o’rni. – T.: Fan, 2008. – B. 42.

⁵⁸ Файзиев Т. Захириддин Мухаммад Бобу ва унинг авлодлари. – Т.: Ёзувчи, 1996. – Б. 52.

Qanbar Mirzo ko'kaltosh tayinlandi. Ul yaxshi xislatli amir hamisha o'z marhamati qanoti vaadolati soyasini mazkur viloyat aholisi boshi uzra yoydi...shuning sharofatidan butun Balx mamlakati obodonchilik va farovonlik topdi. Oliy martabali shohzoda Xurramshohning yorqin ko'ngli ov va shikor havasiga lim to'la, dili gul yuzli yoshlari va quyosh chehrali botirlar bilan suhbat qurmoq ishtiyoqi bilan to'lib-toshgani sababli ko'p vaqtini shikor nashidasini surmoq bilan o' bilan o'tkazardi. Doimo soyadek otasi Shayboniyxon uzangisi xizmatida yurar, hech qachon uning buyrug'i va farmonini bajarmasdan qolmas, hech bir so'zini ikki qilmas edi...”⁵⁹.

Shuningdek, “Majma’ ul-g’aroyib”da aytishicha, Xurramshoh o'z atrofiga o'qimishli va fozil kishilarni to'plagan. Ko'rindiki, dovyurak va yaxshi harbiy ta'lim olgan Xurramshoh yoshligiga qaramay otasi Shayboniyxon bilan birga Balx, Hirotni olish janglarida qatnashgan hamda davlat boshqarish sirlarini o'rgangan. 1507 -yil iyun oyida Mashhad ham qo'lga kirib, Shayboniyxon u yerga mazkur ammavachchasi Sayyid Hodixojani hokim qilib tayinlaydi va Xonzodabegim ham Mashhadda yashay boshlaydi. 1508-yil boshida Husayn Boyqaroning o'g'li Muhammad Qosim Mirzo Mashhadni Sayyid Hodixojadan tortib oladi, Hodixoja esa Marvga qochadi va Marvdagi Shayboniyxon buyrug'iga binoan tez orada Ubaydulloh sulton yordamida Mashhadni qaytarib olib, Muhammad Qosim o'lirligach yana Mashhaddagi hokimligini davom ettiradi. Oradan ikki yil o'tgach, aniqrog'i, “1510-yil oktyabrida shoh Ismoil safaviy Xurosonga yurish qiladi, oz sonli qo'shin bilan Hirotda o'tirgan Shayboniyxon esa urushga qulay joy sifatida Marvga chekinadi. Safaviylar qo'shini Mashhadga yaqinlashgach, Hirotda qolgan shu shahar dorug'asi Jon Vafobiy do'rmon, Mashhad hokimi Sayyid Hodixoja, Niso hokimi amir Muhammad Solih va Durun hokimi Podshohxoja (Xoja) kabilar ham Marvga keladilar. Shayboniyxon Balx, Samarqand, Buxoro, Toshkent va Turkiston qo'shinlarini yordamga chaqirgan bo'lib, Xurramshoh darhol o'z qo'shini bilan otasiga yordamga otlanadi. Biroq, Shayboniyxon o'g'llari va boshqa sultonlardan yordam kelishini kutmay, 1510-yil 5-dekabrida jangga

⁵⁹ Muhammadyor ibn Arab Qatag'an. Musaxxir al-bilod. – T.: Yangi asr, 2009. – B. 130.

kirishib, shu urushda halok bo'ladi”⁶⁰. Bu voqealar Xondamirning “Habib us-siyar”, Muhammad Haydar Mirzoning “Tarixi Rashidiy” va boshqa eronlik, o’rta osiyolik tarixchilar asarlarida ham o’z aksini topgan. Shu yerda ta’kidlab o’tish lozimki, Muhammad Haydar Mirzo Sayyid Hodixojaning mazkur Marv jangida o’ldirilganini qayd etadi. Xondamirning Sayyid Hodixoja haqidagi ma’lumotlari esa juda qiziq bo’lib, ularni alohida ko’rib chiqishga to’g’ri keladi. Ammo o’rni kelganda aytib o’tish kerakki, Marv urushi va Xonzodabeginning Shoh Ismoil tomonidan Bobur Mirzo oldiga yuborishini tasvirlagan Xondamir bu hikoya jarayonida Sayyid Hodixojaning bu jangda o’lgani haqida gapirmaydi. Ma’lumki, Shoh Ismoil g’alaba qilgach, Marv aholisini “qatli om” qilishga buyruq berib, begunoh aholi boshlaridan minoralar yasaladi. Ana shunday bir paytda Buxorodan yordam uchun kelgan Ubaydullohxon amakisi Shayboniyxon haramidagi Boburning tog’avachchasi Mo’g’ulcha xonim (Oysha Sultonbegim) bilan Mahmudxon Koshg’ariyni qutqarib, Buxoroga olib qochishga ulguradi. Sayyid Hodixoja ug’ruqi (oilasi) esa asir tushib, Xonzodabeginning Bobur singlisi ekani ma’lum bo’lgach, shoh uni Bobur huzuriga yuboradi⁶¹.

Endi shu o’rinda muarrixlar, ayniqsa Xondamir va hozirgi zamon olimlari tilga olgan Mahdixoja kimligini ham aniqlashtirib olishga to’g’ri keladi. Mavzuga doir yana bir fakti unutmaylik: «Boburnoma» va Hindistonda bitilgan boshqa mualliflar asarida Boburning qizlaridan biriga uylangan kuyovi va ona tomondan temuriy Mir Ziyod Mahdixoja nomi ham tilga olinib, bu amirzoda yoshlikdan Bobur xizmatida turgan va Hindistonni zabit etish hamda Bobur podshohning boshqa topshiriqlarini bajarishda sarkarda, hokim va elchi sifatida faol qatnashgan. Abulfazl Allomiy xabar berishicha, Mir Ziyod Mahdixoja Boburga qarindosh bo’lgani sababli Boburdan so’ng taxtni egallamoqchi bo’lgan. Biroq bu fitna fosh etilgan⁶².

Xondamir «Habib us-siyar» asarida Sayyid Hodixojaning 1507-yili Mashhadga hokim etib tayinlanishiga oid hikoyasida uni “pisar ammai xon bud

⁶⁰ G’iyosiddin ibn Humomiddin Xondamir. Habib us-siyar fi axbori afrodi bashar. – T.: O’zbekiston, 2013. –B. 387 – 388.

⁶¹ http://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/muhammad-shayboniyxon/xurramshox_qismati/

⁶² <http://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/ismoil-bekjon-xonzodabegin-va-xurramshox-qismati.html>.

(Shayboniyxonning ammasining o'g'li edi)"⁶³ deb ko'rsatadi. Ammo Xondamir o'zining mazkur asarida yana bir Dashti Qipchoqlik va Shayboniyxonga qarindosh hamda Boburning opasiga uylangan xoja haqida ma'lumot beradi. Garchi bu xoja ko'p jihatlari bilan Sayyid Hodixojani eslatsa-da, Xondamir negadir uning nomini "Mahdixoja" shaklida tilga olgan. Xondamir 1517-yil bahorida bu xoja bilan bir necha kun birga bo'ladi va, jumladan, o'sha paytda kechgan voqeani quyidagicha hikoya qiladi: "Muhammad Zamon Mirzo Kobuldan Balx sari kelayotgan Zahiriddin Bobur podshoh huzuriga odam yubordi. Bobur podshoh esa uni o'z oldiga chorladi va Balxni shayboniylargo moyil bo'lgan Qavombekning qo'lidan olib, Muhammad Zamonga bergach, o'zi yana Kobulga qaytajagini bildirdi. Muhammad Zamon Mirzo bu xabarni eshitgach, Bobur podshoh xizmatiga borishga jazm qildi, ammo yo'lga tushishdan oldin ota tomonidan Sayyid Murtazoxojaning nabirasi, ona tomonidan esa nisbati Abulxayrxonga ulanuvchi va hazrat podshohiy Bobur Mirzoning hamshirasi bu xoja nikohida turgan janob siyodatmaob, saltanatintisob Sayyid Mahdixoja Darajaz manzilidan ul hazrat dan yuz o'girib, Muhammad Mirzo oldiga keldi va uni oliy o'rduga borishdan qaytardi.... Muhammad Zamon Mirzo tezlikda G'arjaston tomonga yo'naldi, Pilchirog'da esa Sayyid Mahdixoja ham ul hazrat dan ruxsat olib, Movarounnahr sari ketdi"⁶⁴.

Xondamirning "Habib us-siyar"idan sakson yil keyin O'rta Osiyolik muarrix tomonidan yozilgan "Musaxxir il-bilod"da esa quyidagilarni o'qiyimiz: Hirot olingach, Shayboniyxonning ammavachchasi Sayyid Murtazoxoja o'g'li Sayyid Hodixoja muqaddas Mashhad shahrida o'lkani boshqarish bayrog'ini baland ko'tardi"⁶⁵.

Nihoyat, Xondamirning "Sayyid Hodixoja" va "Mahdixoja" haqidagi mazkur xabarini "Tarixi Rashidiy" va "Musaxxir il-bilod" ma'lumotlari bilan qiyoslaydigan bo'lsak, ota tomonidan Sayyid Otoyi orqali hazrat Aliga ulanuvchi Murtazoxoja farzandi, onasi Shayboniyxonning bobosi Abulxayrxonning qizi

⁶³ G'iyyosiddin ibn Humomiddin Xondamir. Habib us-siyar fi axbori afrodi bashar. – T.: O'zbekiston, 2013. –B. 586 – 587.

⁶⁴ G'iyyosiddin ibn Humomiddin Xondamir. Habib us-siyar fi axbori afrodi bashar. – T.: O'zbekiston, 2013. –B. 595.

⁶⁵ [http://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/muhammad-shayboniyxon/xurramshox qismati/](http://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/muhammad-shayboniyxon/xurramshox_qismati/)

hamda Bobur podshohning opasining eri siftida tilga olingan Sayyid Hodixoja va Mahdixoja aslida bir shaxs – Sayyid Hodixoja bo’lib chiqadi. Modomiki, u 1517-yili Bobur podshohdan yuz o’girib, Movarounnahrga qaytib ketgan va nomini yanglish ravishda “Mahdixoja” shaklida tilga olgan Xondamir bilan uchrashgan ekan, demak, Sayyid Hodixoja 1510-yil dekabrida Marv jangida halok bo’lmagan. Aniqrog’i, shoh Ismoil uni ham Xonzodabegimga qo’shib, Bobur podshoh oldiga yuborgan. Boburning bu haqda yozmasligi tushunarli bo’lsa-da, ammo Muhammad Haydar Mirzoning uni Marv jangida o’ldiga chiqarishini yana bir bor o’rganish kerak bo’ladi. Demak, Sayyid Hodixoja va Xonzodabegim orasidagi nikoh 1517-yil boshida uzilgan. Bu paytda Xonzodabegim 38-40 yoshlar orasida bo’lgan. Yoshi qirqqa yetgan Xonzodabegim shundan so’ng hech kimga turmushga chiqmay, Bobur va Humoyun davlatining jonkuyar maslahatchisi sifatida faoliyat ko’rsatganicha 1544-yili Kobilhaq mavzesida olamdan o’tib, Kobuldag'i Boburshoh maqbarasiga dafn qilingan⁶⁶.

“Musaxxir al-bilod” muallifi Xurramshoh haqida yana shunday yozadi: “Otasi Marv qamalida qolganda birinchi bo’lib shu Xurramshoh Balx lashkari bilan otasi yordamiga oshiqqan edi... Otasi dunyoni shahidlik bilan tark etgach, Xurramshoh ham oxirat sari shitob bilan ketdi. Xurramshohdan nasl qolmadı”.

Ko’rinadiki, tomirida uch tomonlama chingiziy va temuriylar qoni yurib turgan Xurramshoh safaviy hukmdor Shoh Ismoil Balx sari yurmasdan burun Samarqandga qaytadi. U tog’asi safaviylar yordamida Samarqandni egallagan 1511-yil kuzidan oldin, ya’ni o’sha yil yozida yo Samarqandda, yo Turkiston shahrida vafot etadi⁶⁷.

Uchinchi o’g’li Sevinch Muhammad (asl nomi Abulxayr) sulton bo’lib, otadan yosh qolgan va Ubaydulloxon qo’lida tarbiyalangan, unga keyinchalik Kesh hokimligi berilgan. Undan Muhammad Yor ismli o’g’il qolgan bo’lib, 1550 yili Buxoroda xon etib ko’tariladi va unga sherik sifatida Buxoro taxti vorisi Burhon bin Muhammad Rahim bin Abdulaziz bin Ubaydullo xonlik taxtiga o’tiradi.

⁶⁶ http://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/muhammad-shayboniyxon/xurramshox_qismati/

⁶⁷ <http://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/ismoil-bekjon-xonzodabegim-va-xurramshox-qismati.html>.

Muhammad Yor bir tuhmat sababli mazkur Burhon sulton tomonidan 1554 yili qatl etiladi. Shu bilan Shayboniyxon oilasidagi erkak farzandlar zanjirining oxirgi halqasi ham uziladi.

1510-yilda Marv yaqinida bo`lgan jangda Shayboniyxon qo`sishlari yengildi, xonning o`zi ham halok bo`ldi. Taxtga Ko`chkunchixon (1510-1530) chiqdi. Biroq Shayboniy zodagonlar, harbiy qo`mondonlar jipslashib, Ismoilshohga qarshi kurashish o`rniga Shayboniyxon birlashtirgan viloyatlar va yerlarni taqsimlashga kirishdilar, ular o`rtasida o`zaro kelishmovchilik, ziddiyatlar avj oldi. Bundan foydalangan Ismoilshoh tez orada Xuroson va Xorazm o`lkalarini, Shimoliy Afg'onistonni bosib oldi. Poytaxti Samarqand bo`lgan Movarounnahrda esa Shayboniylar hukmronligi saqlanib qoldi⁶⁸.

Xorazmda Ismoilshoh hukmronligiga, uning shialik diniy mazhabiga qarshi harakat boshlandi. Bu harakatga Vazir shahri qozisi Umar qori va Sayid Xisomiddin yetakchilik qildi. Ular Shayboniylar avlodidan bo`lgan Berka sultonning o`g`li Elbarsxonga murojaat qilib, xon bo`lishini taklif qildilar. Elbarsxon 1511-yilda qo`sish bilan kelib Vazir, Urganch, Xiva, Xazoraspni Ismoilshoh qo`sishlaridan tozaladi. Shunday qilib, 1511-yilda mustaqil Xiva xonligi tashkil topdi, Elbarsxon uning birinchi xoni bo`ldi. Xivada Shayboniylar sulolasasi hukmronligi 1770-yilgacha davom etdi⁶⁹.

Movarounnahrda 100 yilgacha davom etgan Shayboniylar davrida ham tinchlik bo`lmadi, qirg'inbarot urushlar, o`zaro ichki kurashlar davom etdi. 1512-yildan boshlab Buxoro viloyati noibi bo`lib kelgan Ubaydulla Sulton 1533-yilda Shayboniylar sulolasining oliy hukmdori etib ko`tarildi. Ubaydulla sulton Samarqanddagagi Ko`chkinchixon avlodlari qarshiligi sababli oliy hokimiyatni Buxoroda turib boshqarardi. Shayboniy Ubaydullaxon (1533-1539) davrida Buxoroning mavqeい ham siyosiy, ham iqtisodiy jihatdan kuchaydi va Movarounnahrning siyosiy-ma`muriy markaziga aylantirildi. Abdullaxon II davrida 1557-yildan boshlab poytaxt rasman Buxoro bo`lib qoladi va bu sana tarixga Buxoro xonligi tashkil topgan yil bo`lib kirdi.

⁶⁸ Бобобеков Х., Содиков Х., Рахимов Ж. Ўзбекистон тарихи. – Т.: Ўқитувчи, 1994. – Б. 102.

⁶⁹ Бобобеков Х., Содиков Х., Рахимов Ж. Ўзбекистон тарихи. – Т.: Ўқитувчи, 1994. – Б. 103.

**II BOB. MUHAMMAD SHAYBONIYXON DAVRIDA
MOVAROUNNAHR VA XUROSONDAGI IJTIMOIY-IQTISODIY VA
MADANIY HAYOT.**

2.1. Muhammad Shayboniyxon davrida Movarounnahr va Xurosondagi ijtimoiy-iqtisodiy hayot.

Herman Vamberi Muhammad Shayboniyxon xaqida “Shayboniyxon maorif va madaniyat haqida o’z davrining ruhidan to’la xabardor va hatto maorif jihatidan oldinga Temur shahzodalarning aksaridan past emas edi”⁷⁰ deb yozadi.

Zamonasidagi tengdosh shoirlarning aksariyatidan ortiq darajada qalam sohibi bo’lgan. Chunki uning she’rlari buyuk bir iqtidor va go’zal tabiatga molik ekanini, u ham turkiy ham forsiy ham arabiylardan tillardan asosli suratda voqif ekanini ko’rsatmoqda. Sulton Husayn Boyqaroning vafotidan keyin bir siqim donga muxtoj qolgan ko’pgina ulamolar Shayboniydan panoh topdilar. U ulamolarni xizmatga olib, munosib vazifalar berdi. Buxoro, Samarqand, Toshkentda masjidlar, madrasalar solishga amr etdi. Hatto harbiy yurishlarda ham o’z atrofida bir necha ulamo bo’lgan va bular unga hurmat hamda sadoqat ko’zi bilan qarashgan.

Shayboniyxon davlatni iqtisodiy va siyosiy jihatdan mustahkamlash yo’lida qator islohotlar o’tkazdi. Birinchidan u davlat boshqaruvida suyurg’ol tizimini joriy etdi, ya’ni zabit etilgan hududlarni boshqarish ishini o’z farzandlariga, qarindoshurug’lariga, birodarlariga, qabila boshliqlari bo’lgan sultonlarga topshiradi. Xususan, “Balx – Sultonshohga, Hisor – Mahdi va Hamza sultonlarga, Andijon – Mahmud sultonga, Qunduz – Ahmad sultonga, Hirot – Jonvafobiya, Marv – Qo’biz naymanga, Toshkent – Suyunxojaga, Xorazm – Kepakbiy qushchiga, Samarqand va Kesh Muhammad Temurga, Buxoro va Qorako’l – Mahmud sultonga, Turkiston esa Ko’chkunchixonga taqdim etilgan”⁷¹.

Samarqand poytaxt sifatida xon taxtiga o’tqaziladigan joy hisoblangan. U yerda xon sharafiga xutba o’qitilgan va pul zarb etilgan.

Ikkinchidan, u mamlakatda yer-suvni qaytadan taqsim qildi. Ko’chmanchi qabila zodagonlari yengilgan mahalliy mulkdorlar mol-mulkini musodara qilish,

⁷⁰Херман Вамбери. Бухоро ёхуд Мовароуннахр тарихи. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1990. –Б. 92

⁷¹Хофиз Таниш Бухорий. Абдулланома – Ташкент: Фан, 1966. – Б.103.

sotish, egasiz qolgan yerlarni o'zlariniki qilib olish yo'li bilan mulkclarini ko'paytirib oldilar.

Uchinchidan, mamlakat ichida ijtimoiy hayotni tartibga solishga imkon beruvchi islohot ham o'tkazdi. Keyingi 10 yil ichida soliqlar og'irligidan va mulkdorlar jabr-zulmidan yer-suvarinini tashlab ketgan xo'jaliklar yerlarini ishga tushirish masalasi ko'rib chiqdi.

To'rtinchidan, Shayboniyxon 1507-yilda pul islohotini o'tkazdi. "Bunga ko'ra mamlakatning hamma katta shaharlarida vazni bir xil – 5,2 gramm bo'lgan yangi kumush tangalar hamda mis chaqa pullar zarb qilinib muomalaga chiqarildi"⁷². Bu islohot iqtisodiyotni tartibga solish va savdo-sotiqni jonlantirish maqsadida o'tkazilgan edi. Ayni paytda bu islohot markaziy hokimiyatning siyosiy va iqtisodiy mavqeini kuchaytirishga, mahalliy hokimlar mavqeini esa kuchsizlantirishga, dehqonlarning soliq to'lash imkoniyatini oshirishga, davlat va xon mulkini ko'paytirishga imkon berdi.

Beshinchidan, Shayboniyxon ta'lim sohasida ham islohotlar o'tkazdi. Bu islohotning o'tkazilishiga amaldorlar guruhini vujudga keltirish va ularni jamiyatning asosiy tayanchiga aylantirish zarurati sabab bo'ldi. Xonlarga va sultonlarga barcha sohalar bo'yicha ilmli, diplomat qobiliyatiga ega bo'lgan amaldorlar zarur edi.

Shayboniylar davlatida xo'jalikning asosi dehqonchilik bo'lib, dehqonlar asosiy ishlab chiqaruvchi kuch edi. Mamlakatdagi tarqoqlik, to'xtovsiz urushlar mamlakat iqtisodini inqirozga, dehqonlarni esa qashshoqlanishiga olib keldi. Urush harakatlari natijasida soliqlar ko'paydi. Farg'ona va Andijon vodiylaridan dehqonlar qocha boshladi. Shayboniyxon va uning avlodlari – xonlar dehqonchilikni jonlantirish maqsadida soliqlarni ma'lum vaqtgacha kamaytirdi.

Dehqonchilikning har qaysisida o'ziga xos, ayrimlaridan pul hisobida, ayrimlaridan natura shaklida soliq olinardi. Masalan, "paxtakorlardan «g'o'za puli» olingan"⁷³.

Agrar munosabatlar eskicha qolib, yerlarning asosiy qismi mamlakati

⁷² Эрназарова Т., Кочнев Б. Тангалар ўтмиш даракчилари. – Т.: Фан, 1977. – Б. 31.

⁷³ Мукимов З. Шайбонийлар давлати ва хукуки. – Т.: Адолат, 2007. – Б. 78.

podshoh yoki mamlakati sulton deb atalgan, bu umum davlat erlari bo'lib, uning egasi davlat boshlig'i - xondir. Bu yerlarga nafaqat ekinzorlar, balki shahar yerlari, bozorlar ham kirgan. Bulardan umum davlat yeriga "tashlandiq yeriar", "ekin ekilmaydigan yerlar" ham kirgan va bu yerlardan foydalangan mahalliy oqsuyaklar, shu jumladan ruhoniylar yerni dehqonlarga foydalanishga topshirgan. Dehqonlar ham davlatga, ham zodagonga soliq to'laganlar. Bu soliq "malvadjihat" deb atalgan. Bundan tashqari yana bir qancha kattayu kichik soliqlar yig'ilar edi. Jumladan, dorug'ash - soliq yig'uvchilar va viloyat hokimlari foydasiga, zakot - mol boshiga, umuman mol-mulkdan olinadi. Zabitona - hukmdor foydasiga maxsus soliq; tanobona - bog' va bog'chadan olinadi; madadi lashkar - harbiy soliq. Soliqlar hajmi har yerda, har davrda turlicha bo'lgan⁷⁴.

Zodagonlar egallagan davlat yerlarining shakllari har xil: suyurg'ol, iqta, tanho va boshqalar edi. Suyurg'ol hukmron sulola a'zolari, yirik davlat arboblari va harbiy qo'mondonlarga berilib, ular yermi to'lig'i bilan o'zлari boshqarar va soliqlar yig'ib olar va bir qismini davlat xazinasiga topshirardilar. Suyurg'ol egalari g'oyat katta siyosiy huquqqa ega bo'lishgan. XVII asrdan boshlab suyurg'ol xonga sodiqligi uchun din arboblari, shoirlar, olimlarga mukofot sifatida beriladigan bo'ldi.

XV asrda temuriylar davrida mavjud bo'lган yerga egalik shakli -iqta saqlanib qoldi. Bu yerlar hukmron xon avlodlariga, yirik davlat va harbiy arboblarga berilgan. Iqta hajmi har xil bo'lib, iqta egalari - iqtadorlar o'zлarining harbiy kuchlariga ega bo'lgan.

XVI asrdan boshlab O'rta Osiyoda yangi yer egaligi tanho, kichik xizmatkorlarga beriladigan yerlar paydo bo'ldi. Tanho hajmi - tanhodorlar xizmatiga yarasha - bir necha uydan yoki bir necha qishloqlardan olinishi mumkin edi. Tanhoga ekin ekiladigan yerkargina balki tegirmon, moyjuvozlardan keladigan daromadlar ham qo'shib berilgan.

Yerning kichik va yirik zodagonlarga, amaldorlarga har xil shaklda tarqatib berilishi davlat xazinasidagi daromadni kamaytirdi va xon hokimiyatini zaiflashtirdi, mamlakatda tarqoqlik kuchaydi.

⁷⁴ Муқимов З. Шайбонийлар давлати ва хуқуқи. – Т.: Адолат, 2007. – Б. 96.

Yer egaligining alohida ko'rinishini vaqf yerlar tashkil qilgan. Vaqf yerlar xon tomonidan musulmon ruhoniylariga mos qilib beriladigan yerlar bo'lib, bu yerlardan kelgan daromadlar ko'pincha qozi kalonlarga, mutavallilarga (vasiylarga) tushardi. Vaqfga tarqatilgan yerlardan tashqari mulklarnig hajmi ba'zan katta miqdorni tashkil qilardi.

Shayboniyalar davridagi aholining asosiy qismini dehqonlar, yarim ko'chmanchilar va qisman ko'chmanchi-chorvadorlar tashkil etardi. To'xtovsiz o'zaro to'qnashuvlar mehnatkash aholining turmush darajasiga salbiy ta'sir qildi. Dehqonlarni ezishning asosiy shakli - davlat, vaqf va mulk yerlarini ijaraga berishdan iborat edi. Bu yer dehqonning merosi hisoblansa ham yer egasi xohlagan vaqtida tortib olishi va boshqaga sotishi mumkin edi. Shuning uchun dehqon mehnat unumdarligini oshirishdan manfaatdor emasdi. Undan tashqari, dehqonlar uchun o'z mahsulotlarini bozorga chiqarib sotish ko'p qiyinchiliklarni bartaraf etishni talab qilardi.

“Jamiyat hayotida, davlat boshqaruvida tutgan o'rniga, mavqeyiga qarab quyidagi bir nechta ijtimoiy tabaqalarni ajratib ko'rsatish mumkin:

- Oliy tabaqa. Unga xon va uning yaqinlari, o'zbek sultonlari, yirik saroy amaldorlari (vaziru vuzaro) kirgan. Davlat boshqaruvini ana shu ijtimoiy tabaqa amalga oshirgan;
- Umaro. Harbiy-ma'muriy amaldorlar, yirik sarkardalar, viloyat hokimlari, qo'shin va qabila boshliqlari. Mahalliy boshqaruv ular qo'lida bo'lган;
- Ulamolar. Yirik din peshvolari, shayxlar, xojalar. Ular nafaqat diniy, balki dunyoviy boshqaruvda ham faol ishtirok etganlar;
- Fuzalo. Jamiyat madaniy-ma'naviy hayotini aks ettirgan ijtimoiy tabaqa: olimlar, shoirlar va boshqalar;
- Raiyat (fuqaro). Jamiyatda asosiy ishlab chiqaruvchi, moddiy boylik yaratuvchi, xazinaga soliq to'lovchi ijtimoiy tabaqa bo'lib, ularga do'kondorlar, hunarmandlar, o'rtahol dehqonlar va chorvadorlar, yollanib ishlaydigan aholi kirgan;
- Qullar. Bu davrda qulchilik saqlanib qolning bo'lib, qullarni asosan harbiy talonchilik yurishlari paytida asirga tushirilgan, o'lja qilib olingan kishilar tashkil

etgan. Ma'lum haq evaziga ular ozod boishi mumkin bo'lган. Qullar mehnatidan saroyda, yirik amaldorlar va ulamolar xo'jaliklarida foydalanilgan”⁷⁵.

Shayboniyalar davrida davlatning ma'muriy tuzilishi ham o'ziga xos edi. Hokimiyat tepasida xon turardi. Xon taxtga taklif qilingan vaqtida u oq kigizga o'tqazilib to'rt tomonidan eng mo'tabar va nufuzli zodagon ko'tarib borardi.

Davlatdagi eng oliy hokimiyat xonga tegishli bo'lib, u qonunlar chiqarish, ularning ijrosini nazorat qilish, o'lim jazosi berish vakolatlariiga ega edi.

Xonlikning siyosiy tizimida, boshqaruvda Amir Temur va temuriylar davrida qaror topgan tartib-qoidalar, xususiyatlar bilan birga ko'chmanchi o'zbeklar davlatiga xos an'analar ham mavjud edi. Davlat boshqaruvida islomiy shariat va odat qonun-qoidalariga amal qilingan. Davlatni boshqarishda xon saroyidagi oliy darajali amaldorlardan tashkil topgan markaziy boshqaruv va viloyat hokimlari qo'lidagi mahalhy boshqaruv asosiy o'rinni tutib, ular mamlakatning amaldagi haqiqiy egalari edilar. Ular yordamida va bevosita ishtirokida xon ma'muriy boshqaruvni amalga oshirardi.

Markaziy boshqaruv davlatning ichki va tashqi hayotiga bog'liq barcha masalalarni hal qiladigan dargoh - saroy devonida jamlangan edi. Davlatning oliy darajali amaldorlari a'zo bo'lган va odatda bosh vazir tomonidan boshqariladigan bu mahkama mamlakatning siyosiy, moliyaviy, harbiy, tashkiliy va boshqa masalalarini ko'rib chiqar edi. Bu yerda qabul qilingan qarorlar xonning tasdig'i bilangina kuchga kirar va hayotga joriy etilardi. Xondan keyingi o'rinda otaliq mansabi turgan. U xonning murabbiysi, homiysi, maslahatchisi bo'lish bilan birga birinchi vazirlik lavozimini ham bajargan. Keyinchalik esa unga Zarafshon daryosi suvini boshqarish vakolati ham yuklangan. Undan keyin turadigan devonbegi mansabidagi kishi moliya va soliq ishlarini yuritish bilan shug'ullangan.

Shayboniyalar davrida quyidagi oliy martabali davlat lavozimlari mavjud edi: “Ko'kaldosh (bir onadan sut emgan ma'nosida) muassasalarni boshqarar hamda butun mamlakatdagi xonning do'stlari va dushmanlari haqida ma'lumotlar to'plovchi shaxs; mushrif - xon ma'lum shaxslarga in'om etadigan ashyolarni ro'yxatga olib

⁷⁵ <http://mail.psiref.ru/xvi-asr-xix-asrning-ozbekiston-respublikasi-oliy-va-orta-maxsus-talim-vazirligi-namangan-davlat-universiteti.html>.

boruvchi hamda soliqlar yig’ilishini boshqaruvchi shaxs; qushbegi – xonlar va sultonlar shikorga chiqqan paytda ov anjomlarini nazorat qiluvchi shaxs; munshiy (mirza) – xonning farmonini yozuvchi shaxs. Bulardan tashqari Shayboniylar davlatida mirshab, dodxoh (aholidan shikoyat tinglovchi shaxs), miroxo’r (otxona boshlig’i), parvonachi (yorliq topshiruvchi shaxs) kabi lavozimlar ham muhim ahamiyatga ega edi”⁷⁶.

Davlatda amaldorlardan tashqari ruhoniy zodagonlar ham hukmron sinf toifasiga kirardi. Ulamolarning bir qismi o’zlarini Muhammad payg’ambar avlodlari - sayyidlar deb hisoblar edilar, bir qismi o’zlarini Muhammad payg’ambarning choryor xalifalari - Abubakr, Umar, Usmon va Ali avlodlari deb hisoblardilar va ular xo’jalar deb atalardi. XVI asrning o’rtalariga kelib xo’jalarning obro’yi nihoyatda oshib ketdi, hatto kimning xon bo’lishi ham ularga bog’liq edi. Xo’jalar orasida eng obro’lilari jo’ybori shayxlar edi.

Davlat boshqaruvida harbiy-ma’muriy amaldorlardan tashqari, ulamolar, din peshvolari, shayxlar va xo’jalarning, xususan, shayx-ul-islom, qozi kalon, mufti kabi diniy mansab egalarining ham ta’siri katta bo’lgan. Bu davrda, ayniqsa, Buxoro yaqinidagi Jo’ybor qishlog’idan chiqqan xo’jalarning mavqeyi juda oshib ketdi.

Mahalliy boshqaruv viloyat hokimlari qo’lida bo’lib, ular ham o’z boshqaruv tizimiga ega bo’lgan. Unga qo’shinga boshchilik qiladigan, aholidan soliqlarni yig’ib oladigan, shariat qonunlarining to’g’ri bajarilishini nazorat qiladigan amaldor (rais)lar kirgan. Viloyatlar o’z navbatida kichik ma’muriy birliklar: tuman, kasaba va mavzelarga bo’linib idora qilingan. Mahalliy boshqaruvning eng quyi bo’g’ini oqsoqol (kalontaron) tomonidan boshqariladigan qishloq jamoalari edi.

Buxoro xonligining bu davrdagi asosiy ma’muriy birligi viloyat (ulus) bo’lib, manbalarda “Samarqand, Qarshi, Shahrisabz, Hisor, Balx, Termiz, Karmana, Qorako’l, Miyonko’l, Shosh (Toshkent), Turkiston, Farg’ona, O’ratepa, Marv kabi viloyatlar tilga olinadi”⁷⁷. Poytaxt shahar va unga tegishli tumanlar xonning o’zi tomonidan boshqarilgan. Viloyat hokimlari xon tomonidan tayinlangan. Odatda

⁷⁶ <http://mail.psiref.ru/xvi-asr-xix-asrning-ozbekiston-respublikasi-oliy-va-orta-maxsus-talim-vazirligi-namangan-davlat-universiteti.html>.

⁷⁷ Мукимов З. Шайбонийлар давлати ва хукуки. – Т.: Адолат, 2007. – Б. 38.

bunday yuksak mavqega xonning yaqin va ishonchli kishilari, qarindoshlari, yirik qabila boshliqlari, harbiy yurishlarda o'zini ko'rsatgan o'zbek sultonlari muyassar bo'lган. Shuni alohida aytib o'tish kerakki, xonlikning davlat chegaralari doimiy bo'lmay, tez-tez o'zgarib, kengayib yoki qisqarib turgan. Ba'zi viloyatlar tashqi va ichki siyosiy vaziyatga qarab markaziy hokimiyatga bo'ysunmay qo'ygan va ularni qayta bo'ysundirish uchun harbiy yurishlar olib borilgan.

“Shayboniylar qo'shini asosan otliq va piyoda askarlardan tashkil topgan”⁷⁸.

Qo'shin tarkibi, uning jangovar saflanishi, jang qilish tartibi Chingizzon va Amir Temur qo'shnlari harbiy tuzilishi, urush taktikasiga asoslangan bo'lib, unga Shayboniyxon davrida ko'chmanchi o'zbeklarga xos bo'lган bir qancha yangi jang usullari kiritildi. Xususan, Bobur Mirzo Shayboniyxon qo'shini “To'lg'ama” jang usulini mukammal o'zlashtirganliklari haqida ma'lumot beradi⁷⁹.

Shayboniylar qo'shini asosan qalb (qavl) deb ataluvchi markaziy qism, barong'or (o'ng qanot) va javong'or (so'l qanot) qismlaridan hamda xirovul (qo'shining orqa qismi)dan tashkil topgan. Ularga xonning o'zi va tajribali o'zbek sarkardalari boshchilik qilgan. Qo'shining qanotlariga boshchilik qilgan sarkarda o'g'lon deb yuritilgan. Qo'shin oldida manglay (avangard) deb ataluvchi harbiy qism yarim doyra shaklida saf tortib borgan. Uning oldida esa tez harakatlanuvchi kichik jangovar qism - ilg'or bo'lган. Shayboniylar qo'shinida umumiyligini qism oldida boruvchi “Qorovul” deb atalgan maxsus qism, qo'shining o'ng va so'l qismlari oldida boruvchi kichik g'o'l deb yuritilgan bo'linmalar va ortidan boruvchi maxsus yordamchi bo'linma - chanoh bo'lган.

Qo'shin tarkibida tug'chi qism, ya'ni bayroq ostida ehtiyyotda turuvchi (tug'ni qo'riqlovchi) 20-30 ming kishilik jangovar harbiy bo'linma hamda “zabongiri, ya'ni dushman tomonidan yashirin ravishda «til» tutib keluvchi maxsus bo'linma va xabargiri - dushman to'g'risida umumiyligini ma'lumot keltiruvchi bo'linmalar ham bo'lган”⁸⁰.

“Harbiy yurishlar paytida xon uchun rasmiy qabul marosimlari o'tkaziladigan

⁷⁸ Хофиз Таниш Бухорий. Абдулланома – Тошкент: Фан, 1966. – Б. 199.

⁷⁹ Бобур З. М. Бобурнома. – Тошкент: Юлдузча, 1989. –Б. 121.

⁸⁰ Хофиз Таниш Бухорий. Абдулланома – Тошкент: Фан, 1966. – Б. 239-240.

maxsus joy - bargoh hozirlangan. Qo'shinda saralangan o'zbek navkarlaridan tuzilgan xonning qo'riqchilari ham katta rol o'ynagan”⁸¹.

Shayboniyalar qo'shini ham Chingizzon va Amir Temur qo'shinlaridek, 10 minglik korpuslar - tumanlarga bo'lingan. Unga no'yon deb ataluvchi harbiy sarkarda boshchilik qilgan. Tumanlar o'z navbatida minglik, yuzlik, o'nliklarga bo'lingan.

Qo'shinni jangga hozirlash, ularning maoshini to'lash va boshqa tashkiliy ishlar bilan maxsus amaldor - tavochi shug'ullangan. “Qo'shinni qurol-yarog' bilan ta'minlashga mas'ul bo'lgan amaldor - jevachi bo'lib, u xonning qurol-aslahalariga ham javobgar bo'lgan”⁸².

Harbiy mansablar orasida “qo'rxona boshlig'i” lavozimi bo'lib bu mansab egasi o'qchi, kamonboz, qilichboz va boshqa harbiy qurollar ustaxonasini boshqargan”⁸³.

Manbalarda “Shayboniyxonning o'zi doimo qora Sovut kiyib yurgani, yonida hamisha kamon va sadoq bo'lganligi, hamda kamondan o'q otishga mohir bo'lganligi”⁸⁴ xaqida ma'lumotlar uchraydi.

Zahiriddin Muhammad Bobur shayboniyarning jang usuli haqida to'xtalar ekan “ular bizning ilgarimizdan ham ortimizdan ham bostirib kirib elimizni sarosimaga soldi. Ularning urushdagi ulug' hunari bu to'lg'amadir, hech bir urushlari to'g'amasiz o'tmaydi”⁸⁵.

Harbiy amaldorlar va navkarlarga xazinadan beriladigan yillik maoshdan tashqari harbiy yurishlar paytida qo'lga kiritiladigan o'ljadan ham berib turilgan.

Shayboniyalar davlati islom davlati edi. Shu sababli unda islom huquqi asosiy huquq manbayi hisoblangan. Shuningdek, odat huquqi va xonlarning turli farmonlari ham huquq manbalarini tashkil qilgan. Huquq manbalari orasida odat huquqining ahamiyati ancha katta bo'lgan.

Muhammad Shayboniyxon markazlashgan davlatni tuzish bilan birga unda

⁸¹ Хофиз Таниш Бухорий. Абдулланома – Тошкент: Фан, 1966. – Б.199.

⁸² Ахмедов.Б Тарихдан сабоклар. – Т.: Ўқитувчи, 1994. – Б. 411.

⁸³ Тогаева А. Ўзбекистонда харбий иш тарихидан. – Т.: Шарқ, 2012. –Б. 114.

⁸⁴ Муҳаммад Солиҳ. Шайбонийнома. – Т.: ЎзССР ФА, 1991. –Б. 40.

⁸⁵ Бобур З. М. Бобурнома. – Тошкент: Юлдузча, 1989. –Б.121.

huquq-tartibotning mustahkamlanishiga ham e'tibor beradi. Tarixchi Ro'zbexon Isfaxoniy "Mehmonnomayi Buxoro" asarida yozishicha, Ungacha Samarqand atrofidagi katta yo'llarda talonchilar va zo'ravonlar ko'payib, hatto Samarqanddan Turkiston yo'li bo'ylab "xon hazratlarining a'srga tatigulik davlati paydo bo'lgunga qadar to'rt farsax uzoqlikda joylashgan Aliobodga biror kishi bora olmay qolgan". U davlat yo'llarini anashu talonchi va bosqinchilardan tozalab, yo'llarning xavfsizligini ta'minlaydi. Muhammad (Shohbaxt) Shayboniyxon o'qimishli, shariat huquqi bobida o'z zamonasining bilimdon kishilaridan bo'lganligi uchun qonunchilik va yuridik masalalarni ulamolar bilan maslahatlashib hal etishga e'tiborli bo'lgan. Uning huzurida hech qachon shariat huquqi va qonunlariga zid majlis bo'lмаган.

Isfaxoniy "1513 – 1515-yillarda davlatni boshqarishga oid qisqa hajmli axloqiy-yuridik "Suluk al-muluk" – "Podsholarning xulq-atvorlari" nomli qo'llanma yozadi"⁸⁶.

Unda davlat ishlari, musulmonlar bilan o'zaro munosabatlarda, dorug'alar tayinlashda, xiroj, ushr, juz'ya kabi soliqlar yig'ib olishda nimalarga asoslanish lozimligi yoritib berilgan. 15 bobdan iborat mazkur asarda mansabdorlarni tayinlash, ularning huquq va majburiyatları, soliqlarni yig'ish tartibi, qo'zg'ololnarni bostirish haqidagi qoidalar keltirilgan.

Ashtarkoniylardan Subxonqulixon davrida (1680 – 1702) ham uning farmoniga ko'ra turli yuridik masalalarni hal etish uchun qabodiyonlik muftiy tomonidan musulmon huquqining asosiy qoidalaridan iborat to'plam tuzilgan.

Garchi Markaziy Osiyoda huquqning asosiy manbayi shariat bo'lsa-da, u od़at huquqining yashashiga chek qo'ya olmagan edi. Ilmiy adabiyotlarda huquqiy od़atlar va huquqiy bo'lмаган od़atlar bir-birlaridan farqlanadi. Davlat tomonidan tan olinib, mustahkamlangan va o'z sanksiyasiga ega bo'lgan odatlarga yuridik odatlar hisoblanadi.

Akademik V.V.Bartoldning ko'rsatishicha, turkiy tilda xalq ma'nosini "budun" degan so'z anglatib, "to'ra" davlat ma'nosida ham ishlatilgan. "To'ra" - qonun bilan birlashgan xalq ommasi, qonun degan ma'nolarni anglatgan.

⁸⁶ Madraimov A. Fuzailova G. Manbushunoslik. – T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyat, 2008. – B. 210.

Markaziy Osiyoda hukmron sulola bo’lgan turk-o’zbek o’troq va chorvador xalqlari orasida juda ko’p turli odatlar, ayniqsa, davlat huquqiy odatlari mavjud bo’lib kelgan.

Turkiy xalqlarning davlat huquqiy odatlari xon ko’tarish, voris tanlash, vassallikni rasmiylashtirish kabilarni tashkil qilib, ularning paydo bo’lishi eng qadimgi davrlarga borib taqaladi.

Turkiylar xonni taxtga o’tkazishda maxsus marosim o’tkazganlar: amaldorlar bo’lajak xonni kigizga o’tkazib, quyosh yurishi bo’ylab to’qqiz marta aylantirishgan.

Temur davrida ham davlat boshlig’ini saylashda shunday odat bo’lgan.

Oq kigizga o’tqazib xon ko’tarishdek turk odati o’zbeklarda XIX – XX asrlarda ham mavjud bo’lgan.

Ko’rinib turibdiki, xonlik - davlat boshlig’i mutlaq vorislik bilan emas, ma’lum ma’noda nasabli va mansabli kishilar kengashida tanlanib, saylanib, keyinchalik huquqiy odat bilan rasmiylashtiriladigan lavozim bo’lgan.

Turk xalqlarida taxtga vorislik masalasida uni egallah tartibi bo’yicha ham o’ziga xos odat bo’lgan.

Bu odat “zinapoya usuli”⁸⁷ deb atalib, mohiyati shundan iborat bo’lganki, ota vafot qilganidan keyin o’g’il taxtga vorislik qila olmaydi, balki vafot qilgan xonning ukasi bo’lmagan taqdirdagina o’g’li da’vogar bo’lishi mumkin. Shu odat Shayboniy o’zbeklarda ham saqlanib qolgan.

Tarxonlik instituti yirik askarboshi, mansabdar shaxslar, ba’zan fuqarolarning bir guruhiga beriladigan odat huquqidan kelib chiqqan institut bo’lib, keyinchalik ulardan maxsus imtiyozli tabaqa - tarxonlar vujudga kelgan.

O’tmishda jangovor, harbiy harakatlarda mohir bo’lgan turkiy xalqlarda harbiy odatlarning ustuvor mavqeyi bois harbiylar hayotiga oid ayrim masalalar odat huquqlari bilan tartibga solingan. Jumladan, dasht o’zbeklarda biron-bir xursandchilik munosabati bilan katta bayramlar uyushtirish, undan keyin janqi (yoki chang’i) qurish va unda yaqin orada bo’ladigan muhim rejalarini, masalan, biror davlatga qarshi urush harakatlarini olib borishni muhokama qilish odati bo’lgan.

⁸⁷ Мукимов З. Шайбонийлар давлати ва хукуки. – Т: Адолат, 2007. – Б. 97.

O’zbek qo’shinlarida garovga olib turish ham juda keng qo’llanilib, garovga olingan shaxslarni o’ldirish, qul qilish, sotib yuborish yoki boshqa shaxslar bilan kelishib, qo’yib yuborish mumkin bo’lmagan. Garovga olish ba’zi hollarda “oq uylik qilib olib ketish” deb atalib, uzoq muddatlarga - oylar va yillarga cho’zilgan⁸⁸.

Markaziy Osiyo musulmon aholisi orasida islomga umuman aloqasi bo’lmagan odatlarning ham mavjudligi ko’zga tashlanadi. Masalan, dehqon don ekinlarini o’rib, yanchib bir uyum xirmon qilgach, bu uyum sarkorning kelishiga qadar daxlsiz hisoblangan. Uning vazifalaridan biri g’allaning soliq sifatida olinadigan qismini o’lchashdan iborat edi. Ammo, odatga ko’ra, sarkor o’z vazifasiga kirishmasidanoq don yetishtirgan dehqon uning bir qismini o’z qishlog’iga yoki mahalla masjidiga yoxud o’zi e’tiqod qiladigan biror mozor shayxi hissasi (haqqi-ulli)ga ajratgan. Qur’onda bu haqda hech narsa deyilmagan bo’lsa-da, yangi yetishtirilgan shu yo’l bilan poklab olinadi, deb hisoblangan. Vaqt o’tishi bilan Osiyoda Xudo yo’liga olinadigan bu ushr solig’i xiroj va tanob kabi oddiy davlat soliqlariga aylandi, birinchisi ekin maydonlaridan, ikkinchisi bog’lardan, uzumzorlardan, poliz va bedazorlardan olingan hosilning beshdan bir, hatto uchdan bir qismigacha to’g’ri kelgan.

Har bir madrasa (oliy diniy o’quv yurti) unga asos solgan kishi tomonidan berilgan yoki aholi o’z xohishi bilan in’om etgan va ko’p hollarda qo’zg’almas mulk tarzida bo’lgan vaqfga ega bo’lgan. “Vaqfni boshqarish mutavallilarga topshirilgan bo’lib, ular mulkning foydalanishi, qo’riqlanishi, ijara ga berilishi, vaqf daromadlarining bo’linishi ustidan nazoratni amalga oshirganlar”⁸⁹. Ko’pincha, daromadning taqsimlanishi vaqfni vasiyat qilgan shaxs tomonidan tuzilgan vaqfnomada ko’rsatilgan. Ana shu yorliqqa asosan, mutavalli vaqf mulkining bir yillik yangi daromadidan undan bir hissasini xizmat haqiga olgan. Shu bilan birga, madrasa mutavallilarining ishini asta-sekinlik bilan nazorat qilish maqsadida bosh mutavalli mansabi joriy qilindi, ammo ularning maoshi to’g’risida gapirilmaydi. Hukumat unga maosh to’lamagan, odatga ko’ra, mutavalliboshi o’ziga bo’ysungan har bir mutavalli yillik daromadining o’ndan bir qismini olgan.

⁸⁸ Муқимов З. Шайбонийлар давлати ва хуқуки. – Т: Адолат, 2007. – Б. 91.

⁸⁹ Зиё А. Ўзбек давлатчилиги тарихи. – Т.: Шарқ, 2000. – Б. 245.

Turk xalqlarida oila-nikoh munosabatlari shariat huquqi bilan tartibga solingan, ammo shunga qaramasdan, bu borada ham ko'pgina odatlar mavjud edi. Jumladan, oilaga, xotinlarga til tekkizish katta gunoh hisoblangan. Hatto xotin-qizlarning ismlari talaffuz qilinmay, har birini boshqa bir ibora bilan atashgan. Masalan, xotinlarni bosh farzandining ismi bilan chaqirish odati bizgacha saqlanib qolgan. Xotinlarga til tekkizish chig'atoylarda va turk qabilalarida eng katta gunoh bo'lib, oila haqiga qilingan xiyonatdan ham azimdir. Bu qadimiy odat barcha turkiy xalqlar, jumladan, o'zbeklar ongidan hozirgacha chuqur joy olib kelmoqda.

Turkiy oilalarda vafot etgan akaning oilasini saqlab qolish, bolalarini boqib, katta qilish uchun uning beva qolgan xotiniga ukalaridan bin uylangan. Bu eski odat hatto turkiy xalqlarning qadimgi avlodlari -xunnlarga borib taqaladi.

Qishloq xo'jaligiga oid odatlar suv, yer o'lchamlari, ularni yuritishda odat huquqiga rioya qilish, hamma joyda yagona, hatto bir odatga emas, qaysi jug'rofiy hududda qanday odat bo'lsa, o'shangan rioya qilish haqidagi ko'rsatmalarni o'z ichiga olgan.

Qovun sotish. Poliz boshida qovun sotish odat bo'lmay, u yerga kelgan kishi to'ygunicha yeb ketishi rasm bo'lgan, olib ketishi mumkin emas edi. Bu haqda "Boburnoma"da ham ma'lumot bor. Jumladan, Bobur Andijon qovunlarini maqtab: "Qovun mahalida poliz boshida qovun sotmoq rasm emas", - deb yozadi⁹⁰.

Yurtchilik odati. Bu odat qarzini to'lay olmagan qarzdorning qarzlarini uning qarindoshlari o'zaro bo'lib olib, to'lashlari bilan belgilanadi. Bundan bosh tortgan qarindosh lozim hollarda o'zi ham ana shunday yordam olish huquqidан mahrum bo'lgan.

O'zaro yordam. O'zbek-qozoqlarda amalda bo'lib, jilu odati deb yuritilgan. Bu qahatchilik yoki tabiiy ofat oqibatida o'z mol-holini yo'qotgan, qiynalib qolgan qarindoshlarga qoramollar berib yordam ko'rsatish odatini bajarishdan bosh tortgan qarindosh zarur bo'lganda o'zi ham shunday yordamdan mahrum etilgan.

Hamkorlik (o'rtoqlik) odati – jamoa yoki qarindoshlar o'rtasida ko'proq qo'l mehnati talab qiladigan ishlarni bajarishda, masalan, beda o'rish, quduq yoki hovuz

⁹⁰Бобур З. М. Бобурнома. – Ташкент: Юлдузча, 1989. –Б. 223.

qazish, uy-joy qurishda (hashar deyiladi) yordam ko'rsatishdan iborat. Undan bosh tortish, o'z navbatida, shunday yordam olish huquqidan mahrum qilgan.

Davlat va jamiyat hayotini tartibga soluvchi muhim manbalardan bo'lib xizmat qilib kelgan o'zbek odat huquqi normalari vaqt o'tishi bilan o'z o'rnini zamonaviy huquq qoidalariga bo'shatib berdi. Ular o'rnini turli qonunlar egalladi.

Turkistonning o'rta asrlardagi ijtimoiy-siyosiy va huquqiy tarixini o'rganishda XV – XVI asrlardagi Samarqand (vaqf) hujjatlari to'plami diqqatga sazovor manbalardandir.

Hujjatlар to'plами mazmuniga ko'ra, o'sha davrdagi fuqarolik huquqiy munosabatlari, xususan, vaqf mulkining huquqiy holati hamda uning sud va davlat puli bilan himoya qilinishi masalalari, ish yuritish hamda hujjatlarning shakllarini o'rganishda muhim manba sifatida ishonchli ma'lumotlar beradi⁹¹.

O'zbekiston davlati va huquqi tarixiga oid yuridik hujjatlар orasida eng ko'p tarqalganlari vaqfnomalar bo'lib, yuzlab yillar o'tganligiga qaramay, bizgacha hatto ularning asl nusxalari yetib kelgan. Ular orasida «Vaqfnoma» yoki «Hazrat Shayboniyxon vaqfnomasi» deb ataluvchi hujjat o'zining davri, ta'sis etilishi, shartlari va tuzilishi jihatidan alohida ajralib turadi, u bizgacha yuz sahifadan ortiq kitobcha shaklida muqovalangan holda yetib kelgan murakkab tuzilishdagi hujjatdir.

Vaqf mulkularini boshqarish jarayonida ularni hissador foydalanishi uchun ijaraga berish orqali daromad olish mumkin bo'lган. Bunda vaqf mulkining ijarasi uch yildan oshmasligi, shuningdek, ijara haqi belgilanganidan oshiq yoki kam bo'lmasligi lozim edi. Mazkur hujjatning o'ziga xos shartlari ham bor. Masalan, ishlanadigan yerlar har qanday davr va vaqtda ham xonlar, sultonlar, amirlar xizmatida bo'lган kishilar, suyurg'oldan foydalanuvchi amaldorlar tomonidan ishlanishi mumkim bo'lмаган.

Vaqf mulkidan keladigan daromadlar shu mulkni rivojlantirish, kengaytirishga, madrasalarni ta'mirlash, ashyolar bilan ta'minlashga, mudarrislar, talabalar, hofizlarga maosh tayinlashga sarflangan. Hujjatning so'nggi, tasdiqlovchi qismida har o'n yilda xon huzurida - bosh qozi, shayxulisloм hamda o'sha davning taniqli

⁹¹ Мукимов З. Шайбонийлар давлати ва хукуки. – Т: Адолат, 2007. – Б. 86.

kishilari oldida uning aslidan nusxalar ko'chirilib, yangitdan tasdiqlanishi lozimligi ko'rsatilgan. Bunda vaqf ta'sis qilish vaqtida qo'yilgan shartlar o'zgarmasligi mustahkamlangan.

Shayboniyilar davlati va undan keyingi ijtimoiy-siyosiy tuzum huquqiy munosabatlarini o'rganishda shariat huquqi bilan bir qatorda dunyoviy sud-notarial hujjatlarining to'plamlari katta rol o'ynaydi. Bular ichida "Majma' al-vasoiq", ya'ni "Vasiqalar to'plami" ham o'ziga xos o'ringa ega. Bunda 1588 – 1591-yillarda tuzilgan 735 ta sud-notarial hujjati jamlanib, u ko'pgina ijtimoiy-siyosiy hamda yuridik masalalarni o'z ichiga oladi.

To'plamda shogirdlikka oid 25 ta hujjat bo'lib, ularning mohiyati shundaki, shogirdlik ijtimoiy-siyosiy masalalarni o'rganishda katta ahamiyat kasb etgan. Shuni aytish kerakki, usta kasb o'rgatishga shoshilmagan. U fotiha berish marosimini ataylab kechiktirib, shogirdning kuchidan imkon boricha ko'proq foydalangan. 679 hujjat – farzandlikka berish vasiqasida ko'rsatilishicha, ota-onada o'z farzandini muallimning oldiga olib borib, "bolaga otaliq ko'rsatib, unga tarbiya, xat-savod bering, shariat qoidalarini o'rgating", deya ta'lim haqi, bolaning kiyinishi va kundalik ovqatlanishi uchun zarur pul bergen. Bir yarim-uch dinor miqdoridagi bu pulning bir qismini muallim bolaning kiyinishi va ovqatlanishi uchun sarflasa, qolgan qismini «ta'lim haqi» deb o'ziga olib qolgan. Bu hujjatdan ko'rinish turibdiki, o'sha paytda shogirdlikka berish, o'g'il qilib olish masalalarini huquqiy tartibga soluvchi maxsus qonunlar bo'lмаган, shartnomalar bu kabi yoshlar kuchidan, mehnatidan xohlagancha foydalanishga imkon bergen. Juda ko'p hujjatlar qullikni bekor qilishning turli yo'llariga oid bo'lib, mazkur hujjatlarga ko'ra, bu yo'llar quyidagilardan iboratdir.

Ma'lumki, qullikda yashagan ota-onadan tug'ilgan bola ham xo'jayinning quli hisoblanib, boshqa qullardan farqli o'laroq, bunday qullar «xonazot qullar»⁹² deb atalgan. Xonazot qul va cho'rilarни xo'jayinlar birovga hadya etishi, ijara va har xil yumushlarga berishi mumkin bo'lган, ammo uni sota olmagan.

Xonlikda jinoyatni aniqlovchi va jazo beravchi asosiy mahkama islomiy shariat

⁹² Мукимов З. Шайбонийлар давлати ва хукуқи. – Т: Адолат, 2007. – Б. 111.

qonun-qoidalariiga asoslanib ish tutuvchi qozilik idoralari edi. Davlatdagi oliy sudyalar Qozikalon bo'lib, viloyatlardagi jinoyatlarni jazolash viloyat qozilar qo'lida bo'lgan. Oliy jazo - o'lim hukmini faqat xonm'ng maxsus farmoni bilan amalga oshirganlar. Aybdorni aniqlashda, shariat qonunlariga asosan, ikki kishining guvohligi yetarli bo'lgan. Viloyatlarda, tumanlarda jinoyat ishlarini viloyat hokimi nazoratida mahalliy qozilar olib borgan. Jinoyatchilarga gunohiga qarab o'lim jazosi, ma'lum muddatga (ko'p hollarda umrbod) zindonga tashlashdan tortib tan jazosi berish (darra urish, barmoqlarni kesib tashlash va boshqalar), sazoyi qilish, qoziqqa o'tkazish kabi jazo choralari ham qo'llanilgan. Aybdorlarga jazo berish ko'pincha bozor oldidagi maxsus maydonda - aholi ko'z o'ngida amalga oshirilgan⁹³.

Harbiylar sodir etgan jinoyatlar va jazo turlari maxsus harbiy sudyalar - qozi askar va mufti askar tomonidan ko'rib chiqilgan.

Mol-mulk bilan bog'liq jinoyatlar, o'g'irlik, shariat qonunlariga rioxaya qilmaganlik (ichish, chekish, qimor o'ynash, zino bilan shug'ullanish va boshqalar) uchun beriladigan jazolar turi ko'pincha amaldorlarning xohish-irodasiga bog'liq bo'lib, ma'lum jinoyatlar uchun aniq jazo oldindan belgilab qo'yilmaganligi, sud ishlarida poraxo'rlik, mansabni suiiste'mol qilishga yo'l ochib berardi.

Bu davrga oid hujjatlarda (Jo'ybor shayxlari arxivi, Samarqand qozilik idorasiga hujjatlari va boshqalar) turli fuqarolik ishlari, huquqiy-ma'muriy jinoyatlar, tartibbuzarliklar va ularga nisbatan qo'llaniladigan jazo choralari haqida ma'lumotlar saqlanib qolgan. Masalan, Buxorodagi Katta G'oziyon va Kichik G'oziyon madrasasiga tegishli hujjatlarda (1535) madrasada o'qish va hujrada yashash tartib-qoidalariini buzgan talabalarga quyidagi jazo choralarining ko'riliishi qayd etilgan. Agar talaba darslarga bir oy sababsiz qatnashmasa, uni hujradan mahrum qilishgan, agar talaba dangasaligi sababli darslarni yaxshi o'zlashtira olmasa va bir bosqichdan ikkinchi bosqichga o'ta olmasa, unga nafaqa to'lash bekor qilinib, hujra tortib olingan.

2.2. Madaniy hayot va Shayboniyxonning adabiyot sohasiga qo'shgan

⁹³ Мукимов З. Шайбонийлар давлати ва хукуқи. – Т: Адолат, 2007. – Б. 84.

hissasi.

Shayboniylar hukmronligi davrida Movarounnahrda fan va madaniyat rivoj topdi. Shayboniyxon hayotligi chog’ida yozilgan turli manbalarda, shu qatorda Muhammad Solihning chig’atoy-turkiy tilidagi “Shayboniynoma”, Fazulloh bin Ro’zbexonning forscha “Mehmonnomayi Buxoro”, Binoiyning forscha “Shayboniynoma”, Sayid Hasan Xojaning forscha “Muzakkiri ahbob” asarlarida Shayboniyxon davrida fan va madaniyat rivojlanganligi, Shayboniyxon esa fan va madaniyatga homiylik qilgani, o’zi ham o’qimishli, o’tkir, badiiy va ijodiy did egasi bo’lganligi ko’rsatiladi. Shayboniylarning deyarli barchasi o’qimishli shaxslar bo’lgan. Shayboniyxon, Ubaydullaxon, Rustam Sulton, Abdulazizzon, Juvonmard Sulton kabilar turkiy va forsiy she’r bitganlar. Shayboniyxon Buxoro va Samarcandni temuriylardan so’ng fan, madaniyat va san’at markazlari sifatida rivojlantirdi. Hirot va boshqa joylardagi olimlar, san’atkorlar, adib-shoirlar Buxoro, Samarcandga olib keltirildilar. Shayboniyxon asosan urushlar bilan o’tgan 59 yillik umri davomida yuqori saviyali badiiy asarlar yozib, meros qilib qoldirgan. Ammo uning ijod durdonalari o’z ona zamin Turkiston tuprog’idan uzoq-uzoq yurtlarga sochilib ketgan. “Shayboniyxon tomonidan 1508-yilda chig’atoy turkiy tilida yozilgan. “Baxr ul-xudo” (“Haqiqiy yo’lning dengizi”) diniy qasidasining yagona qo’lyozma nusxasi Londondagi “British Muzeyi” kutubxonasida saqlanadi”⁹⁴.

Shayboniyxonning yagona she’rlar to’plami bo’lgan “Devoni” esa Turkiyaning Istanbul shahridagi To’pqopi Saroyi kutubxonasida saqlanadi.⁹⁵ Bu asar haqidagi birinchi ma’lumotni tarixchi olim Zaki Validiy To’g’on 1927-yilda “Yangi Turkiston” jurnalining 1-sonida bosilgan “Shayboniyxonning she’rlari” maqolasida bergen. Muallifning bergen ma’lumotlariga qara-ganda Shayboniyxon Shohbaxt, Shayboq, Shaybek. Sheboniy, Shohibek nomlari (taxallus)da ijod qilgan devoni 191 varaqdan iborat⁹⁶.

Muhammad Shayboniydan nafaqat she’riy devon, shu bilan birga diniy

⁹⁴ Мухаммад Шайбоний ижоди хорижда. // Жаҳон адабиёти. 2010. – № 4 (155). – Б. 172.

⁹⁵ Мухаммад Шайбоний ижоди хорижда. // Жаҳон адабиёти. 2010. – № 4 (155). – Б. 172.

⁹⁶ Мухаммад Шайбоний ижоди хорижда. // Жаҳон адабиёти. 2010. – № 4 (155). – Б. 173.

mazmundagi “Bahr ul-hudo” nomli doston, o’g’li Temur sultonga atab yozgan pand-nasihatlardan iborat kitob yozgan, demak, hayoti beto’xtov jangu jadal ichida kechganiga qaramay katta ma’rifiy meros qoldirgan inson edi.

Muhammad Shayboniy adabiy merosining asosiy qismini urush tafsilotlari, hayotiy muammolar, darvishlik kechinmalari bilan yo’g’rilgan diniy-tasavvufiy qarashlar aks etgan g’azallar tashkil etadi. Ular o’z zamonida keng tarqalgan va mashhur bo’lgan. “Mehmonnomai Buxoro” asarida qayd etilgan e’tirof, ya’ni Shayboniyning tasavvufiy g’azallariga juda ko’p sharhlar yozilgani buning yaqqol dalilidir.

Roviylar xabariga ko’ra, “Shayboniyxon islom ulamolariga behad katta hurmat ko’rsatgan. U barcha harbiy safarlarida o’zi bilan kichkina go’zal kutubxonasini olib yurar va Amir Temur kabi Damashqu Halab ulamolari bilan diniy munozaralarga qatnashgan. Hirotning peshqadam tafsirchilari bo’lgan Qozi Ixtiyor va Muhammad Yusuf bilan Qur’onning ba’zi bir oyatlari borasida bahsu muloqotda bo’lgan”⁹⁷. Mirzo Bobur ham Shayboniyxoning islomiy bilimi yuksak ekanligini tan oladi. Ayni shu yuksak bilimi uchun o’sha davrda yashagan ulamolar, shoir va tarixchilar Shayboniyni “Xalifa ur-Rahmon”⁹⁸ va “Imom az-Zamon” ya’ni “davr imomi”⁹⁹ va “tangrining yerdagi xalifasi” deb ulug’laganlar.

Shayboniyxon Sakkokiy, Atoiy, Navoiy an’anasidagi klassik chig’atoy-turkiy she’riyatini davom ettirdi. Uning ijodiyotiga xos bo’lgan xususiyat shundaki, Shayboniyxon o’z asarlarida ona diyori Turkistonga mehr-muhabbatni jo’shib kuyladi. Turkistonning Buxoro, Samarqand, Urganch, Yassi (Turkiston) kabi shaharlari nomlarini o’z she’rlarida biror kimsa Shayboniyxonchalik ko’p ishlatgan emas. Buni biz shoirning quyidagi satrlarida yaqqol ko’ramiz:

Jannati ma’vo degan bog’i Samarqand emish,

Kavsari a’lo degan obi Samarqand emish.

Har nechakim o’tsalar Xuld tog’i toshini,

O’xshar anga dunyoda tog’i Samarqand emish.

⁹⁷ Херман Вамбери. Бухоро ёхуд Мовароуннахр тарихи. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1990. – Б. 91.

⁹⁸ Ҳасанхўжа Нисорий. Музаккири аҳбоб. – Т.: Ҳалқ мероси, 1993. – Б. 21.

⁹⁹ Зайниддин Маҳмуд Восифий. Бадоевул вакоев. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1979. – Б. 24.

Jilvai huru qusur har nechakim qilsalar,
 Nargisi mastonalari bori Samarqand emish.
 Bilki ato qiladi Haq har yonda Jo'ybor,
 To'rt orig'i har taraf ori Samarqand emish.
 Har taraf bargzor bog'lari erdi behisht.
 Necha desam vasfini koni Samarqand emish,
 Suyidur obi hayot, yeli turur jonfizo.
 Nuch dori izlasang qori Samarqand emish,
 O'la yozib Balxda bad yildan istab.
 Tegma Shayboniyga sen, shohi Samarqand emish¹⁰⁰.

Shayboniyxon Samarqandni o'z asarlarida jannat makon deb kuylasa,
 Buxoroni Ka'ba saviyasida ulug'lab:

Bir xayolim bor ko'ngulkim pir vafiy aylayin,
 Ul Buxoro shahrida Ka'ba tavofin aylayin.

Shayboniyxon boshqa yurtlar, shaharlarda yurgan kezlarda ham Samarqand,
 Buxoro, Turkistonni sog'inadi. Karmon, Shodmon, Qoqlik Darg'on kabi qadimiylarning zilol suvlarini qo'msaydi. U Movarounnahrdek go'zal yurtni bizga Xudoning o'zi qimmatbaho sovg'a sifatida had'ya qilgan deb aytadi.

Shayboniyxonning fanga, ma'rifat va madaniyatga bo'lgan ijobiy qarashlari albatta uning vorislariiga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Shu boisdan ham Shayboniylardan bo'lgan Ubaydullaxon, Abdulatif, Abdulaziz va Abdullaxonlar ilm-ma'rifat va madaniyatga xayrixoh hukmdorlar sifatida o'tganlar. Ubaydullaxon – Shayboniyxonning jiyani, Buxoro hokimi Mahmud Sultonning o'g'lidi. U 1533 – 1539-yillarda Buxoro hukmdori bo'lgan. Ubaydullaxon jasur va dovyurak lashkarboshi, qattiqqo'l hukmdor va ijodkor adabiyotshunos edi. U Shayboniyxondan so'ng kuchli va tartibli davlatga asos soldi, olti marta Xurosonga lashkar tortib bordi, Eron qo'shinlariga bir necha bor qaqqhatqich zARBALAR berdi. Xorazmni o'ziga bo'ysundiradi.

¹⁰⁰Мухаммад Шайбоний ижоди хорижда. // Жаҳон адабиёти. 2010. – № 4 (155). – Б. 171.

Ubaydullaxon ibn Mahmud Sulton “Ubaydi”, “Ubaydullo”, “Qul Ubaydiy” taxalluslarida she’rlar ijod qilgan. U fors, arab tillarini yaxshi bilgan, bu tillarda ham she’rlar yozgan. Ubaydullaxon “G’ayratnoma”, “Shafqatnoma”, “Kitob us-salot” kabi masnaviy yo’lida pandnoma-risolalar bitgan. U o’z asarlarida Yassaviy dunyoqarashi g’oyalarini asosiy yo’nalish qilib olgan. Ubaydiyning o’zbek, fors va arab tilidagi she’rlaridan iborat uch devoni bir muqova ishiga joylashtirilgan. Bu uch tildagi devonning yagona qo’lyozma nusxasi 1583-yilda Mir Husayn al Husayniy tomonidan ko’chirilgan bo’lib, kitob “Kulliyot” deb atalgan. Bu qimmatli qo’lyozma asar O’zbekiston Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik institutining qo’lyozmalar fondida saqlanadi.

Shoirning boy adabiy merosi hali maxsus o’rganilmagan. Ubaydiy o’zining o’zbek tilidagi g’azal va ruboilari, qit’a va tuyuqlari bilan hech shubhasiz, she’riyat taraqqiyotiga katta hissa qo’shgan. U o’zining g’azaliyotida an’anaviy mavzular-ishq-muhabbat, vafodorlik va do’stlik ayol go’zalligi va ochiq sadoqati kabilarni tarannum etadi. Shoir she’rlaridagi ifodaning o’ziga xosligi yuksak axloqiy fazilat va go’zal nafis dunyoviylikning o’zaro uyg’unligidir. O’zbek she’riyatida ishqiy she’rlar ko’p bo’lsada Ubaydiy satrlari ularning birortasiga o’xshamaydi.

Shoir Ubaydiy ijodi hali ochilmagan qo’riq. Bu boy xazinani chuqur va atroflicha o’rganib, uni xalqimizning ma’naviy boyligiga olib kirish mamlakatimiz adabiyotchilarining vatanparvarlik burchidir.

Shayboniylar sulolasи hukmdorlari orasida Abdullaxon alohida ajralib turadi. U kuchli va markazlashgan feodal davlat barpo etdi, fan va madaniyatning rivojlanishiga homiylik qiladi. Buxoro poeziyasi antologiyasining muallifi Hasan Hirosiyning bergen ma’lumotlariga qaraganda XVI asrning ikkinchi yarmida Buxoro xonligida fan va adabiyot bilan 250 dan ortiq namoyondalar shug’ullangan. Muhammad Shayboniyxonning ijodidan namunalar:

G’AZALLAR:

Dard g’am bechora ko’nglum sori oqildi yana,
Meni ko’rub ishq o’ti boshtin yana keldi yana.

G'unchadek ko'nglum g'am hijronidin qon bog'lodi,
 Mujdayi vaslin eshitib, ko'nglum ochildi yana.

Hajr o'tinda notavon jismim firoqing kechasi,
 Sham'dek boshtin-ayoq firqatda yoqildi yana

Qezlob erdim ishqini eldinu lekin naylayin,
 Holatim Majnun kibi olamg'a yoyildi yana.

Firqat otidin yeqildim, yor keldi so'rg'oli,
 Ey Shaboniy, yor dardingg'a davo qildi yana.

* * *

Yuzungni ko'rdum ul chortoq ichinda,
 Ochilmish toza gul yoproq ichinda.

Tabassum qilsang ul g'uncha labingdin,
 Degaysen bol tomor qaymoq ichinda.

Necha ko'zloding, ey ra'no g'izolim,
 Meni yondurmog'il avloq ichinda.

Qaram qilg'il, kel emdi, ey azizim,
 Uturg'il didayi mushtoq ichinda.

Jahonning ko'zi hargiz ko'rmishi yo'q,,
 Na qildi lablaring so'rmoq ichinda.

Kel ey soqiy, yukunub bir ayoq tut,
 Mango dilbar bila qishloq ichinda.

Mango javr aylading, ey bag’ri toshim,
Ko’ngulni soqlomay dil toq ichinda.

Muxolif Vaxshni qishlab tururda,
Turush bermay turur turmoq ichinda.

Cherikning gardini ko’rmoy qochiptur
Masaldur: – Qul qochor o’rmoq ichinda.

Shaboniyg’a beribtur nusratin qaq,
Qovub men xusrav (ni) chaqmoq ichinda.

* * *

Ey oqilon, ey oqilon, tark et, sen emdi bu jahon,
Jon bulbuli parvoz etar manzilgohidur osmon.

Butxonani vayron qilib, mayxona obodon qilib,
Gulxan emasdur manziling, gulshan havas qilg’il ravon-

Barham uroyin aqlu hush, vayron qiloyin nafsi xush,
Begonani oshno qilib, tun-kun kuzaygil baxti xon.

Qo’nglum g’amin beg’am qilib, haq dardini mahram qilib-
Bo’lsa jarohat em qilib, bo’lg’il tabibi mehribon.

Tortib Samarcand lashkarin, yurub mo’g’ul ustiga men,
Islom tig’in tez etib, barham uroyin qolmoqon.

Islom men-isлом men, kufforu kufri naylasun,
Kuffor bexin kesoyin, qolmosun andin hech nishon.

Shahboz bo'ldi chingizi, semurg'u anqo qoydadur.
Men-men muhitning javhari-javharni bilmas insujosh

Ey qahrabo, ma'mur etay ko'p durru marjonlar to'kub.
Ey dilbarning dardi bila o'tqa yonar men har zamon.

Shayboniy, so'zing qisqa qil, yurur yo'lingni rost qil,
To'ti so'zi shakkar turur, murdor qarg'a nokason.

RUBOIY

Gar bo'lsa kishi qoshi qarosi birla,
So'z yaxshi turur jigar yarosi birla,
Zulfu yuzi vasfini biturman tunu kun,
Oltun varaq ichra ko'z qarosi birla.

TUYUQ

So'g'd ichida o'lтурurlar yobular
Yobularning mingan oti yobular.
Yebularning ilgidan el tinmadi.
Yo bular bo'lsin bu yerda yo bular¹⁰¹.

2.3. Muhammad Shayboniyxon ijodining xorijiy mamlakatlarda o'r ganilishi

Mustaqillikga erishganimizdan so'ng yurtimiz ilm-fani, madaniyati va san'atiga qiziqish jahon miqyosida kuchayib bormoqda. Xususan, xorijiy mamlakatlarda o'zbek adabiyoti tarixining tadqiqotchilari tomonidan salmoqli ishlar amalga oshirilgan. Ma'lumki, ajdodlarimiz bitib qoldirgan ko'pgina nodir asarlar turli sabablarga ko'ra dunyoning turli taraflariga sochilib ketgan. Shoh va

¹⁰¹ Мухаммад Шайбоний ижоди хорижда. // Жаҳон адабиёти. 2010. – № 4 (155). – Б. 173.

shoir Muhammad Shayboniyxon (1451 – 1510) “Devon”ining yagona qo’lyozmasini turli sabablarga Turkiyaga yetib borgan. “Devon” kotiblar tomonidan ko’paytirilmaganligi va omma orasida keng tarqalmaganligi tufayli to’rt asr davomida tarix qatlarida noma’lumligicha yotgan edi.

O’tgan asrda ulkan tarixchi va siyosat arbobi Ahmad Zaki Validiy To’g’onning sharofati bilan Shayboniy “Devon”i dunyo yuzini ko’rdi. XX asrning 20 – 30-yillarida Istanbulda nashr etilgan “Yangi Turkiston” jurnalida professor To’g’onning “Shayboniyxonning she’rlari” nomli maqolasi e’lon qilindi. Maqolada olim birinchi bo’lib Shayboniyning Istanbuldagı To’pqopi saroyi kutubxonasida “2436” inventar raqami bilan Usmoniy turk sultonlaridan Ahmad III muhri ostida saqlanayotgan “Devon”i haqida xabar bergan, uning hayoti va ijodiga to’xtalgan hamda o’limi tafsilotlarini yozgan¹⁰². Ahmad Zaki Validiy To’g’on turli manbalarga asoslanib to’plagan bu ma’lumotlarni kengaytirib, 1947-yilda nashr etilgan «Bugungi turk eli. Turkiston va yaqin tarixi» kitobida ham keltirilgan. Shundan so’ng M. F. Ko’prulu, K. Eraslon, M. Kafali kabi qator Usmoniy turk olimlari Shayboniyxon ijtimoiy va adabiy faoliyatining turli qirralarini yoritganlar, “Devon”dan ayrim namunalarni matbuotda chop ettinganlar, ijodini ilmiy tahlil-tadqiq qilganlar. Umuman, Turkiyada mumtoz adabiyotimizga oid manbalarni o’rganish, targ’ib-tashviq etish va yuksak nashriy saviyada e’lon qilish borasida yaxshi an’analar yaratilgan.

Istanbul universiteti adabiyot fa’kultetining turk tili va adabiyoti bo’limida Shayboniy ijodi yuzasidan 1968-yilda Akbiyik O’zay, 1971-yilda Temur Xo’ja o’g’li dissertatsiya himoya qilganlar.

Muhammad Shayboniy asarlari ustida ilmiy tadqiqot ishlari olib borgan yana bir turk olimi Ya. Qoraso’y shoir “Devon”ining lotin imlosiga o’girgan nusxasini o’zining “Shayboniyxon devoni” nomli doktorlik dissertatsiyasiga ilova sifatida kiritgan. Ya.Qoraso’y shoir “Devon”ini asosan tilshunoslik nuqtai nazaridan tekshiradi va Shayboniy asarlari tilining soddaligi, tarixiy voqealarning talqiniga xos xususiyatlari bilan o’zbek adabiyotida o’ziga xos o’rin tutadi, deb baho

¹⁰² Мухаммад Шайбоний ижоди хорижда. // Жаҳон адабиёти. 2010. – № 4 (155). – Б. 172.

beradi”¹⁰³. Olim Shayboniy ijodining o’ziga xos bir qirrasini alohida ta’kidlab o’tadi. Bu shoir she’rlarida jug’rofiy, etnik va shaxs nomlarining tez-tez uchrashidir. Lirk janrdagi asarlarda joy va shaxsni bildiruvchi maxsus nomlarni Shayboniy darajasida keng qo’llagan boshqa biror ijodkorni topish qiyin. Shuning uchun ham shayboniyshunos Ya. Qorasoy uning ijodini Turkiston tarixi va jo’g’rofiyasining she’riy bayoni deb baholagan. 1998-yilda Anqara matbuotida Ya. Qorasoy Shayboniy ijodini yoritishga bag’ishlagan ko’p yillik ilmiy izlanish natijalarini monografiya tarzida e’lon qildi. Olim Shayboniy haqida islom ilmlari va tasavvuf nazariyasini yaxshi bilgan, Eron adabiyotidan xabardor, go’zal san’atlarni tushunadigan san’atkor ruhiyatli bir insondir, degan fikrni bildiradi. Muhammad Shayboniyning ijodiy ko’lami faqat “Devon” tarkibidagi asarlar bilan chegaralanmaydi. Manbalarda shoirning boshqa asarlari ham mavjudligi to’g’risida ma’lumotlar keltiriladi. Hasanxoja Nisoriy “Muzakkiri ahbob” tazkirasida Shayboniyning turkiy til qonun-qoidalari bo'yicha fors tilida kitob yozganligi haqida xabar beradi”¹⁰⁴. Biroq mazkur kitob hozircha topilgan emas.

Professor Muhammad Fuod Ko’prulu Shayboniyxonni “original va samimiyl ijod namunalari, Navoiy klassikasi yonida yassaviylik adabiy an’analari bilan yo’g’rilgan asarlarini hisobga olganda, o’zbek adabiyoti takomiliga salmoqli hissa qo’shgan, o’z o’rniga ega bo’lgan siymodir” deb ta’kidlaydi va “Islom ensiklopediyasi”ga yozgan maqolasida Shayboniyning fiqh ilmiga oid risolasi xususida so’z yuritadi. 1507- yili yozilgan bu asar shahzoda Temur Sultonga atalgan bo’lib, diniy yo’l-yo’riq va qoidalardan tashkil topgan.

Sharqshunos olim V. V. Bartold arxivini tavsif etgan N.N. Tumanovich ma’lumotiga qaraganda, M. F. Ko’prulu Shayboniyning mazkur asarini 1510-yilda Mashhadda ko’chirilgan qo’lyozma nusxasidan yozib olgan va u turk olimining shaxsiy kutubxonasida saqlanadi.

Keyingi tadqiqotlarda ham mazkur asar tilga olinmoqda. Zahiriddin Muhammad Boburning “Mubayyin” asarining Istanbul nashrini amalga oshirgan

¹⁰³ Муҳаммад Шайбоний ижоди хорижда. // Жаҳон адабиёти. 2010. – № 4 (155). – Б. 172.

¹⁰⁴ Ҳасанхожа Нисорий. Музаккири аҳбоб. – Т.: Ҳалқ мероси, 1993. – Б.23.

doktor Tanju O’ral Seyhan Shayboniyning ushbu nasriy asarini «Risolai maorif» deb qayd etadi va uning aniq manzilini ko’rsatadi. Bu ma’lumotga ko’ra, asar Britaniya muzeyi kutubxonasida 12956 raqami bilan saqlanadi, hijriy 916 yilda Mashhadda ko’chirilgan, 46 sahifadan iborat bo’lib, har sahifada 10 satr bitilgan¹⁰⁵.

Shayboniy teran falsafiy fikrlarni keng va batafsil bayon qilishda maq’bul she’riy janrlardan biri bo’lgan qasida janriga ham murojat etgan. Bizga yetib kelgan bu asar falsafiy-ta’limiy ruhdagi “Bahr ul-hudo” (“Hidoyat dengizi”) deb nomlangan qasidadir. Hijriy 914 yilning muharram oyida - milodiy 1508-yil may oyining 3-14 kunlari Bastom va Domg’on (Xuroson) shaharlarida yozilgan 260 baytdan iborat mazkur qasidaning hozircha yagona deb hisoblanayotgan qo’lyozma nusxasi ham Britaniya muzeyi kutubxonasining Sharq qo’lyozmalari bo’limida Add. 7914 y. raqami bilan qayd etilgan U turk olimi Karasoy ma’lumotiga ko’ra aruzning “failotun failotun failotun failun vaznida yozilgan”,¹⁰⁶ va ingliz sharqshunosi doktor Charlz R’yo tomonidan tavsifi berilgan yirik majmua tarkibidan joy olgan. G’oyat noyob bu majmuuning mikrofilm va fotonusxasi O’zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida saqlanadi.

Tangriga til birla aytgil ey kangul hamdi sano
Kim sipas shukur aylaydir anga bo’lur muntahe¹⁰⁷

Shayboniy shaxsiyati va ijodiy merosiga Yevropa va Amerika olimlari ham qiziqqanlar. 1982-yilda amerikalik olim A. Bodrogligli “Ural-Oltoyshunoslik xalqaro jurnali”da Shayboniyning “Bahr ul-hudo” qasidasini so’z boshi, izoh va lug’at bilan nashr ettirgan. Noshir asarni o’rta asr Sharqida turkiy tilda yozilgan eng uzun qasida deb hisoblaydi va shoirning ba’zi mavzularda, ayniqsa, ilm haqidagi fikrlari tarqoq holda berilganligini nazarda tutib, qasidani ko’chirgan kotib uning asl tuzilishini o’zgartirgan bo’lishi mumkin, deydi. Olim asarning umumiyl uslubi Sa’diy uslubiga o’xshab ketadi, xususan qasidaning Shayboniy nasihatlaridan iborat o’rinlari “Guliston”ning bevosita ta’sirida yuzaga kelgan,

¹⁰⁵ Мұхаммад Шайбоний ижоди хорижда. // Жаҳон адабиёти. 2010. – № 4 (155). – Б. 173.

¹⁰⁶ Yakub Karasoy. Şibanhan divani. – Konya: Kurulu dokümantasyon merkazi, 1989. – B. 43.

¹⁰⁷ Yakub Karasoy. Şibanhan divani. – Konya: Kurulu dokümantasyon merkazi, 1989. – B. 5.

degan fikrga keladi. Shuningdek, A.Bodrogligli mazkur nashrga yozgan so'z boshida Shayboniyning “Risolai maorif” asarini qayd etadi va bu asar ham “Devon”, “Bahr ul-hudo” kabi shoirni yetuk bilimdon, taqvodor musulmon, raiyat va islom dini haqida g’amxo’rlik qiluvchi inson sifatida ko’rsatadi, deydi¹⁰⁸.

Amerikalik taniqli turkiyshunos E. Olvort XIV asrdan boshlab hozirgi davrga qadar ijtimoiy-madaniy tarixni qamrab olgan “Zamonaviy o’zbeklar” asarida Shayboniyxonni Turkiston tarixi va madaniyati rivojida katta mavqe tutgan hukmdor sifatida ta’riflaydi. Fransuz sharqshunosi R. Grossot Shayboniyxonga “kamoli e’tiborga loyiq fikr sohibi” deb baho beradi. Jadidchilik harakatining rahnamosi I. Gasprinskiy “Tarixi jadidi Turkiston” nomli maqolasida Shayboniyxonni “shijoatli shaxs” deb ta’riflaydi.

Shuningdek, major olimlaridan H. Vamberi, Ya. Ekmann, rus sharqshunoslaridan V.V. Bartold, A.A. Semenov, B.D. Grekov, A.Yu. Yakubovskiy va boshqalar Shayboniyxon va shayboniylar davri tarixi, adabiyotini, shu suloladan yetishib chiqqan sulton va xonlar faoliyatini o’rganganlar. Mutaxasislar qayd qilishlaricha, Muhammad Shayboniy umrining ko’p qismini ot ustida, quv-g’inda, jangu jadallarda o’tkazganiga qaramay, turli ilmu san’atlarni puxta egallagan. Bu haqda mashhur sharqshunos A. A. Semenov: “...olimlar Shayboniyxon faqat darbadarlikda kechgan hayotida qanday qilib bunday kamolotga erishdi ekan, deya hayratlanadilar”, – deb yozgan edi¹⁰⁹.

Shayboniyning ma’rifatparvarligi xususida so’z borganda uning faoliyatini yaxshi o’rgangan olim H. Vamberining ushbu fikrlari esga tushadi: “...bu urush odami maorif va madaniyat haqida o’z davrining ruhidan to’la xabardor va zamonasidagi tengdosh shoirlarning aksariyatidan ortiq darajada qalam sohibi bo’lgan. Chunki uning she’rlari, dushmanlari fikrining teskarisi o’laroq, buyuk bir iqtidor va go’zal tabiatga molik ekanini, u ham turkiy, ham forsiy, ham arabiylardan asosli suratda voqif ekanini ko’rsatmoqda... U maorif jihatidan oldingi Temur shahzodalarining aksaridan past emas edi”¹¹⁰.

¹⁰⁸ Мухаммад Шайбоний ижоди хорижда. // Жаҳон адабиёти. 2010. – № 4 (155). – Б. 173.

¹⁰⁹ Мухаммад Шайбоний ижоди хорижда. // Жаҳон адабиёти. 2010. – № 4 (155). – Б. 173.

¹¹⁰ Херман Вамбери. Бухоро ёхуд Мовароуннахр тарихи. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1990. –Б. 91.

Yurtimiz ilmiy-adabiy jamoatchiligi shoir “Devon”i haqida 1991-yilda xorijlik o’zbek olimi Temur Xo’ja o’g’lining “O’zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasining “O’zbeklar va dunyo” rukni ostida Muhammad Shayboniyxon tavalludining 540 yilligi munosabati bilan e’lon qilingan “Turk saroyidagi nodir asar” maqolasi orqali xabardor bo’ldi¹¹¹. Maqolada professor Ahmad Zaki Validiy To’g’on Shayboniyning noyob “Devon”ini To’pqopni saroyi kutubxonasidan topib, 1927- yilda ilm dunyosiga dastlab tuhfa etganligi eslatib o’tiladi. Temur Xo’ja o’g’li Shayboniy “Devon”ining jahondagi yagona qo’lyozmasi Usmoniy turk podshohlari saroyiga qanday kelib tushganligi ma’lum emasligini aytadi. Maqolada shoir ijodidan namunalar ham havola etilgan. Maqola muallifi, Sakkokiy, Gadoiy, Navoiylar an’anasini davom ettirgan Shayboniy she’rlaridagi diqqatni o’ziga jalb qiladigan xususiyat shoirning Turkiston yurtiga bo’lgan cheksiz muhabbatini har doim tilga olib turganidir, deb ta’kidlaydi¹¹².

Bularning barchasi Shayboniy faoliyati va asarlari har doim chet ellik tadqiqotchilar diqqat-e’tiborida bo’lganligini va bu borada bir qancha jiddiy ishlar amalga oshirilganligini ko’rsatadi. Eng muhimi, xorijdagi ilmiy-adabiy jamoatchilikning Shayboniy ijodiga munosabati, ta’kid va qaydlari bir-birini to’ldiruvchi mushtarak nuqtalarga ega.

¹¹¹ “Ўзбеклар ва дунё” рукни остида “Турк саройидаги нодир асар” / Ўзбекистон адабиёти ва саъати . – 1991 йил 20 декабрь.

¹¹² Мухаммад Шайбоний ижоди хорижда. // Жаҳон адабиёти. 2010. – № 4 (155). – Б. 1740.

XULOSA

Olib borilgan tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin:

- Muhammmad Shayboniyxonidan keyingi yozilgan tarixiy asarlarda Shayboniyxon Bobur Mirzoni Movarounnahrdan siqib chiqarib, Temuriylarning tarix sahnasidan tushib qolishiga aybdor tarixiy shaxs sifatida tariflanadi. Birinchi tomondan to’g’ri Muhammad Shayboniyxon tarixda temuriylar hukmronligini yo’qqa chiqargan kuchning timsoli sifatida qoldi. Ammo, temuriylarning tarix sahnasidan tushishiga, eng avvalo, toju taxt uchun kurashlar, ya’ni Amir Temur birlashtirgan sultanatni parchalanishi avvaldan taxt talashgan nabiralar g’avg’osi tufayli, o’zaro ittifoqning yo’qligidan yuz berdi. Bu tarixiy haqiqat;
- Muhammad Shayboniyxon tarixda ko’chmanchi o’zbeklar davlati asoschisi degan nom olgan, U Jo’jining naslidan bo’lgan Abulxayrxonning nabirasi Budoq sultonning o’g’li edi. Abulxayxon esa Chingizzon o’g’li Jo’jining beshinchi o’g’li Shaybon (Shabon) naslidan bo’lgan. Balog’atga yetgan Shayboniy bobosi Abulxayrxon o’rdusining turli taraflarga tarqalib ketgan kishilarini atrofiga to’plab, bobosining sultanatini tiklashni orzu qiladi. Jiddiy tayyorgarlikdan so’ng, sulolaning yo’qolgan shon-shavkatini qaytarmoqqa kirishadi;
- venger sharqshunosi A.Vamberining “Buxoro yoxud Movarounnahr tarxi”da bu haqda shunday ma’lumot berilgan: “Turkistonning shimoliy viloyatlaridagi imtiyozli hokimlar (tobelar) isyon ko’targan paytda, Abulxayrnинг vorislaridan isyonni bostirish uchun foydalanildi. Lekin o’zbek shahzodalari bu yerni o’zlarining ona Vatanlaridek his etganlari uchunmi yoki to’plagan kuchlari ta’siri bilanmi, xullas, har qanday qurolli xizmat uchun to’langan oddiy maoshga qanoatsizlik qila boshladilar. Shu bois O’tror, Sovron, Sig’noq shaharlarini ularga berib, rozi qilish lozim ko’rildi. Keyinchalik g’oyatda kengayib ketgan Shayboniy davlati shu tarzda ta’sis etildi”¹¹³;
- ba’zi asarlarda Shayboniyxonga nisbatan “yarim sahroyi” iborasi ishlatildi. Muhammad Shayboniyxon yarim sahroyi emas. U Buxoroda ilm o’rgangan,

¹¹³ Херман Вамбери. Бухоро ёхуд Мовароуннахр тарихи. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1990. –Б. 78.

ko'ngli she'riyat va ilm-fanga payvand inson edi. Muhammad Shayboniy nafaqat kuch-qudratli sarkarda, shuning barobarida sahovatkor ilm-u ma'rifat homiysi va benazir ijodkor sifatida ham kuch-qudratli shaxs edi. U shoir sifatida Shayboniyxon, Shohbaxt, Shoyboq, Shoybek, Sheboni, Shohibek, Shayboniy taxalluslari bilan she'rlar yozgan, kamdan-kam ijodkorga nasib etadigan rutba – “Devon” egasi bo'lган. Bu devon 300 dan ortiq g'azal, ruboiy, tuyuq, chiston, ta'rix va boshqa janrdagi asarlarni o'z ichiga olgan;

– ma'lumotlarga ko'ra, Muhammad Shayboniyxon islom ulamolariga behad katta hurmat ko'rsatgan. U barcha harbiy safarlarida o'zi bilan kichkina go'zal kutubxonasini olib yurar va Amir Temur kabi Damashqu Halab ulamolari bilan diniy munozaralarga qatnashgan. Hirotning peshqadam tafsircilari bo'lган Qozi Ixtiyor va Muhammad Yusuf bilan Qur'onning ba'zi bir oyatlari borasida bahsu muloqotda bo'lган. Shuning uchun Shayboniyni “Xalifa ur-Rahmon” va “Imom az-Zamon” ya'ni “Davr imomi”» va “Tangrining yerdagi xalifasi” deb ulug'laganlar;

– Mirzo Bobur bilan Shayboniyxon ziddiyatida ikki muhim omil mavjud: bu Mirzo Bobur uchun salbiy, Muhammad Shayboniy uchun ijobiy nuqta bor. Hokimiyati uchun kechgan kurash davomida Mirzo Bobur yoshligi va tajribasizligi, eng avvalo, harbiy kuch-qudratining zaifligi tufayli xatoga yo'l qo'yadi: u shia mazhabli safaviylar hukmdori Shoh Ismoil bilan ittifoq tuzib, Samarqand taxtini begona kuchlar yordamida qo'l olishga urinadi, hatto Samarqandni so'nggi marta qo'lga kiritgach, shoh Ismoil nomiga xutba o'qitib, shia imomlari nomi bitilgan tanga zarb etdiradi. Ayni shu xato Movarounnahr aholisining temuriy shahzodadan ko'ngli qolishiga, ma'lum ta'sir kuchga ega ulamolarning undan yuz o'girishiga olib kelgan bo'lsa, Shayboniyxon asl muslimonlar, ya'ni sunna mazhabidagi muslimonlarning boshlig'i va ularning ximoyachisi sifatida har tomonlama qo'llab-quvvatlanadi;

– Muhammad Shayboniy o'zini Amir Temur davlatining vorisi hisoblagan. Ayni shu sababdan u mamlakat boshqarishda Sohibqirondan ibrat oladi. Shayboniyxon va sulolasi hukmronligi davrida Samarqand va Buxoroda

obodonchilik ishlari, hoziri kunimizgacha yuksak milliy me'morchiligidan namunalari hisoblangan ko'plab binolar tiklanadi. Xususan, shayboniylarning so'nggi vakili Abdullaxon II davrida Mavorannahr tarixida e'tiborga loyiq yuksalishlar yuz beradi. Ayni shu ishlari va yuqorida aytib o'tgan fazilatlari, qoldirgan boy merosi sababidan Muhammad Shayboniyini "yarim sahroyi" deb atash behad katta xato bo'ladi deyish mumkin;

– Muhammad Shayboniyxon 1510-yil Marv yaqinida Eron shohi Ismoil Safaviy bilan bo'lган jangda halok bo'ldi. Jangdan so'ng uning jasadi askarlar jasadlari orasidan topilgan va dushmanlari tomonidan boshi kesib olingan. Xonning vahshiylarcha tanib bo'lmas holga keltirilgan tanasi Samarqandda keltirilgan va Baland Sufa degan yerga dafn etildi. Keyinchalik boshqa shayboniylar ham dafn etilgan bu daxma Registon majmuasi hududida bo'lib, Tillakori va Sherdor madrasalari o'rtasidagi burchakda joylashgan;

– yana bir afsusli narsa, Muhammad Shayboniyxonning qabrtoshi bilan bog'liq. Uning Islom dunyosidagi eng go'zal qabr lavhlaridan biri sifatida tan olingan qabrtoshi rus bosqinidan keyin imperiya poytaxti – Sankt-Peterburgga olib ketilib, shu paytgacha Ermitaj muzeyida saqlanmoqda. Rus bosqini paytida yurtimiz tarixining noyob durdonalarigina emas, mozorlar toshigacha tashib ketilgani va shu bugungacha ularning birortasi ham qaytarilmagani ayanchli hodisadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

I. Bitiruv malakaviy ishi uchun ilmiy-nazariy va metodologik asos bo'lgan adabiyotlar:

1.1 Мирзиёев Ш. М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз // Халқ сўзи. – 2016. – 15 декабр.

1.2. Мирзиёев Ш. М. Илм-фан ютуқлари – тараққиётнинг муҳим омили // Халқ сўзи. – 2016. – 31 декабр.

1.3. Мирзиёев Ш. М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини бирга қурамиз. – Т.: Ўзбекистон, 2017. – 59 б.

1.4. Мирзиёев Ш. М. Фарзандлари соғлом юртининг келажаги буюkdir // Халқ сўзи. – 2017. – 6 январ.

1.5. Мирзиёев Ш. М. Қонун устуворлиги – инсон манфаатларини таъминлашнинг муҳим омилидир // Халқ сўзи. – 2017. – 10 январ.

1.6. Мирзиёев Ш. М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак // Ишонч. – 2017. – 17 январ.

1.7. Мирзиёев Ш. М. Миллатлараро дўстлик ва ҳамжиҳатлик — халқимиз тинчлиги ва фаровонлигининг муҳим омилидир // Маърифат. – 2017. – 25 январ.

1.8. Каримов И. А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: ҳавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. – Т.: Ўзбекистон, 1997. – 409 б.

1.9. Каримов И. А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. – Т.: Шарқ, 1998. – 38 б.

1.10. Каримов И. А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008. – 108 б.

1.11. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2017 – 2021-йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши

бўйича харакатлар стратегияси” ПФ-4947-сонли фармони // Халқ сўзи. – 2017. – № 28.

II. Manbalar:

- 2.1. Бобур З. М. Бобурнома. – Тошкент: Юлдузча, 1989. – 410 б.
- 2.2. G’iyosiddin ibn Humomiddin Xondamir. Habib us-siyar fi axbori afrodi bashar. – Toshkent: O’zbekiston, 2013. – 730 б.
- 2.3. Зайниддин Маҳмуд Восифий. Бадоевул вақоев. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1979. – 215 б.
- 2.4. Муҳаммад Солих. Шайбонийнома. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1989. – 336 б.
- 2.5. Muhammadyor ibn Arab Qatag’an. Musaxxir al-bilod. – Toshkent: Yangi asr, 2009. – 350 б.
- 2.6. Муҳаммад Ҳайдар Мирзо. Тарихи Рашидий. – Т.: Шарқ, 2010. – 830 б.
- 2.7. Темур тузуклари. – Т.: Ўзбекистон, 2011. – 181 б.
- 2.8. Ҳасанхожа Нисорий. Музаккири аҳбоб. – Т.: Ҳалқ мероси, 1993. – 315 б.
- 2.9. Ҳофиз Таниш Бухорий. Абдулланома. – Тошкент: Фан, 1966. – 510 б.
- 2.10. Абулғозий Баҳодирхон. Шажарайи турк. – Т.: Чўлпон, 1992. – 192 б.

III. Adabiyotlar:

- 3.1. Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи. – Т.: Шарқ, 2000. – 365 б.
- 3.2. Ахмедов Б. Тарихдан сабоқлар. – Т.: Ўқитувчи, 1994. – 430 б.
- 3.3. Ахмедов Б. Амир Темур ва Улуғбек замондошлари хотирасида. – Т.: Ўқитувчи, 1996. – 280 б.
- 3.4. Бердимуродов А. Гўри Амир макбараси. – Т.: Ҳалқ мероси, 1996. – 120 б.
- 3.5. Бобобеков X., Содиков X., Раҳимов Ж. Ўзбекистон тарихи. – Т.: Ўқитувчи, 1994. – 310 б.

3.6. Вохидов Р. Биз билган ва билмаган Бобур. – Т.: Маннавият, 1999. – 120 б.

3.7. Madraimov A. Fuzailova G. Manbashunoslik. – Т.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2008. – 265 b.

3.8. Мансур Олтин. Амир Темурнинг мабнавий салоҳияти // – Мулоқот. – № 4 (58). – 1996. – Б. 21-22.

3.9. Муқимов З. Шайбонийлар давлати ва ҳуқуқи. – Т : Адолат, 2007. – 120 б.

3.10. Муҳаммад Шайбоний ижоди хорижда // Жаҳон адабиёти. 2010. – №4 (155).

3.11. Тожибоева О. Бобур армони. – Т.: Камолот, 2000. – 110 б.

3.12. Тоғаева А. Ўзбекистонда ҳарбий иш тарихидан. – Т.: Шарқ, 2012. – 255 б.

3.13. Эрназарова Т., Кочнев Б. Тангалар ўтмиш даракчилари. – Т.: Фан. 1977. – 90 б.

3.14. Yakub Karasoy. Şibanhan divani. – Konya: Kurulu dokümantasyon merkezi, 1989. – 400 b.

3.15. Файзиев Т. Заҳириддин Муҳаммад Бобу ва унинг авлодлари. – Т.: Ёзувчи, 1996. – 170 б.

3.16. Херман Вамбери. Бухоро ёхуд Мовароуннахр тарихи. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1990. – 80 б.

3.17. Shamsutdinov R., Abdullaev M. Bobur va boburiylarning jahon madaniyati tarixida tutgan o'rni. – Toshkent: Fan, 2008. – 220 b.

3.19. “Ўзбеклар ва дунё” рукни остида “Турк саройидаги нодир асар” / Ўзбекистон адабиёти ва саъати . – 1991 йил 20 декабрь.

3.20. Ўзбек адабиёти тарихи. – Т.: Ўз ССР Фан, 1978. – 370 б.

V. Internet nashrlari:

5.1. <http://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/muhammad-shayboniyxon/xurramshox/qismati/>

5.2. <http://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/ismoil-bekjon-xonzodabegim-vaxurramshox-qismati.html>.

5.3. <http://mail.psiref.ru/xvi-asr-xix-asrning-ozbekiston-respublikasi-oliy-vaorta-maxsus-talim-vazirligi-namangan-davlat-universiteti.html>.

5.4. <http://uz.denemetr.com/docs/134/index-21097-2.html>.

ILOVALAR**1- ilova**

Kamoliddin Behzod tomonidan chizilgan Muhammad Shayboniyxon tasviri



Samarqanddagi Shayboniyilar daxmasi ruslar bosqini davrida

3- ilova


Registon maydonidagi Sherdor va Tillakori madrasalari o’rtasida joylashgan Shayboniy hukumdorlar daxmasi. Dastlab bu yer xalq tilida Baland Sufa deb nomlangan birinchi bo’lib bu yerga Muhammad Shayboniyxon dafn etilgan.



Sank-peterburgga olib ketilgan va Ermitaj muzeyida saqlanayotgan Muhammad Shayboniyxon qabrtoshi.

Qabrtosh yozuvi tarjimasi:

Olam hukumdori Shayboniy Muhammadxon! Uning husni, muloyimligiga falak ham xavas qilar edi. Taqdir o'zining shavqatsizligi vaadolatsizligidan pushaymon bo'lmoqda. Olam vayronalikda yuz tutishiga sabab bo'lganadolatsiz falakning bunday munofiqligidan yurak ham ingramoqda. Agar kim vafot etdi deb so'rasalar, javob beringlar: bu ming afsuskiy Muhammad Shayboniydir!



Shayboniyxonning yagona she'rlar to'plami bo'lgan devoni.